

POLISH SCIENCE JOURNAL
INTERNATIONAL SCIENCE JOURNAL

Issue 5(38)



POLISH SCIENCE JOURNAL

ISSUE 5(38)

INTERNATIONAL SCIENCE JOURNAL

WARSAW, POLAND
Wydawnictwo Naukowe "iScience"
2021

ISBN 978-83-949403-4-8

POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 5(38), 2021) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021. – 209 p.

Editorial board:

Bakhtiyor Amonov, Doctor of Political Sciences, Associate Professor of Tashkent University of Information Technologies

Mukhayokhon Botiraliyevna Artikova, doctor of science, Namangan state university

Bugajewski K. A., doktor nauk medycznych, profesor nadzwyczajny Czarnomorski Państwowy Uniwersytet imienia Piotra Mohyły

Tahirjon Z. Sultanov, Doctor of Technical Sciences, docent

Shavkat J. Imomov, Doctor of Technical Sciences, professor

Sayipzhan Bakizhanovich Tilabaev, Candidate of Historical Sciences, Associate Professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Temirbek Ametov, PhD

Marina Berdina, PhD

Hurshida Ustadjalilova, PhD

Dilnoza Kamalova, PhD (arch) Associate Professor, Samarkand State Institute of Architecture and Civil Engineering

Sarvinoz Boboqulovna Juraeva – Associate Professor of Philological Science, head of chair of culturology of Khujand State University named after academician B. Gafurov (Tajikistan)

Oleh Vodiany, PhD

Languages of publication: українська, русский, english, polski, беларуская, казакша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն

Science journal are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees.

The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

ISBN 978-83-949403-4-8

© Sp. z o. o. "iScience", 2021

© Authors, 2021

TABLE OF CONTENTS

SECTION: AGRICULTURAL SCIENCE

Egamova Dilchehra Adizovna, Muxamadov Qamoriddin Muxtorovich (Buxoro, Uzbekistan) YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI BOSHQARISH UMUMIY MASALALARI	7
Egamova Dilchehra Adizovna, Ibragimova Madinabonu Mirzoaliyevna (Buxoro, Uzbekistan) QISHLOQ XO'JALIK YERLARIDA YER MONITORINGINI O'TKAZISHNI TAKOMILLASHTIRISH	12

SECTION: ARCHITECTURE

Kamalova Dilnoza Zaynidinovna, Shonazarova Sohiba Uktamovna (Samarqand, Uzbekistan) O'RTA OSIYONING TARIXII SHAHARLARI MARKAZLARINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISH	16
--	----

SECTION: ECOLOGY

O'rinboyeva Maftuna Sodiqovna (Farg'ona, O'zbekiston) JAMIYATDA EKOLOGIK NORMALAR USTIVORLIGINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI.....	21
---	----

SECTION: ECONOMICS

Ortikov Doniyor Husen ugli, Rashidov Komil Kayumovich (Tashkent, Uzbekistan) ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT TO FREE ECONOMIC ZONES.....	25
---	----

SECTION: HISTORY SCIENCE

Agzamxodjaev S. S., Ashurov Navfal Burhonjon oqli (Tashkent, Uzbekistan) THE DEVELOPMENT OF ISLAM IN MOVAROUNNAHR AND THE CONTRIBUTION OF NASAFI TO THE DEVELOPMENT OF ISLAM	30
Рахмонова Шоира, Сангинова Ирода (Термез, Узбекистан) СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИНИНГ ТУРИСТИК ЙЎНАЛИШИГА КИРИТИЛГАН ТАРИХИЙ-МЕЪМОРИЙ, АРХЕОЛОГИК ЁДГОРЛИКЛАРИ ВА ДИНАМИКАСИ	35
Яхшиев Анвар Журакулович (Ташкент, Узбекистан) УЧАСТЬ БЕЖЕНЦЕВ ИЗ ВОСТОЧНОЙ БУХАРЫ, ПОСЕЛИВШИХСЯ В АФГАНИСТАНЕ.....	38

SECTION: INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES

Дабылов Азизбек, Қуўанышбаева Дилфуза (Нукус, Узбекистан) ИНТЕРНЕТ ЖУРНАЛИСТИКАСЫНДА СОЦИАЛЛЫҚ ТЕМАНЫҢ СӘУЛЛЕЛЕНИҰИ	43
--	----

Жаксуликова Дильноза, Ширин Асенбаевна Ескалиева (Нукус, Узбекистан) РОЛЬ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА	47
--	----

SECTION: MEDICAL SCIENCE

Зиямутдинова З. К., Алимходжаева Н. Т., Мирзакулова Л. М. (Ташкент, Узбекистан) БИОХИМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ АТЕРОСКЛЕРОЗА	50
Зокирова М. Б. (Ташкент, Узбекистан) УСТРАНЕНИИ И РЕКОМЕНДАЦИИ ИШЕМИЧЕСКИЕ БОЛЕЗНИ СЕРДЦА	59
Каратаева Н. А. (Ташкент, Узбекистан) К ВОПРОСУ СОВРЕМЕННОГО ПОДХОДА К ПРОБЛЕМЕ ПАТОГЕНЕЗА АЛЛЕРГИИ	65

SECTION: PEDAGOGY

Abduraxmonov Nodir Norali o'g'li (Tashkent, Uzbekistan) UZLUKSIZ KASBIY TA'LIM MUHITIDA PEDAGOGIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH JARAYONLARINI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	69
Ashirova Anorgul Ismailovna, Atajonov Botirbek Bahodirovich, Botirov Shaxzod (Urgench, Uzbekistan) CREATION OF METHODOLOGICAL SUPPORT FOR THE FUTURE FOR TEACHERS OF INFORMATICS WITH THE HELP	73
Atajonova Anorgul Jumaniyazovna, Abdurazakova Albina Rinatovna (Urganch, O'zbekiston) BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH	77
Rahimova Zulfiya Rashidovna (Urganch, O'zbekiston) BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TEXNOLOGIYA FANINING TA'LIMIIY VA TARBIVAVIY AHAMIYATI	80
Rasulova Shoira Azizovna (Farg'ona, O'zbekiston) BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ MA'NAVIY TA'LIM JARAYONIGA TAYYORLASHNING NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI	84
Raximova Guluro Ibragimovna (Urganch, O'zbekiston) MATEMATIKA DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH	87
Salayeva Nodira Batirboyevna, Ollaberganovna Muborak Xolmurovatovna (Tashkent, Uzbekistan) ROLE OF TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF POSITIVE MOTIVATION IN PROFESSIONALLY-ORIENTED FOREIGN LANGUAGE TEACHING	94
Siddiqov Xasan Taxirovich (Urganch, O'zbekiston) OLIIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHDA TA'LIM-TARBIVANING AHAMIYATI	97

Tilavova Minavar, Sapayeva Boljon, Madrahimova Dinora (Urganch, O'zbekiston)	
ORFOGRAFIYA - SAVODXONLIGIMIZ GAROVI	100
Нурметов М. Р., Сейитниязова А. А. (Урганч, Узбекистан)	
ЧИЗМАЧИЛИК ФАНИ БЎЙИЧА УЎУВЧИЛАРДА КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ	105
Нурметов М. Р., Сейитниязова А. А. (Урганч, Узбекистан)	
МУҲАНДИСЛИК ГРАФИКАСИДА ФАЗОВИЙ ТАСАВВУРНИНГ ПСИХОЛОГИК ВА ПЕДАГОГИК ЖИҲАТЛАРИ	110

SECTION: PHILOLOGY AND LINGUISTICS

Dusmetova Maksuda Matnazarovna, Dusmetova Saodatjon Murodovna (Urgench, Uzbekistan)	
TYPES OF APPROACHES TO STUDYING PRAGMALINGUISTICS	113
Пак Irina Valerevna (Tashkent, Uzbekistan)	
REALIA AS A CHALLENGE IN TRANSLATION	117
Shirin Asenbaevna Eskalieva, Dilnoza Jaksulikova (Nukus, Uzbekistan)	
IMPORTANCE OF TEACHING WRITING AS A LANGUAGE SKILL	120
Баўетдинов Мухаммеддин Казымбекович (Нукус, Узбекистан)	
ЎЗУВЧИ К.СМАМУТОВНИНГ «СИЗЛАРГА АЙТИБ КЕТМОҚЧИМАН...» РОМАН-ЭССЕСИДА МУАЛЛИФ ПОЗИЦИЯСИ	122

SECTION: PHILOSOPHY

Ergashev Ulug'bek Adxamovich (Farg'ona, Uzbekistan)	
JAMIYATNING FALSAFIY TAHLILI	126
Абдукаримова Гулчеҳра Баратовна (Ташкент, Узбекистан)	
ВЗГЛЯДЫ НА ОБРАЗОВАНИЕ ВЕЛИКОГО МЫСЛИТЕЛЯ СРЕДНЕЙ АЗИИ	129

SECTION: PHYSICS AND MATHEMATICS

Satliqov G'ulomjon Raxmatillayevich, Axmedov Qurbonbay Yuldashboyevich (Urgench, Uzbekistan)	
CHIZIQLI DIOFANT Gulistan, Uzbekistan TENGLAMALARI VA ULARNI YECHISH USULLARI	132
Xamidov T. O. (Gulistan, Uzbekistan), Tursunmakhatov K. I., Igamov S. B. (Tashkent, Uzbekistan)	
THE RADIUS OF ^8B FROM THE ASYMPTOTIC NORMALIZATION COEFFICIENTS EXTRACTED FROM THE NEUTRON TRANSFER $^{12}\text{C}(^6\text{Li}, ^7\text{Li})^{13}\text{C}$ REACTION	137
Xamidov T. O. (Gulistan, Uzbekistan), Tursunmakhatov K. I. (Tashkent, Uzbekistan)	
THE BOUND STATE WAVE FUNCTIONS OF ^{10}B	142

SECTION: PSYCHOLOGY SCIENCE

Bazarbayeva Aynura Baxtiyarovna (Nukus, Uzbekistan)	
ALCOHOLISM AS A FORM OF MANIFESTATION OF DEVIANT BEHAVIOR IN CHILDREN	145

Жуманиёзова Насиба Раматиллаевна (Урганч, Ўзбекистон) АУТИЗМ ТАШХИСЛИ БОЛАЛАР ОТА-ОНАЛАРИНИНГ ЭМОЦИОНАЛ ХОЛАТЛАРИНИ НАМОЁН БЎЛИШИ	149
Конурова Лейла Руслановна (Гулистан, Ўзбекистон) ПРИМЕНЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ ТЕРАПИИ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.....	153
Усмонова Мухтасар Акбаровна (Фарғона, Ўзбекистон) ИЖТИМОЙ УСТАНОВКАНИНГ ШАХС ИЖТИМОЙЛАШУВИГА ТАЪСИРИ	156

SECTION: SCIENCE OF LAW

Алимов Нодир Юнусович (Тошкент, Ўзбекистон) МУАЛЛИФЛИК ҲУҚУҚИ СОҲАСИДАГИ ҚОНУНЧИЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИ	160
Исмоилов Шахзод Зоир угли (Ташкент, Ўзбекистон) ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА ОЛИБ ҚЎЙИШ ВА ТИНТУВ ЎТКАЗИШ ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИНГ ДАЛИЛЛАРИНИ ТЎПЛАШДАГИ ЎРНИ	166
Тўхтаров Исмагуло Муродович, Олтмишева Насибахон Ғулумжоновна (Фарғона, Ўзбекистон) ЎЗБЕКИСТОНДА УМУМДАВЛАТ ВА ҲУДУДИЙ МАНФААТЛАР МУТАНОСИБЛИГИГА ЭРИШИШ МАСАЛАЛАРИ.....	173

SECTION: TECHNICAL SCIENCE. TRANSPORT

Turdaliyev Xusan Inomjonovich (Toshkent, O'zbekiston) BO'RLANMAGAN QOG' OZDA BOSISHDA BO'YOQNING OPTIK ZICHLIGINI TADQIQ QILISH	179
Болтаев О. Т., Нурхонов Б. Ш., Нафасов Н. О. (Ташкент, Ўзбекистон) ПУТЕВЫЕ ДАТЧИКИ КОНТРОЛЯ ПОДВИЖНОГО СОСТАВА: СОСТОЯНИЕ ВОПРОСА И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	185
Ишмуратов Хикмат Кахарович, Полвонов Элмурод Дилмурод угли (Ташкент, Ўзбекистон) ГАЗ ЁНИЛҒИСИГА ЎТКАЗИЛГАН «MAN» РУСУМЛИ ТРАНСПОРТЛАРДА ЮЗАГА КЕЛАДИГАН НОСОЗЛИКЛАР.....	192
Мовисян Б. В., Аветян Р. А. (Ереван, Армения) РАЗРАБОТКА СОСТАВА ГЛИНОЗЕМИСТО-БЕЛИТОГО ЦЕМЕНТА ИЗ НЕФЛИНОВЫХ СИЕНИТОВ	197

SECTION: TRADING

Yessenbekova Maira (Almaty, Kazakhstan) SCIENTIFIC APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF TRADING ALGORITHMS INTRODUCTION.....	205
---	-----

SECTION: AGRICULTURAL SCIENCE

UDC 332.2

Egamova Dilchehra Adizovna
TIQXMMI Buxoro filiali stajyor-o'qituvchisi,
Muxamadov Qamoriddin Muxtorovich
TIQXMMI Buxoro filiali 2-bosqich talabasi
(Buxoro, Uzbekistan)

YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI BOSHQARISH UMUMIY MASALALARI

Annotatsiya. *Maqolada respublikada yer resurslarini boshqarishning maqsadi, unga yuklatilgan vazifalar, boshqaruvga asos sifatida qabul qilingan tamoyillar, yer resurslaridan foydalanishni boshqarish funksiyalari tarkibi kabi masalalar ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *yer resurslari yer tuzish, innovatsion texnologiyalar, iqtisodiyot tarmoqlari, agrosanoat majmuasi, tamoyillar, boshqaruv funksiyalari.*

Qishlok xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xom ashyoga bo'lgan talabini qondirish bilan birga, eksport salohiyatini mustahkamlashning istiqbolli manbalaridan biri sanaladi. Shu sababli, so'nggi yillarda yer resurslaridan samarali foydalanish, ularni boshqarish tizimini takomillashtirishva rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda [1].

Respublika iqtisodiyotining tubdan intensiv rivojlanish yo'lga burilishi, uning barcha soxa va tarmoklariga ilmiy-texnika tarakkiyotining jadal tadbik etilishi, yagona iqtisodiy organizm sifatida agrosanoat majmuasining funksiya qilishi, yer resurslaridan foydalanish va boshqarishda yangi jiddiy yo'nalishlarni talab qiladi. Bunday sharoitda, ayniksa bozor iqtisodiyotisharoitida, yerdan foydalanishni tashqil qilish, rejalashtirish, agrosanoat majmuasining barcha darajasida resurslarni tejamaydigan texnologiyani joriy etish, yer bilan boglangan sanoat tarmoklarida chikitsiz texnologiyani tadbik etishga muljallangan bo'lishi kerakBuni amalga oshirish uchun esa yedan foydalanish iqtisodiyotini, tashqil etish, rejalashtirishning barcha tizimlarini maksadga yunaltilgan rivojlanishi pirovadrd natijada yer resurslarini boshkarishning yaxlit va samarali tizimitalab qilinadi.

Ma'lumki, har kandyboshkaruv, shu jumladan yer resurslarini boshkarishxam, anikmaksadninazardatutadi. Bunda boshkarishningasosiy maksadi bo'lib -davlatningyagona yer fondini iqtisodiyot tarmoqlarining manfaatini ta'minlash uchun samarali foydalanishni tashkil etish xizmat qiladi.Yer resurslarini boshkarish jarayonida uning maksadiga mos tarzda qo'yilgan bir qator vazifalar yechiladi. Bizning nazarimizda ularning asosiyarlari kuyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Tabiat va jamiyat konunlari va ularning rivojlanishi asosida ijtimoiy yer munosabatlarini tartibga solish masalalarini takomillashtirish.

2. Jamiyatning barcha ishlab chikaruvchi kuchlarini rivojlanishi vajoylashishi uchun eng yaxshi sharoit tug dirish.

3. Yer resurslari zaxiralarini yer fondi toifalari buyicha zamon va makonda iqtisodiyot tarmoklariga, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va yer uchastkalari mulkdorlariga optimal taksimlash va kayta taksimlash.

4. Yer resurslarini kengaytirilgan takror ishlab chikarishini ta'minlash orqali tuprok unumdorligini yaxshilashini ta'minlash.

5. Xar bir yer uchastkasini uni maksadli biriktirilishi orqali oqilona va samarali foydalanishini ta'minlash.

Ma'lumki, davlat tomonidan amalga oshiriladigan xar qanday xarakat ma'lum bir me'yorlar negizida amalga oshiriladi. Ushbu me'yorlarning asosini esa tamoyillar tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda yer resurlardan foydalanishni boshqarishning asosi sifatida kuyidagi tamoyillarni kuyish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Yer resurslarini boshkarishda sisyosiy, iqtisodiy, ekologik va texnologik yondoshuvlarning birligi.


2. Yerdan va boshka tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish masalalarini majmuaviy yechish.

3. Yer resurslaridan foydalanish boshqarishda qishlok xo'jaligining tabiiy moslashuvi jixatidan yerlarni rayonlashtirilgan ligini xisobga olish.

4. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yer resurslarining vositasi sifatida vazifasini xisobga olish.

5. Qishlok xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarning, eng avvalo sugoriladigan yerlarning aloxida muxofaza etilishini, kengaytirib borilishini xamda ulardanqat'iy belgilangan maksadda foydalanishni ta'minlash.

Ko'pchilik agrar-iqtisodchi olimlarning [2, 4, 6] fikriga ko'ra yer resurslaridan foydalanishni boshqarish ma'lum bir funksiyalar yordamida amalga oshiriladi. Misol uchun, prof. A.S. Chertoviskiy va A.K. Bozorovlarning fikriga ko'ra ular kadastr axborot ta'minoti va ikkita kichik tizim: yer munosabatlarini tartibga solish va yerdan foydalanishni boshqarish funksiyalaridan tashkil topadi. Bunda shuni e'tiborga olish kerakki ma'lum bir funksiyalar bir vaqtning o'zida ikkala kichik tizimda xam foydalanilishi mumkin (1-rasm) [3]. Misol uchun, yerdan foydashishni iqtisodiy boshqaruvi va yerdan foydashishni samaradorligini baholash funksiyalari.



1-rasm. Yer resurslaridan foydalanishni boshqarish funksiyalari tarkibi

Tizim tarkibiga kiritilgan funksiyalar boshqaruvning samarasini ta'minlashi uchun ularga aniq vazifalari yuklatilgan. Jumladan, **Yer munosabatlarini tartibga solish funksiyalar itizimida:**

Yer qonunchigini yaratish funksiyasi yerdan foydalanish sohasida yuzaga keladigan yerga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini yaratishni ta'minlaydi.

Yerdan foydalanishni bashoratlash funksiyasiga bo'lgan talab iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarida yer resurslaridan foydalanish zaruriyati bilan izoxlanadi. Ushbu funksiya tabiat va jamiyatning iqtisodiy rivojlanish qonunlariga mos ravishda mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va bozor iqtisodiyoti sharoitida yer resurslaridan foydalanish xususiyatlarini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi

Yer fondini taqsimlash va qayta taqchimlash - o'zida davlatning uzoq muddatga yer resurslaridan foydalanishga oid davlat siyosatini aks ettirganligi sababli boshqaruvning muxim funksiyalaridan biri hisoblanadi. Kelajakda yer resurslaridan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaraga erishish maqsadida foydalanishni ilmiy bashoratlash uning mazmunini tashkil etadi.

Yerdan foydalanishni boshqarish funksiyalari tizimida:

Yer tuzish - yer rurslaridan foydalanishni boshqarishning muxim funksiyalaridan biri xisoblanadi. Yer tuzish yer resurslaridan samarali foydalanish maqsadida hududlarni tashkil etishga qaratilgan tarkibiga loyiha-qidiruv, s'yomka va izlanish ishlari kiradigan tadbirlar tizimi ekanligidan tashqariyerdan foydalanish tizimining muxim tarkibiy qismi ham xisoblanadi.

Yerga oid nizolarni xal qilish funksiyasi yer resurslaridan foydalanishning muxim funksiyalaridan biri xisoblanadi. Unga bo'lgan ob'ektiv talab yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va yer uchastkalari mulkdorlari tomonidan yerga oid qonunchilik hujjatlarining buzilishi sababli yuzaga keladigan nizolarni xal qilish bilan izoxlanadi.

Yerlarni qayta tiklash funksiyasi yer resurslaridan bevosita ishlab chiqarish jarayonida foydalanuvchi vazirliklar va davlat qo'mitalarining vazifalariga kiradi. Ushbu funksiya yer resurslarini to'liq qayta tiklashning yakuniy bosqichi va iqtisodiy, ijtimoiy va ekologiya sohaslarida yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish asosi xisoblanadi.

Yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantirish funksiyasi yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etishlari uchun yerdan foydalanish sub'ektlariga iqtisodiy mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatadi.

Yerdan foydashishni iqtisodiy boshqaruvi funksiyasi iqtisodiyot tarmoqlari, faoliyat sohalari, yerdan foydalanish sub'ektlari o'rtasida yer resurslarini oqilona taqsimlash asosida yerdan foydalanish tarkibini optimallashtirish xamda yer resurslaridan oyddalanish samaradorligi darajasi, yerlarni qayta tiklash sikli samaradorligi va ipoteka tizimini takomillashtirishni o'z maqsadi qilib qo'yadi.

Yerdan foydashish samaradorligini baholash funksiyasi tizimli ravishda yechiladigan quyidagi uchta vazifani o'z ichiga oladi: *birinchisi*, yer fondi toifalari, iqtisodiyot tarmoqlari va sohaslar bo'yicha yer resurslarining taqsimlanishini baholash; *ikkinchisi*, yerdan foydalanishdan iqtisodiy va boshqa ko'rinishdagi samara olish nuqtai nazaridan yer resurslaridan bevosita (texnologik) foydalanishni baholash; *uchinchisi*, yer resurslarini qayta tiklash samaradorligini baholash.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Yer resurslarini boshqarish tizimi tarkibi va ularning vazifalari taxlil qilinayotganda uning oddiy tadbirlar majmuyi emas, balki uzviy, yaxlit tizim ekanligi xisobga olinishi kerak.

2. Yer resurslarini boshqarish tizimining samaradorligi na faqat uning funksiyalari samaradorligi oshishi natijasida, balki uning tarkibidagi barcha elementlar to'liq xisobga olingan xolda oshadi. Masalan, yerdan foydalanishni tashkil etish loyixasining samaradorligi, loyiha ishlanmalari ular uchun asos bo'ladigan yer kadastr va boshqa izlanishlar materiallari hamda yerdan foydalanish va muhofaza qilish ustidan davlat nazorati bilan uzviy boglangan xolda amalga oshirilsagina oshadi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6024-son 10.07.2020
2. A.R. Bobojonov., Q.R. Rahmonov., A.J. G'ofirov. Yer kadastr // Darslik. TIMI nashriyoti, 2008. 212 b.

3. А.С. Чертовиский, А.К. Базаров. Система землепользования Узбекистана. Фан. 2007, 212 с.
4. Волков С.Н. Землеустройство // Учебник. Т 2: Внутрихозяйственное землеустройство. М.: Колос, 2001, 648 стр.
5. S. Avezbayev, S.N. Volkov. Yer tuzish iqtisodi // Darslik. TIMI, 2016. 265

Egamova Dilchehra Adizovna
TIQXMMI Buxoro filiali stajyor-o'qituvchisi,
Ibragimova Madinabonu Mirzoaliyevna
TIQXMMI Buxoro filiali 2-bosqich magistranti
(Buxoro, Uzbekistan)

QISHLOQ XO'JALIK YERLARIDA YER MONITORINGINI O'TKAZISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada yer monitoring, qishloq xo'jaligida yer monitoringini o'tkazish tartibi, yer monitoringini yuritishda geoaxbarot tizimlaridan foydalanish masalalari bo'yicha so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Monitoring, yer monitoringi, qishloq xo'jaligi, bazaviy, davriy, geoaxbarot tizimi, yer hisoboti, yer monitoring ma'lumotlari.

O'zbekiston Respublikasining barcha yerlari, ularning huquqiy rejimi, foydalanish maqsadi va xarakteridan qat'iy nazar yer monitoringining ob'ekti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida yer monitoringi 2010 yil 23 dekabrda "O'zbekiston Respublikasida Yer monitoringi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi 496-sonli qarori asosida yuritiladi.

Monitoring yerlardan foydalanish maqsadini hisobga olgan holda olib boriladi va yer fondi toifalarga muvofiq bo'lgan quyidagi kichik tizimlarga bo'linadi:

- qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlar monitoringi;
- aholi punktlari yerlari monitoringi;
- sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlardagi yerlar monitoringi;
- tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, reaksiyon maqsadlardagi yerlar monitoringi;
- tarixiy-madaniy maqsadlardagi yerlar monitoringi;
- o'rmon fondi yerlari monitoringi;
- suv fondi yerlari monitoringi;
- zaxira yerlar monitoringi.

Hududiy qamrab olinishga ko'ra yerlarning respublika, mintaqaviy va mahalliy monitoringi amalga oshiriladi.

Respublika monitoringi O'zbekiston Respublikasining butun hududini qamrab oladi. Mahalliy monitoring alohida yer uchastkalari va manzara - ekologiya komplekslarni qamrab oladi.

Yerlarning holati o'zgarishlarning yo'nalishi va jadalligiga oid bir qancha izchil kuzatishlarni (davriy, mavsumiy, sutkalik) tahlil qilish, olingan ko'rsatkichlarni yerlarning sifat holati normativlari bilan taqqoslash orqali baholanadi. Yer holatini baholash ko'rsatkichlari muayyan davr yoki sana uchun ham absolyut, ham nisbiy ko'rsatkichlarda (o'lchov birligida) ifodalanadi. Yerlar holatini baholash natijalariga ko'ra tezkor ma'lumotlar, axborotlar, prognozlar va tavsiyanomalar tuziladi, ularga o'zgarishlar, ayniqsa salbiy o'zgarishlarning

dinamikasini, ularning yo'nalishini va jadalligini tavsiflovchi mavzuli xaritalar, kartogrammalar, jadvallar va diagrammalar ilova qilinadi.

Yer monitoring O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi tomonidan manfaatdor Vazirliklar, Davlat qo'mitalari va idoralar ishtirokida ishlab chiqarilgan va tasdiqlanadigan yagona uslubda olib boriladi, bu uslub yerlarning holatini tezkor va muntazam kuzatishlarni amalga oshiriluvchi, tadqiqotlar, tekshirishlar o'tkazuvchi yoki xaritalovchi barcha korxonalar va tashkilotlar uchun majburiy xisoblanadi.

Idoraviy mansubligidan va mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar yerlarni mavzuli xaritalovchi va ularning holatini kuzatuvchi korxonalar muassasalar va tashkilotlar yer resurslari bo'yicha tegishli xizmatlarga ularning vakolatlari doirasida yerlarning miqdor va sifatlovchi holati to'g'risidagi ma'lumotlarning yer monitoringi va davlat yer kadastr bo'yicha axborotlar kiritish uchun ko'rsatilgan ishlar bo'yicha materiallarning nusxalarini tekin beriladi.

O'z navbatida yer resurslari bo'yicha xizmatlarni ham yerlarni mavzuli xaritalovchi va ularning xolatini kuzatuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ularning so'roviga binoan zarur materiallarni tekin beradilar.

Yer monitoringi yagona klassifikatorlar, kodlar, metrik birlik tizimi, ma'lumotlarning standart formatlari va me'yoriy - texnik baza, koordinatorlar va balandliklar davlat tizimiga asoslangan turli xil ma'lumotlarning bir - birlariga mosligi prinsipiga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Yer monitoringi o'tkazishda zarur axborotlarni olish uchun quyidagilar qo'llaniladi:

- masofadan turib zondlash (aerokosmik suratga olish va kuzatishlar);
- yerda suratga olish va kuzatish;
- fond materiallari.

Muddatlari va davriyligiga ko'ra yerlarning holatini 3 ta guruh kuzatishlar amalga oshiriladi:

- bazaviy (yer monitoringini yuritishning dastlabki bosqichida kuzatish ob'ektlarining haqiqiy holatini qayd etuvchi boshlang'ich) kuzatishlar;
- davriy (yillik va bir yillik ustidagi davrlar bo'yicha)
- tezkor (joriy o'zgarishlarni qayd qiluvchi), bir yildan kam oraliq davrda muntazam yoki bir yo'la bajariladigan kuzatishlar.

Ekin maydonlari dalalar, uchastkalar, manzara ekologiya komplekslar holatini bevosita kuzatishda olingan bazaviy ma'lumotlar tumanlar, shaharlar qo'rg'onlar, viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va umuman O'zbekiston respublikasi bo'yicha shuningdek alohida tabiiy komplekslar bo'yicha umumlashtiriladi.

Yerlarning bazaviy va davriy monitoringi:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlarida - Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar yer resurslari boshqarmalari;
- Toshkent shahrida - O'zgeodezkadastr bosh boshqarmasining ko'chmas mulk davlat boshqarmasi tomonidan yuritiladi.

Yerlarning monitoringi bazaviy va davriy monitoringi ma'lumotlardan foydalanilgan holda:

- shaharlar va qo'rg'onlarda - "O'zgeodezkadastr" bosh boshqarmasining tuman va shahar ko'chmas mulk davlat kadastr xizmat qiladi;

- Respublikaning qolgan hududlarida Yer resurslari davlat qo'mitasining tuman xizmatlari tomonidan yuritiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar yer resurslari boshqarmalari Toshkent shahar ko'chmas mulk davlat yer kadastr boshqarmasi Davlat tabiatni muxofaza qilish qo'mitasining xududiy organlari bilan birgalikda har yili 1 yanvardan kechiktirmay davlat hokimiyati mahalliy organlariga, O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasiga, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasiga mintaqadagi yerlarning holati to'g'risida axborotlar (hisobotlar) taqdim etadilar, o'ta xavfli va yo'l qo'yilishi cheklangan jarayonlar aniqlangan taqdirda tezkor ma'lumotlar yuboradilar.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va jismoniy shaxslar yer monitoringi ma'lumotlaridan belgilangan tartibda haq to'lagan holda foydalanadilar.

Yer monitoringini yuritish bo'yicha ishlar davlat budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Yer monitoringi bo'yicha davlatlararo va xalqaro dasturlarni mablag' bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan tuzadigan bitimlari va shartnomalarida belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Yer monitoringining ob'ektlar bo'yicha materiallari ijrochilar, bo'lim boshliqlari va rahbarlari (institut, bo'lim, filial ekspeditsiya) imzolagan hisobotlar va xaritagrafik materiallar ko'rinishida beriladi.

Yer monitoringi bo'yicha yillik yozma hisobot va xaritagrafik materiallar ko'rinishidagi yakuniy ma'lumotlar yer tuzish viloyat ishlab chiqarish bo'linmalari ilmiy-texnikaviy kengashlarida muhokama etiladi va institutlar, filiallar, bo'limlar, ekspeditsiyalar rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi. Yillik hisobotlar oxirgi bosqichda viloyat yer resurslari boshqarmalari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Yer monitoringi ma'lumotlari to'rt nusxada (ob'ektlar bo'yicha va yakuniy) tayyorlanadi. Bir nusxasi bo'linmada qoladi, bir nusxa yer resurslari viloyat boshqarmasiga jo'natiladi va ikki nusxa Toshkentga O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasiga yuboriladi.

2020 yil 1 yanvar holatida tuman yer hisobotiga asosan Buxoro tumanida yerdan foydalanuvchilar soni 1428 tani tashkil qiladi. Umumiy maydon 129725 ga, Ekin yerlar jami 19307ga, Ko'p yillik daraxtzorlar 3009 ga, Bo'z yerlar 674ga, Yaylovlar jami 52532 ga, Qishloq xo'jalik yer turlarining jami 75522 ga, Tomorqa yerlari umumiy yer maydoni dalada 5222/1163 ga, Bog'dorchilik va sabzavotchilik uyushmalari yerlari 252ga, o'rmonzorlar 185 ga, Jami qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlar 48581 gani tashkil qiladi.

Tuman qishloq xo'jalik yerlar monitoringini aniq va ishonchli olib boradigan bo'lsak tuman iqtisodiyotiga xam, qishloq xo'jalik sohasida xam yuqori natijalarga erishgan bo'lar edik. Bu bilan geaxborot tizimlarini yaratishni ta'minlashga erishiladi va o'z navbatida geodeziya, kartografiya ishlari uchun ham samarali ma'lumotlar banki yaratiladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-martdagi 258-F-sonli "Qishloq xo'jaligi ekinlarini monitoring qilish, xududni kartografiyalashda texnik va texnologik ishlab chiqishni rivojlantirish va yangilashni amalga oshirish to'g'risida"gi Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5742-son Farmoni.

3. Raxmonov Q.R. Yer monitoringi asoslari O'quv qo'llanma Toshkent-2008
4. Rustamboev M.H. va boshq. Yer huquqi. Darslik – T.: Toshkent davlat yuridik instituti, 2002
5. Safarov E.Y. Geografik Axborot Tizimlari. Toshkent., Universitet, 2010 y
6. www.ygk.uz
7. www.Esri.com
8. www.Landsat.com

SECTION: ARCHITECTURE

УДК 712.3

Kamalova Dilnoza Zaynidinovna
PhD (arch), dotsent,
Shonazarova Sohiba Uktamovna
4 bosqich talabasi
Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti
(Samarqand, Uzbekistan)

O'RTA OSIYONING TARIXIY SHAHARLARI MARKAZLARINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Maqola O'rta Osiyoda shahar tarmog'idagi shaharlarni rivojlantirish, shuningdek, tarixiy shahar markazlarining funktsional xususiyatlari muammolariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Shaharsozlik, mahalla, tarixiy markazlar, kompozitsiya

Камалова Дильноза Зайнидиновна
PhD (arch), dotsent,
Шоназарова Сохиба Уктамовна
студентка 4 курса
Самаркандский государственный архитектурно-строительный институт
(Самарканд, Узбекистан)

ФОРМИРОВАНИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ЦЕНТРОВ ИСТОРИЧЕСКИХ ГОРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ

Аннотация. В статье посвящена изучению развития градостроительства в Средней Азии, а также функциональных особенностей центров исторических городов

Ключевые слова: градостроительство, махалля, исторические центры, композиция

Kamalova D.Z.
PHD (Arch), Associate,
Shonazarova Sahiba Uktamovna
4th year students
Samarkand state of architectural and civil engineering institute
(Samarkand, Uzbekistan)

FORMATION OF FUNCTIONAL FEATURES OF THE CENTERS
OF THE HISTORICAL CITIES OF CENTRAL ASIA

Annotation. *The article is devoted to the study of urban development in Central Asia, as well as the functional features of the centers of historical cities.*

Key words: *town planning, mahalla, historical centers, composition*

Mamlakatimiz o'z mustakilligiga erishgach tariximiz va qadriyatlarimizni tiklashga katta e'tibor berilmoqda. Istiqlol yillarida Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Qarshi va poytaxtimiz Toshkentning yubileylari jahon miqyosida keng nishonlandi. Shaharlarda hoh u juda qadimiy bo'lsin, hoh nisbatan yangi bo'lsin ijtimoiy markazlarning ahamiyati juda kattadir. Odatda shaharlarning yoki boshqa aholi joylarining umumiy (umumshahar yoki umumqishloq) markazi uning geometrik hududida vujudga kelgan. Yirik aholi joylarda umumiy markazdan tashqari shaharning tarkibiy qismlariga tegishli ayrim-ayrim hududlarda maxsus markazlar ham mavjuddir. Umumiy va maxsus markazlar funksional jihatidan savdo, g'oyaviy, ziyorat, ma'rifat va boshqa turlarga ajraladi. Bosh markazlar, ba'zan butun shaharga nisbatan olinganda katta hududni egallaydi. Masalan, Xivaning Ichan qal'asidagi markaz (turar uylardan bo'lak hudud) anchagina joyni ish'ol qilgan. O'xshash vaziyat Qarshida ham paydo bo'lgan shaharda bosh markaz shahriston ("Qal'a")ning salmoqli hududini egallagan edi. Tarixiy shaharlarning tarkibida aksari turli darajaga ega bo'lgan markazlar ajraladi. Funksional jihatdan *umumshahar markazi, daha markazlari* hamda *mahalla markazlari* farqlansa o'rinli bo'ladi. Me'moriy-badiiy nuqtai nazardan ijtimoiy markazlar turli katta-kichik majmualar shaklini oladi.

Umumshahar markaz odatda shaharning o'rtasida, geometrik hududidan o'rin oladi. Yuklangan vazifalari jihatidan u keng qamrovli bo'lib, o'zida ijtimoiy, savdo-sotiqahmda g'oyaviy-mafkuraviy vazifalarni mujassam etadi. Unda savdo-sotiq muhiti - bozor salmoqli o'rinini egallaydi. Bosh bozor aksari Chorsu nomi bilan atalib, unda nafaqat savdo balki hunarmandchilik-ishlab chiqarish ham jam etilgan. Bosh bozordan tashqari, undan chetroqda maxsus mollar bilan savdo qilinadigan ixtisoslashgan bozorlar ham bo'lgan. Masalan: Toshkentda tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Samarqand darvozasi oldida Qovunbozor, O'rda yaqinida Qaymoqbozor kabi maxsus bozorlar bo'lgan [1]. Samarqandda ham bir necha maxobatli, tarixiy umumshahar markazlar shakllangan. Registon maydoni, Bibixonim, Go'ri Amir, Shohizinda majmualari shular jumlasidandir. Samarqandda umumshahar markazi sifatida Chorsuni misol qilishimiz mumkin. Aslida Chorsu forscha to'rt tomonga ochilgan yo'l, ko'cha, ma'nolarini anglatib, O'rta Osiyo o'rta asr shaharlari markazida joylashgan bosh chorrahani bildirgan. Chunonchi bunday nom Toshkent, Andijon, Qo'qon, Namangan, Qarshi, Shahrisabz, Buxoro, G'ijduvon va boshqa shaharlar toponimikasida saqlanib qolgan. Ibn Faqih

ma'lumotlariga qaraganda, mo'g'ullar bosqinidan oldin Samarqan shahri ichki shahar, tashqi shahar va rabod singari uch qismdan tashkil topgan. Tashqi shahar o'sha paytlarda hozirgi afrosiyob qal'asi bilan Ruhobod mavzolari orasidagi masofani egallagan va uning ham to'rtta darvozasi bo'lgan. Demak to'rt darvozadan kelgan ko'chalar markazda uchrashib chorsuni tashkil etgan. Amir Temur davrida Samarqand chorsusida Tuman oqa timi nomli bosh kiyimlar savdo gumbazi bo'lgan. Shu tufayli bu imorat gumbazi Kulohfurushon deb ham nomlangan. XVIII asrda bu gumbaz vayrona holiga tushganligi tufayli Samarqand hokimi Shohmurod ibn Doniyol hozirgi savdo gumbazini qurdiradi. Tarixchi Jumaqul Xumuliy-Urgutiy bu haqda habar berib, chorus asosini ikki sakkiz burchak, uch qavat balandlikda kesishib, olti ko'chaga o'z eshigini ochdi, imorat tomoman pishiq g'ishtdan qurildi,- deb yozadi [2]. Qadimiy Shahrisabzda umumshahar markazi shaharning shimoliy qismidagi Oqsaroy hududi, o'rta qismidagi Chorsu hududi, janubdagi Dor-ut Tilovat va Dor-us Saodat majmualaridan tashkil topgan edi.

Daha markazlari aksari yirik me'moriy majmua sifatida shakllangan. Ular g'oyaviy-mafkuraviy funksiyaga ega bo'lgan. Toshkentdagi Chorsu me'moriy majmuasi umumshahar g'oyaviy-mafkuraviy funksiyani bajargan. Hazrati imom, Shayh Hovandi Toqur, Zangi ota, Zaynuddin buva majmualari mos ravishda Sebzor, g'oyaviy-mafkuraviy funksiyalarini amalga oshirgan. Bular ichida Shayxontohur markazi alohida o'rinni egallagan. U umumiy e'tibori jihatidan Chorsudan keyin ikkinchi markaz hisoblangan edi.

Qarshining bosh markazi o'rtadagi Registon maydoni ("Maydoni surh") hamda janubdagi O'rda majmuasi, ularni tutashtirgan Jilovxona maydoni bilan belgilangan. Registon XIV-XVI asrlarda shakllangan. Uning shakliga shahristonning darvozalari va O'rda (ba'zi tadqiqotchilar taxminlariga ko'ra, Kepakxon saroyi -Nasriddinov Q). joylashuvlari ta'sir ko'rsatgan. Registon maydonining sahni asosan ikki inshoot: Odina jo'mesi hamda ro'parasidagi Abdullaxon madrasasi hajmlari bilan ifoda etilgan edi. Maydoni qiyofasida Chorsu imorati, sardoba va hammom ham katta ahamiyat kasb etgan edi. Keyinchalik Odina jo'mesi va Abdullaxon madrasasi atroflarida bir qancha kichikroq hajmlardagi boshqa madrasalar ham bunyod etilganki, ular ham XIX-XX asr boshlaridagi maydon badiyatini to'ldirib turgan. Maydonga olib boradigan yo'l chetidagi do'konlar majmuaga tugallik baxsh etgan edi. Registon maydonining hajmiy-fazoviy kompozitsiyasida binolarning atroflaridan joy olgan mo'jazroq Madrasa va masjidlar tashkil etgan. Chunoschi, Abdullaxon madrasasining yonlarida Choriboy va Sayidqulboy madrasalari barpo bo'lgan edi. Qarshi shahrining Registoni boshqa shaharlardagi bunday majmualardan farqli o'ziga xosligi, unda xalqaro savdoning to'laroq aks etishidir. Chorsu va sardobaning haybatli hajmlarda, hamda hammomning ularga yaqin qurilishi buni isbot etadi [3]. Mahalla markazlarini "guzar" nomi bilan atash maqsadga muvofiqdir. Guzar so'zi lug'aviy jihatdan o'tish joyi ma'nosini bildiradi. Ayrim kitoblarda guzar so'zi bir necha mahallaning (fazoviy jihatidan uzluksiz bo'lgan) markazi ma'nosini beradi. Mahalla markazlari - guzarlari aksari mahalla masjidi, hovuz, choyxona, bir necha do'kon kabi inshootlardan tarkib topar edi. Keyingi davr tadqiqotlarida, mahalla masjidi ichida ham do'kon kabi qurilmalar bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan. Ba'zi mahallalar markazida mo'jaz madrasa-maqbara kabi binolar ham bo'lgan. Mahalla markazlaridagi masjid, Madrasa, maqbara, do'kon kabi inshootlar turli kombinatsiyalarda o'zaro birikib, o'ziga xos hajmiy-fazoviy birikmalar hosil etgan.

«Chorsu» fors-sug'dcha so'z bo'lib, chor - to'rt, suk - bozor, chor- rahalarda joylashgan usti yopiq bozor imorati ma'nosi beradi. «Chorsu» gumbazlar bilan yopilgan savdo inshooti tarzida adabiyotlardan bizga XI asrdan ma'lum. Sug'd bozorining chorsusi ham XI asrga tegishlidir. Tarixchi at-Tartusiyning ma'lum qilishicha, O'rta Osiyoning ba'zi ilk o'rta asr shaharlarida chorsudan tashqari «tim» deb ataluvchi savdo markazlari ham bo'lgan. Tarixchi al- Muqaddasiy «tim» so'zini hatto ko'tara savdo va xorijiy savdogarlarga mo'ljallangan karvon-saroylarga nisbatan ham ishlatgan. Temur davrida dastlab hozirgi Registon maydonida qator ochiq savdo rastalaridan tashqari bosh kiyimlarini sotishga moijallangan maxsus savdo binosi «Timi kulox furushon» («Bosh kiyim sotuvchilar timi») bunyod etildi. Temur ushbu inshootni xotini Tumon oqo nomidan bino etadi. Bu davrda Samarqand bozorlari shunchalik serob ediki, turli-tuman mollarni issiq iqlim sharoitida sotish uchun savdogarlar va xaridorlarga qulay boigan katta usti yopiq bozor qurishga zaruriyat tugiladi. Shu sababli Temur butun shaharni Registondagi tim orqali kesib otadigan yopiq savdo ko'chasini qurishga farmoyish beradi.

Ispan elchisi Klavixoning xabar berishicha, Temur davrida Samarqandda nafaqat kunduz, balki kechalari ham savdo qiladigan bozorlar mavjud boigan. Shaharda amaldorlar qurdirgan qator karvon-saroylar, kulollar, zargarlar, temirchilar, shishasozlar, qog'ozbozlar uchun ustaxonalar shinam va qulay do'konlar mavjud edi. Asosiy ko'chalar kesishgan joylarda chorrahadagi shahar bozorlaridan tashqari mahallalar markazlarida guzar bozorlari ham ishlab turgan. Demak qadimda O'rta Osiyo shaharlaridagi katta markazlar sifatida Chorsularni misol tariqasida keltirishimiz mumkin bo'larkan. Eng kichik markazlar sifatida esa mahalla markazlarini misol qilsa bo'ladi. Samarqandda shaharsozlik tugunlari ya'ni markazlarining paydo bo'lishi V asrda Afrosiyobda ilk qadimiy shahar markazining shakillanishi bilan harakterlanadi. Davrlar o'tib X asrda shaharning yangi markaz yo'nalishi bo'yicha rivojlanishini rabod hududining kengayishi bilan tasniflash mumkin. Keyingi davrni XV asr umumshahar markazining shakllanishi davom etishi orqali ko'rish mumkin. Ushbu davrda umumshahar markazlaridan tashqari lokal markazlar, asosiy savdo ko'chalari, bozor (kompozitsion karkas) yo'nalishi bo'yicha rivojlanishi hamda 130-220 metr radiusda mahalla markazlarining tashkil etilish bilan namoyon bo'ladi. Bu davr Amir Temur va temuriylar shaharsozligiga to'g'ri kelib eng yuksak darajadagi me'morchilik namunalari uchratish mumkin. Jumladan umumshahar markazi hisoblangan Tuman Oqa timi buning yaqqol misoli. Shu davr holatini X. Po'iatov quyidagicha ta'riflaydi. Samarqand shaharining tarxida, asosan o'rta asrlar davridagi holat saqlanib qolgan. Shaharning badiiyligi o'ziga xos asosga ega edi. Ommaviy, sodda qurilmalar ichidan onda-sonda ulug'vor ko'k (lojuvard) Temur va temuriylar davriga oid bino qoldiqlari yuksalib turgan. Shaharning qo'rg'on devor ichidagi maydoni doiraga yaqin bo'lgan. Uning geometrik markazi tarxda yaqqol ko'zga tashlanadi. U Chorsu binosi bilan belgilangan. Bosh ko'chalar Chorsu binosidan radial yo'nalishda tarqaladi. Shaharning ma'muriy markazi bo'lmish qal'a tomon ketgan ko'cha muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Uning mavqeyini bu ko'chadagi Registon maydonining joylashuvi ham ko'rsatib turadi. Shimolda Bibixonim me'moriy guruhiga, janubda Go'ri Amirga olib boradigan ko'chalarning ham ahamiyati baland bo'lgan. Keyingi yo'nalish Chorsudan boshlanib to Ark qal'agacha bo'lgan masofada tugallanib, xuddi shu joydan boshlab XIX asrda "Yangi shahar" markazining paydo bo'lishi va umumshahar ikki strukturali tizimda shahar kompozitsiyasining hajmiy fazoviy rivojlanishini boshlab berdi. O'qday to'g'ri radial va aylana ko'chalar qurilishi bilan ikkinchi umumshahar markazini barpo etdilar. Shu

joyning o'zida boshqaruv binolarini qurishdi. Hozirda Ark qal'a joyida viloyat hokimligi tasarrufidagi va boshqa ko'plab tarixiy shahar panoramasiga to'g'ri kelmaydigan shaharsozlik ob'yektlarini uchratishimiz mumkin.

Umumshahr markazi sifatida bugungi Samarqandning viloyat hokimligi binolari joylashgan hududni eng katta shaharsozlik tuguni qilib misol keltirish mumkin. Chunki Temuriylar davri Samarqandning eski shahri hozirda keyingi, Samarqandning yangi shahri hududidan kichikroq hududda qolib ketdi. Samarqandning yangi shahar hududi toboro kengayib chekka hududlari ham shahar tarkibiga qo'shilib bormoqda [4]. Bunga sabab ko'plab zamonaviy turarjoy, ishlab chiqarish korxonalari, jamoat markazlarining yangicha ko'rinish kasb etayotganida. Agar X. Po'latov ma'lumotlaridan xulosa qilsak Samarqandda umumshahr markazlari sifatida savdo, ma'muriy boshqaruv binolaridan tashqari Registon maydoni, Bibixonim, Go'ri Amir, Shohizinda majmualarini ham kiritish mumkin. Avval ta'kidlangani kabi shaharsozlik tugunlari sifatida markazlar tuishuniladigan bo'lsa Samarqand shaharsozligi tugunlariga umumshahr markazlar bo'lib qadimgi Afrosiyob, Registon, Bibixonim, Go'ri Amir, Shohizinda majmualari, Chorsu, Ark qal'a, hozirgi davrda viloyat hokimligi binolari kiradi. Daha markazlariga savdo yo'llari, majmualar va komplekslar, jumladan: Toshkent ko'chasida joylashgan savdo hunarmandchilik do'konlari, siyob dehqon bozori, dahalarda joylashgan kichik bozorhalar, bundan tashqari Al Motrudiy, Hazrati Xizir masjidi Abdu Darun va h.k. Shaharsozlik tugunlarining eng kichik bo'g'ini sifatida guzarlar markazlarini kiritilsa o'rinli bo'lar edi. Ushbu markalarga misol tariqasida Samarqandning barcha mahalla va guzar markazlarini keltirish mumkin. Chunki ularning asosiy funksiyalari maishiy, mafkuraviy, savdo sotiq bo'lib, joylashuvida va xizmat ko'rsatish tizimida ko'proq geometrik markazga intiluvchanligi harakterlansa xizmat ko'rsatish hududi sifatida kichik shaharsozlik hududlari-mahallalar, mahalla-mavzelar, shahar tashqarisidagi qishloqlarni qamrovini hisobga olgan holda eng kichik bo'g'in deyish o'rinlidir. Samarqand tarxiga nazar solsak uning hududida bunday markazlarni ya'ni shahrsozlik tugunlarini yaqqol ko'zga tashlanganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan: fazoviy qaralganda Go'ri Amir atrofi, Registon atrofi, Bibixonim atroflaridagi hududlar fikrimizning yorqin dalili bo'lib, shaharsozlikning naqadar yetuk namunalari ekanligi his etish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Лавров В.А. «Градостроительная культура Средней Азии» –М.: Гос. из-во Архитектуры и градостроительства, 1980.
2. Ахмедов М.К. Архитектурные ансамбли и вопросы организации городского пространства в средневековом зодчестве Средней Азии. Культура Среднего Востока. Градостроительство и архитектура. Т. Фан. 2001.
3. Гутнов А.Э. Эволюция градостроительства // М.: Стройиздае. - 2004.
4. Юсупова М.А. Полвека трансформации архитектуры Узбекистана (конец XIX-начало XX вв.) - Т.,2005.

SECTION: ECOLOGY

O'rinboyeva Maftuna Sodiqovna
Farg'ona politexnika instituti
(Farg'ona, O'zbekiston)

JAMIYATDA EKOLOGIK NORMALAR USTIVORLIGINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik barqaror taraqqiyotni ta'minlashda axloqning funksiyalari ilmiy asosda tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: Axloqiy normalar, global ekologik barqarorlik, milliy va umuminsoniy ahloqiy normalar, qadriyat, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya.

Insoniyat tarixida ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarishda axloqning ustuvorligini ta'minlash doimo muhim nazariy va amaliy vazifa bo'lib kelgan. Zero, "tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarini boshqarishda axloqning funksional samaradorligi: birinchidan, kundalik hayotda ekologik milliy an'analardan, tajribalardan foydalanish darajasiga; ikkinchidan, umuminsoniy ekologik qadriyatlarni tanlash va amaliyotda ijodiy qo'llashga; uchinchidan, boshqarish jarayonida usullar va vositalar kompleksligini ta'minlashga; to'rtinchidan, boshqarishning ma'naviy-axloqiy mexanizmlari tarkibida fuqarolik jamiyati institutlari yordamida xalqning ekologik ongi va madaniyatini rivojlantirishga bog'liq bo'ladi. Ekologik muammolar globallashuvi sharoitida "tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarini axloqiy normalarga ko'ra boshqarish masalasi muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega mavzu bo'lib qolmoqda. Zero, axloqiy normalarning jamiyat hayotidagi roli tobora oshib bormoqda. Axloqning eng muhim funksiyalari quyidagilar: 1) kishilar orasidagi turli munosabatlarni muvofiqlashtirish, 2) kishilar faoliyatining insonparvar qadriyatlari va mo'ljallarini belgilab berish, 3) shaxsni ijtimoiylashtirish. Ekologik faoliyatda ijtimoiy ong shakllari va axloqiy normalarning funksional uyg'unligi "tabiat-jamiyat-inson" munosabatlari barqarorligini ta'minlashning zaruriy shartidir. Chunki jamiyatda ekologik normalar ustuvorligini ta'minlash huquqiy qonunlarni bajarish mas'uliyatini ham, siyosiy talablar majburligini ham istisno qilmaydi, balki taqozo etadi. Ekologik munosabatlarda axloq ustuvorligini taminlash muammosini hal etish zaruriyati, ma'lum manoda insonning faoliyat erkinligini chegaralash masalalari bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham axloqning bevosita regulyativ funksiyasi doirasiga kiradi. Bundan tashqari, ekologik axloqning funksional faoliyat doirasini belgilaydigan huquqiy-qonuniy aktlar mavjud shart-sharoitlardan kelib chiquvchi ma'naviy-axloqiy normalar bilan reglamentlashtirilmasa, "tabiat-jamiyat" munosabatlarida nomutanosiblik vujudga keladi. Insonning "tabiat-jamiyat" tizimida erkinligi nisbiy va shartli bo'lib, ularning munosabatida oqilona muvozanatni ta'minlashda axloqiy normalarga asoslanishini taqozo qiladi. Chunki ijtimoiy ong tizimidagi siyosiy, huquqiy va boshqa ong shakllarning funksional jihatdan tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilishi-ekologik axloqiy

ma'suliyatni shakllantirishdan iborat faoliyatdir. Shuning uchun ham, axloq barcha ijtimoiy ong shakllariga nisbatan ustuvor mavqega ega bo'ladi va bu ularning funksiyasini muvofiqlashtiruvchi faoliyatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim bosqichlaridan boshlab bilimlarni chuqur va mustahkam egallash, universal o'quv harakatlarini o'zlashtirish, mustaqil fikrlashni shakllantirishning birlamchi omili sifatida o'quvchilarda bilish faolligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimlarida xalqaro baholash dasturining (PISA, TIMSS) egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llashga oid natijalariga asoslanib, ta'limni

korreksiyalash va modernizatsiyalash, o'quv materiallarini takomillashtirishda didaktik ta'minotni yaxshilashga katta e'tibor berilmoqda.

Didaktikaning asosiy vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat. Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o'z aksini topmogi lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z ta'lim oluvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. O'quv faoliyatida ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u ta'lim oluvchilarda dunyoqarash va axloq me'yorlarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarini shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi.

O'quv mashg'ulotlarida o'quvchilarga beriladigan, namoyish qilinadigan, bajarib ko'rsatiladigan va shunga o'xshash barcha turdagi o'quv axborotlarini biz didaktik materiallar deymiz. Ushbu materiallarni qo'llash va tayyorlashda didaktik vositalardan foydalanamiz. Masalan, turli xildagi bonnerlar, fotosuratlar, audio, televizion hamda videomateriallar, axborot texnologiyalari asosidagi materiallar va h.k.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limning sifati, samaradorligi butkul o'qituvchi zimmasiga, uning izlanuvchanligi, fidoiyligi, o'z mas'uliyatini qay darajada his etishiga bog'liq bo'lib qoldi. Fikrimizcha, darslarni qanday usul bilan olib borish masalasini o'qituvchining o'zi hal qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'quvchilarga puxta bilim berish va darsning samaradorligini oshirish uchun unga ijodiy hamda yangicha yondoshib zamonaviy darslar tashkil qilmog'i kerak.

Har bir sohaning takomillashishi, rivojlanishi uchun xilma-xil metodlar qo'llanilayotganidek, ta'lim-tarbiya sohasida ham turli xil metodlardan foydalanilmoqda. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda ona tili va matematika darslarini o'qitishda didaktik o'yinli texnologiyalarning metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki metodlarning xilma-xilligi o'quvchida fanni bilishga qiziqishini orttiradi.

Ayniqsa, boshlang'ich sinf darsliklari o'quv materiallarini loyihalashda didaktik materiallardan foydalanishni rejalashtirishda quyidagi talablarga rioya etish zarur:

1) tanlangan didaktik materiallar o'rganilayotgan o'quv materiali mazmunini to'laqonli ochib berish bilan birga o'quvchilarning yuqori darajada faollik va mustaqillik ko'rsatishlari uchun zarur sharoitni yarata olish;

2) didaktik vositalardan o'rinli va ma'lum me'yorda foydalanish;

3) tizimli ravishda bir necha darsliklarda muayyan mavzuga bag'ishlangan turli didaktik materiallardan foydalanish;

4) o'quv materiallarining didaktik vositalar yordamida ifodalinishi bilan bog'liq holda o'quv jarayonining didaktik vositalar tizimini ishlab chiqish.

Shuni ta'kidlash lozimki, og'zaki nutq bilan didaktik materiallarning uyg'unligi asosida o'quv faoliyatini tashkil etish ta'lim jarayonida ko'pgina murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi.

Didaktik o'yin - ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan maqsad qo'yiladi, biror harakatni, biror hisoblash usulini, ya'ni ma'lum didaktik topshiriqni mustahkamlash vazifa qilib olinadi.

Didaktik o'yinlarda asosiy fikrlash jarayonlari - tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish va hokazolar takomillashadi. O'yin bolaning ijobiy ish faoliyatini kuchaytiradi, ixtiyoriy diqqatini, xotirasini takomillashtiradi. O'yinda o'quvchilar o'zlari sezmaganda juda ko'p harakatlarni, mashqlarni bajaradilar, turli masalalarni yechadilar.

Didaktik o'yinlar, butun sinf ishtirok etganda bolalar o'rtasida o'zaro hamkor bo'lib ishlash, o'z-o'zini boshqara bilish, diqqatni bir joyga yig'ish, saranjom-sarishta bo'lish, tez tushunish, savollarga tez javob berish va boshqa tarbiyaviy xislatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, ular o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jonu dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi.

Ayniqsa, didaktik o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta o'rin tutadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy, izchil rioya qilishni talab etadi. Shuningdek, didaktik o'yinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". -T. "O'zbekiston." 1997-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1997- yil 29-avgustda qabul qilingan). T. "O'zbekiston" 1997-yil.
3. Azizxo'jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: «O'qituvchi», 2003. 23 – 48- bet.
4. Bo'ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Uzlüksiz ta'lim. 2004. 3-son. 34-38- betlar.
5. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. - T.: «O'qituvchi». 2011. -112 b.

Rahimova Zulfiya Rashidovna
Urganch shahar 9-son umumta'lim maktabi
texnologiya fani o'qituvchisi
(Urganch, O'zbekiston)

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TEXNOLOGIYA FANINING TA'LIMIIY VA TARBIVAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda texnologiya fanining ta'limiy va tarbiyaviy jihatlarini haqida so'z boradi. Unda texnologiya ta'limi mazmuni hamda shu mazmundan kelib chiqadigan vazifalar ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, texnologiya fani, mehnat, mehnatsevarlik, kasb-hunar, axloqiy qiyofa, mehnatni qadrlash.

Аннотация. В данной статье рассматриваются образовательные и педагогические аспекты технологий в начальном образовании. В нем излагается содержание технологического образования и задачи, вытекающие из этого содержания.

Ключевые слова: начальное образование, технология, труд, трудолюбие, профессия, нравственность, оценка труда.

Annotation. This article discusses the educational and pedagogical aspects of technology in primary education. It outlines the content of technology education and the tasks that arise from that content.

Keywords: primary education, technology, labor, diligence, profession, ethics, appreciation of work.

Mustaqil vatanimizning yanada gullab-yashnashi kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodning har jihatdan yetuk, barkamol bo'lib tarbiyalanishiga bog'liq ekanligi shubhasizdir. Shu bois hozirgi kunda ta'lim sohasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida shu narsa turibdi. Ma'lumki, ta'lim-tarbiyaning asosiy bo'g'ini boshlang'ich ta'limdan hisoblanadi. Ta'lim sohasida sohasidagi o'zgarishlar umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari oldiga ham ulkan talablar qo'yimoqda. Bu talablar tabiat va jamiyat rivojlanishini chuqur anglash maqsadida ta'lim mazmunini fan va texnikaning eng yaxshi yutuqlar bilan boyitishga, ta'lim-tarbiya jarayonida texnologik ta'limning rolini oshirish va bolalarni yoshligidanoq kasb-hunarga ongli yo'naltirishga qaratilgandir. Bu o'z navbatida texnologiya ta'limi oldiga murakkab va mas'uliyatli vazifalar qo'yadi.

Boshlang'ich sinflardagi mehnat ta'lim-tarbiyasi bolalarning bilimi, ishlab chiqarish faoliyati, o'z-o'ziga xizmat qilishi, o'zaro yordam ko'rsatishi, estetik va jismoniy rivojlanish jarayonidagi mehnat kuchi harakatlarini qamrab oladi.

Texnologiya ta'limi o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohada ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikmalarini egallashlariga, ongli ravishda kasb tanlashga hamda

jamiyat va shaxs farovonligini beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv faoliyatidir.

Texnologiya ta'limi mazmuni shu vazifalarga to'la bog'liqdir, ya'ni shu vazifalarga ko'ra belgilanadi. Masalan: ta'limni unumli mehnat bilan birga qo'shishni ta'minlash zarurligi boshlang'ich sinfdagi o'qitish mazmuniga, jumladan, mehnat ta'limi mazmuniga qator talab qo'yadi. Bular quyidagilardir:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatlari imkoniyatiga qarab unumli mehnatni o'z ichiga olishi kerak.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining unumli mehnati ularning o'quv faoliyatlariga tartiban qo'shilib ketishi kerak.

3. Unumli mehnat mazmunida bolalarning yosh imkoniyatlari, mehnat ta'limi vazifalari, ishlab chiqarish muhitining xarakteri hisobga olinishi kerak.

4. Maktab boshlang'ich sinflarga ta'limning ishlab chiqarish malakasini berish bilan tugallanishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning amaliy faoliyatlariga alohida e'tibor beriladi, bunga o'quv vaqtining 80-85 % ajratiladi. Mehnat topshiriqlarini bajarishda o'quvchilar ko'rsatmali qo'llanmalar, materiallar, o'yinchoqlar, tabiiy materiallardan buyumlar tikadilar va yasaydilar.

1-4- sinflarda ustaxona amaliy mashg'ulotlari bilan texnologiya darslarining bog'lanishi va xarakteriga ko'ra bir tomonlamadir, ya'ni, katta sinflardagi texnologiya ta'limi mazmunini hisobga olgan holda tuzilishi kerak.

Texnologiya ta'limi bo'yicha davlat ta'limiga yo'naltirishning tayanch mazmuni hamda maktabni bitirgan o'quvchilarning mehnat ta'limi fanidan tayyorgarlik darajasining me'yorlari ifodalangani.

Mehnat ta'limining maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilariga faqat bilim ko'nikma va malakalar berishgina emas, balki ularda mehnatga, jamoa va mulkka, jamoa va uning alohida a'zolariga ongli munosabatini, shaxsiy va jamoa foydasi uchun ishlashga tayyorgarlikni tarbiyalashdan iboratdir.

Mehnatga ongli munosabat – har bir shaxsning axloqiy qiyofasining asosiy xususiyatidir. Har bir o'quvchi mehnat topshirig'ini bajarish jarayonida ba'zi ishlarni boshqalar bilan birgalikda, bir-birlariga yordam berib, maslahatlashib bajarishga to'g'ri keladi. Bunday paytlarda ularda o'zgalarga yordam berish hissini tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi.

Boshlang'ich sinf texnologik ta'limida o'qitishning har xil metodlaridan foydalaniladi. Ta'lim metodlarini tanlash, avvalo, o'quv materiali va o'quv vazifasining xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Texnologiya ta'limiga doir o'quv vazifalari maktabdagi boshqa fanlarning o'quv vazifalari singari o'quvchilarga yangi bilimlar berish, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish, bilimlarni amalda qo'llash va hokazolar.

Boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi mashg'ulotlarida o'quvchilarni turli materiallardan o'yinchoqlar yasab tikish, to'qish usullari bilan tanishtirib borish, birinchidan, ularni badiiy estetik ijodkorlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi, ikkinchidan qiz bolalarni tikish, to'qish, bichishga qiziqtirib boriladi. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda badiiy mehnat va tasviriy san'atning ko'nikma turlaridan keng foydalanish mumkin. O'quvchilar xalqimizning

riyovatlari, ertak-dostonlari, latifalari, maqol-topishmoqlarini o'rganish orqali tasviriy san'atning naqqoshlik, ganjkorlik, rang-tasvir, haykaltaroshlik va boshqa sohalar bilan ham tanishib boradilar.

Respublikamiz o'quvchi yoshlari milliy o'zlikni anglash, o'zbek xalqining tarixiy qadriyatlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash texnologik ta'lim tizimining asosiy g'oyalari bilan biri hisoblanadiki, uni amalga oshirishda milliylik, tashabbuskorlik, zamonaviylik, tarixiylik kabi tamoyillarga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning mazkur tushuncha va xislatlarini yanada boyitish uchun tasviriy san'at va badiiy mehnatdan dars va darsdan tashqari ishlar mazmunini takomillashtirish va undagi vatanparvarlik tarbiyasi masalalarini maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi kunda globallashtirish davrida, turmushda uchrab turadigan ayrim qiyinchiliklar yoshlarni bilim olishga, hunar o'rganishga bo'lgan munosabatlarini susayishiga, o'tkinchi narsalar bilan chalg'ib qolishlariga sabab bo'lmoqda. Yoshlarni bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishni ta'minlash, undan to'g'ri foydalanish yoshlarni yomon oqimlar tas'iriga tushib qolmasliklarining oldini oladi. Bu borada yoshlarni san'atga, hunar o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda xalq ustalarining badiiy ijodi, estetik qarashlari, inson didi va falsafasi bilan tanishtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o'rta ta'limining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi umumta'lim maktablari 1-4 –sinf texnologiya fanining mazmun, maqsadi, vazifalari, tamoyillari va boshqa mezonlarini belgilaydi. O'rta maktabda o'qitiladigan texnologiya fanining maqsadi o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, kasblar bilan dastlabki tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, mehnatni qadrlash, mehnatga qiziqish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarlikni 5-sinf uchun uzviy bog'lanish zaminini yaratishdan iborat bo'ladi. U uchta maqsadini: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadni o'z ichiga oladi va ular quyidagicha ifodalangan:

- ta'limiy maqsad - o'quvchilarni barkamol shaxs bo'lib shakllanishlari uchun ularga mehnat jarayonlari, kasblar asoslarini (texnologiyasini) o'rgatish, ularni kasb tanlash bilan uyg'unlashtirish orqali ularning kasbga tayyorgarligiga zamin yaratishdan iborat;

- tarbiyaviy maqsad - o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini egallashlari jarayonida mehnat va kasbga munosabatlarida yuqori axloqiy sifatlarni, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va tadbirkorlikni shakllantirishdan iborat;

- rivojlantiruvchi maqsad – texnologiya ta'limi mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy, badiiy - estetik tarbiya va ta'lim berish orqali ularni barkamol shaxslar bo'lib yetishishlariga yordam berishdan iborat.

Boshlang'ich sinfdagi barcha fanlarni o'qitish o'quvchilarni mehnat qilish va kasb tanlash bilan uzviy bog'lab tayyorlashdan iborat. Boshlang'ich sinfdagi ta'lim o'quvchilarning ijtimoiy dunyoqarashlarini kengaytirgan holda olib boriladi. Ular kasb –hunarni ongli ravishda tanlashga yo'naltiriladi.

Bunda o'quvchilarning tanlagan kasblariga nisbatan qiziqishlari, shu kasblar ularning munosabatlariga muvofiq va qobiliyatlari turlariga mos bo'lishini, kasb tanlashning ongli, mustaqil ravishda amalga oshirishini, o'quvchilarning shaxsiy intilishlarini, imkoniyatlarini jamiyat ehtiyojlari bilan mos kelishini ta'minlashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumiy oʻrta taʼlimning Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. - Toshkent, 2017.
2. Sanaqulov X. va b. Mehnat va uni oʻqitish metodikasi.- Toshkent, 2015.
3. Mavlanova R. va b. Mehnat taʼlimi metodikasi.- Toshkent, 1994.

Rasulova Shoira Azizovna
Farg'ona politehnika instituti
(Farg'ona, O'zbekiston)

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ MA'NAViy TA'LIM JARAYONIGA TAYYORLASHNING NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI

Jamiyat taraqqiyotining barcha sohalari singari ta'lim jarayonlarida ham islohot va tub o'zgarishlar shiddat bilan kechayotgan hozirgi davr o'qituvchisini bundan o'n besh yigirma yil ilgari bilan taqqoslab bo'lmaydi. Gap shundaki, bugungi kunda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning tezkorligi o'qituvchilarni ham o'z ustida tinmay ishlashga va zamondan orqada qolib ketmaslikka undamoqda. Buning sabab va omillari aslida bir qancha. Aytaylik, shulardan biri keyingi o'n yilliklar mobaynida axborot almashinuv vositalarining o'ta mukammal va takomillashgan avlodi vakillarining turmushimizga jadal sur'atlar bilan kirib kelayotganligi, aytish mumkinki, bizning o'zimizni ham o'zgartirib yuboryapti. Ana shunday sharoitda o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy ta'lim jarayoniga tayyorlash murakkab vazifalardan biridir. Qolaversa, bu to'g'rida Respublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisi va mamlakatimiz xalqiga Murojaatnomasida ham ta'kidlanganidek, "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi". Shuning uchun "...jamiyatda o'qituvchi kasbi eng nufuzli va obro'li kasb bo'lishi lozim" ekanligi alohida uqtirildi.

Aslida, o'qituvchilik eng qadimiy kasblardan hisoblanadi. O'qituvchilik kasbining, u bilan birga pedagogik axloqning vujudga kelishi ham kishilik jamiyati tarixida tarbiyaning paydo bo'lishi, ya'ni insonlar to'plagan yurish-turish, hatti-harakatlar, mehnat sohasidagi dastlabki tajribalarni, urf-odatlarini, aqliy, axloqiy, ilohiy bilimlarni yoshlarga o'rgatish; yozuv ixtiro qilingach, o'qish, yozishni o'rgatish uchun tashkil etilgan dastlabki maktablarning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq.

Mashhur chex pedagogi Yan Amos Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida ko'rsatishicha, qadim zamonlarda ota-onalar, odatda, o'z bolalarini oilada o'zlari tarbiyalaganlar. Biroq bolaga ta'lim, tarbiya berish ba'zi ota-onaning qo'lidan kelsa, bir xilining qo'lidan kelmaydi; bola tarbiyasi uchun ba'zilarning vaqti bo'lsa, ba'zilarning vaqti bo'lmaydi. Shu sababdan, ko'p oilalar o'z bolalarini bilimli, og'ir tabiatli maxsus kishilarga berib o'qitganlar. Yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi bunday kishilarni pedagog, professor deb, bolalarni to'plab o'qitiladigan joyni – maktab, gimnaziya, akademiya, universitet deb ataganlar. Uning fikricha, eng qadimgi maktablar Sharq mamlakatlarida, jumladan, Xoldey, Vavilon, Misr shaharlarida ochilgan. Maktab ochishni misrliklardan greklar, greklardan rimliklar o'rganib olganlar.

Qadimgi Turon zaminida dunyoviy ilmlardan astronomiya, geometriya, arifmetika, tibbiyot taraqqiy etgan. Saroylar, ibodatxonalar huzurida ochilgan maktablarda yoshlarga diniy va dunyoviy ilmlar o'rgatilgan. Mirzalar, qozilar, hakamlar kabi davlat xizmatchilari tayyorlaydigan maktablar ham bo'lgan. SHarq mamlakatlaridagi maktablarda xat-savod o'rgatish murakkab, og'ir ish hisoblangan. Ilm olish – nina bilan quduq qazish, deb bejiz aytilmagan Sharqda.

O'qituvchi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarini o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi, mafkurasi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash

va his etish, turmushda sinab ko'rish natijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlar, qoidalar, normalar o'qituvchining o'z axloqiy fazilatiga, e'tiqodiga aylanadi. Bular muallimning dunyoqarashi, fikr va mulohazalari bilan qo'shilib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning o'rni va rolini belgilaydi.

Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, baynalmilalchilik, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy ta'lim jarayoniga tayyorlashning muhim jihatlardir. Bolalarga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchi, o'qituvchilik sha'ni, qadr-qimmat, o'qituvchilik mas'uliyati, o'qituvchilik vijdoni, talabchan, va adolatli bo'lish, o'qituvchining ma'naviy qiyofasi, halolligi, pokligi, rostgo'yligi kabilar o'qituvchi egallashi shart bo'lgan muhim fazilatlar hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy burchni yuksak darajada anglagan holda o'qituvchi har bir ishda, har bir masalada o'z burchiga sodiq bo'lishi zarur. Muallimning mafkurasi fuqarolik ruhi bilan sug'orilgan bo'lsa, ijtimoiy burchni vijdonan his qilishga, intizomlilik, o'z hatti-harakatlarini nazorat qila bilish, kamtarlik, insonparvarlik, o'z qadr-qimmatini to'g'ri baholay olishga imkon beradi.

O'qituvchi uchun xos bo'lgan muhim fazilatlardan biri mas'uliyatdir. O'qituvchi zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash mas'uliyati yuklanadi. Muallim o'quvchilarga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi darkor. SHu bilan birga u boladagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni payqab, unda mavjud bo'lgan ijobiy axloqiy fazilatlarni avaylab o'stirishi lozim.

Muallim sinfda jamiyatning, xalqning, davlatning vakili sifatida o'quvchilar jamoasi bilan yolg'iz o'zi ish olib boradi. Bunday sharoitda o'qituvchining mas'uliyati uning xulqini tarbiyaga solib turadigan, boshqaradigan kuch, o'quvchilarga ta'sir o'tkazish darajasining asosiy mezonini hisoblanadi. Jamiyatning kelajagi, ota-onaning umidi, nuri diydasi bo'lgan farzandining taqdiri, kelajagi uning qo'lga ishonib topshirilgan. Muallim o'quvchilarning bilimiga baho qo'yadi, baho esa jamiyatning, kattalarning, ota-onaning bolaga munosabatini belgilovchi mezon, omillardan biridir. Yaxshilik, adolat, sha'n, qadr-qimmat, insoniylik kabilarning mavjudligiga bolada ishonchni vujudga keltirish ham o'qituvchining mas'uliyatiga bog'liq.

O'qituvchilik qilayotgan yoki muallimlik kasbini tanlagan kishilar o'z zimmlariga qanchalik yuksak, sharafli mas'uliyat olayotganliklarini tasavvur etishlari lozim. Oliy yoki o'rta maxsus pedagogika o'quv yurtini bitirib, muallimlik faoliyatini boshlagan kishi barcha o'quvchilarga o'zini yaqin tutishi, odobi, odilligi bilan bolalarga ijobiy-axloqiy namuna ko'rsatishi zarurligini yoddan chiqarmasligi kerak.

Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtnasidagi muomalamunosabatlar katga o'rin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat asrlar davomida to'plagan bilimlarni, axloqiy tajribani egallab oladi. Muallim pedagogik jarayonda asosiy figura, yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. SHuning uchun ham o'qituvchiga, uning axloqiy sifatlariga, xulqiga o'quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo'yiladi.

Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar – yosh bolalar bilan muloqotda bo'ladi. Bolalar ta'lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy

va milliy axloq normalarini (mezonlarini) o'zlashtiradi. O'quvchi muomala odobini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladi. Sevimli muallim bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qolishi ham mumkin.

Afsuski, hamma muallimlar haqida ham shunday deb bo'lmaydi. O'zining dag'al muomalasi bilan bolaning ko'nglini o'qishdan sovitib, dilini o'rsinsiz ranjitadiganlar, xushmuomala o'qituvchilar bilan bir qatorda bolalarga huda-behudaga do'q urib, baqirib muomala qiladigan muallimlar ham uchraydi. Bunday muomala jamiyatda qabul qilingan umuminsoniy va ma'naviy axloqiy normalarga to'g'ri kelmaydi. Bunday o'qituvchilar bolalar orasida obro' orttira olmaydilar.

Bunday holatlar ko'pincha tarbiyasi qiyin bola bilan muomala-munosabatlar jarayonida sodir bo'ladi. SHuni ham unutmash lozimki, bunday bola odatda, nosog'lom oiladan chiqadi. Bola oiladagi yomon muhitning qurboni bo'lishi ham mumkin. Tajribali pedagoglar tarbiyasi qiyin bola bilan ishlash, muomala qilish murakkabligini, shu bilan birga ular insoniy mehrga zor, xushmuomalaga, e'tiborga muhtoj ekanligini, bundaylarga nisbatan bardoshli, sabr-toqatli, kechirimli bo'lish uchun intiladilar.

Muallimning biror tasodifiy hatti-harakati natijasida o'quvchilarda u hakda sodir bo'lgan fikr ham ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir etishi, muallimning ishini murakkablashtirishi mumkin. Odatda, bunday ziddiyatlar uzoq davom etadi va o'qituvchi foydasiga «hal» etiladi. Muallimning obro'sini saqlayman deb, kattalar ba'zan bolaning qadr-qimmatini yerga uradilar, o'quvchidan kechirim so'rashni talab etadilar, vaholanki bu nizoga o'qituvchining noto'g'ri hatti-harakati sabab bo'lgan. Muallimlarning bu ishi axloqiy tarbiya talablariga to'g'ri kelmaydi!

O'qituvchilik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy xarakterga ega. Pedagogik faoliyatning bunday xususiyati barcha fan o'qituvchilariga, tarbiyachilar, sinf va maktab rahbarlariga birdek taalluqlidir Bu ish o'z navbatida muallim va o'quvchilardan axloq nazariyasi, axloqiy tasavvur va tushunchalar, o'qituvchi odobiga doir bilimlarini muntazam ravishda oshirib borishni; muhokama, muloxaza qilib, uning mohiyatini tushunish, mag'zini chaqishni talab etadi. Murakkab axloqiy hodisalarning mohiyatini o'quvchilarga tushuntirish mas'uliyatli ish bo'lib, buning uchun muallim o'quvchilarning yoshi, saviyasiga mos, ular tushunadigan misollarni izlab topishi, tanlab olishi kerak.

Pedagogik faoliyat o'qituvchidan axloqiy ma'rifatli, yaxshi xulq egasi bo'lishni; axloqiy tajribaga ega bo'lishni, o'z-o'zini muntazam ravishda axloqiy jihatdan tarbiyalab borishni talab etadi, shu bilan birga muallim o'quvchilarga muntazam ravishda axloqdan saboq berib, ularni axloqiy bilimli qilishi; bolalarga yaxshi xulqiy odatlarni amalda bajartirib, mashq qildirib, axloqiy tajriba orttirishlariga ko'maklashishi; o'quvchilarni ham o'z-o'zini tarbiyalab borishlariga erishishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'z.Res. Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi.
2. Xarakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. Mualliflar jamoasi. T.: G'. Gulom nashriyoti. 2017 yil
3. Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch". T.: 2009 yil

Raximova Gularo Ibragimovna
o'qituvchi
UrDU
(Urganch, O'zbekiston)

MATEMATIKA DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda matematika darslarida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatishning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: gomogenlar, yarim gomogenlar, gegeronlar, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, PISA, "merit dasturi", stereotip, TALIS, PIRLS, ETS, STEAM, yondashuvlar, qobiliyat, layoqat, tadqiqotchilik, tahlil, kreativ topshiriqlar.

Аннотация. В этой статье подчеркивается важность обучения студентов творческому мышлению на уроках математики для повышения качества образования.

Ключевые слова: гомогены, пол гомогены, гегероны, творческое мышление, критическое мышление, PISA, «программа merit», стереотип, TALIS, PIRLS, ETS, STEAM анализ, компетентность, способности,

Annotation. This article highlights the importance of teaching students to think creatively in math lessons to improve the quality of education.

Key words: Homogenes, gender homogenous, hegerons, creative thiking, critical thiking, PISA, "merit program", stereotype, TALIS, PIRLS, ETS, STEAM, analysis, competence, abilities.

XXI asr o'rtalarida jahon mamlakatlari tomonidan xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida bir qator tashkilotlar tuzildi. Ular orasida eng ko'zga ko'ringani Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)dir. 1961 yilda ish boshlagan IHTT o'tgan davr mobaynida moliyaviy sohada yuzaga kelgan turli muammolarni hal etib kelmoqda. Ayniqsa, yangi asr ostonasida ushbu tashkilot negizida dunyo ta'limining asosiy bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish maqsadida PISA – o'quvchilarni xalqaro baholash dasturi ishlab chiqildi. Iqtisodiy tashkilotning ta'lim sohasiga murojaat etishi bejiz emas. Boisi, har qanday soha uchun kadrlar maktablarda, oddiy sinfxonalarda ulg'ayadi. Shu ma'noda IHTTdek ulkan tuzilma ham davlatlarning ta'lim tizimiga qancha mablag' sarflayotgani va ular nechog'li samara berayotgani reytingini tuzishga majbur bo'ldi. Bugun turli davlatlardagi ta'lim ko'rsatkichlarini o'rganish, tahlil etish, solishtirish va istiqboldagi taraqqiyot maqsadlarini belgilash uchun xalqaro baholash dasturi ayni muddao bo'lmoqda.

Xorijiy ta'lim o'qitish usullari Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritishni to'la amalga oshirishdi. Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim ishini tabaqalashtirish muammolarini keltirib chiqardi. Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'limni tabaqalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. Ta'lim oluvchilarni tabaqalashtirib o'qitish xorijiy mamlakatlarda asosan boshlang'ich ta'lim

kursidan keyin amalga oshiriladi. Masalan, fransuz pedagoglari ta'lim jarayonida sinf ta'lim oluvchilarini uch tabaqaqa ajratib o'qitishni afzal ko'radilar. Bular quyidagilar:

1. Gomogenlar – matematika va gumanitar yo'nalishda ish olib borsa bo'ladigan ta'lim oluvchilar.
2. Yarim gomogen – tabiiy turkumdagi fanlarni o'zlashtira olishga moyil ta'lim oluvchilar.
3. Gegeron – barcha predmetlarni har xil saviyada o'zlashtiradigan ta'lim oluvchilar va hokazo.

Tabaqalashtirish jarayonining yangi muhim yo'nalishi to'diruvchi ta'limni rivojlantirish bo'lib qolmoqda. Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda. Keyingi davrlarda o'z tengdoshlariga nisbatan qobiliyatda bir necha barobor ilgari ketgan bolalar ko'plab topilmoqda. Ular o'quvni juda erta boshlab ta'lim kurslarini o'zlashtirishda katta shov - shuvlarga sabab bo'ladigan darajada muvaffaqiyatlarga erishadilar. Shunday iqtidorlar maktabi G'arbda 60 - yillardayiq paydo bo'lgan edi. Bunday maktablarning o'quv dasturlari bolalar qobiliyati va imkoniyatini to'la ro'yobga chiqarishni ta'minlab berish darajasida murakkab tuzilgan. Qobiliyatli bolalar bilan ishlash dasturlari AQSHda keng quloch yoygan. Ayrim shaharlarda qobiliyatli bolalar bog'chalari ochilgan bo'lib, ularda 4-5 yoshli ta'lim oluvchilar maktab dasturida o'qitiladilar. AQSHda "Merit" dasturi asosida har yil yuqori sinflar va kollejlardan eng qobiliyatli bolalardan 600 mingtasi tanlab olinadi. Ular o'rtasida test sinovlari o'tkazilib eng qobiliyatli 35 ming ta'lim oluvchi tanlab olinadi va o'qitiladi. Ularga turli imtiyozlar, stipendiyalar, yaxshi shart - sharoitga ega bo'lgan turarjoy, eng oliy darajadagi universitetlarga qabul va boshqalar amalga oshiriladi. Lekin iqtidorli bolalarga qarama - qarshi qutbda turgan aqli zaif ta'lim oluvchilarning taqdiri ham xorijlik hamkasblarni tobora tashvishlantirmoqda, bunday holni kelib chiqish sabablarini o'rganish, oldini olish bo'yicha ko'pgina profilaktik ishlar olib borilmoqda va ular uchun maxsus maktablar ochilmoqda. Germaniya maktablarida sinfda ta'lim oluvchilar sonini qisqartirish sari yo'l tutilgan. Bunday ta'lim oluvchilarni - har biriga individual paketlar (topshiriqlar) tarqatiladi. Toshiriqlarni ta'lim oluvchi mustaqil bajaradi, lozim bo'lganda u pedagogdan konsultatsiya oladi. Yuqorida bayon qilinganlardan ko'zda tutilgan maqsadlar:

- maktablarning insonparvarlik, umuminsoniylik yo'nalishlarini kuchaytirish. - ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirishning eng samarali yo'llarini qidirib topish. - tarbiyaning yangi formalarida

- maktabni mehnat, insoniy faoliyat bilan yaqinlashtirish, kasbga yo'naltirish ishlarini qayta tashkil etish

- tabaqalashtirib o'qitishni yo'lga qo'yish, maxsus o'quv muassasalarini (ham talantlar, ham aqliy, jismoniy zaif ta'lim oluvchilar uchun) rivojlantirish pedagogik g'oyalarni amalga oshirishda keng qamrovli eksperiment tadqiqotlarni amalga oshirishdan iboratdir. Chet el ta'limidagi bunday ibratli jihatlarni Vatanimiz ta'lim tizimlarida qo'llash Resublikamizda ta'lim-tarbiya ishlarini isloh qilish jarayonini tezlashtiradi. Insoniyat jamiyatining hozirgi zamon rivojlanish darajasi mustaqil respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarda o'z aksini topmoqda.

The Programme for International Student Assessment (PISA) tadqiqoti 15 yoshli ta'lim oluvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini

baholash uchun qo'llaniladi. The Teaching and Learning International Survey (TALIS) - rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda pedagoglarning ish sharoitlarini o'rganish uchun joriy etish ko'zda tutilgan. Qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi. Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;

- ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

- ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;

- ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

- ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

- o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

Ta'lim oluvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi ta'lim sifati darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o'quv yili davomida har bir ta'lim muassasasida ichki va tashqi monitoring o'tkazib boriladi. Uning natijasiga ko'ra, eng namunali maktablar ketma-ketligi, pedagoglar salohiyati va ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Bu jarayon ta'lim taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo'lgani uchun Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim maktabi ta'lim oluvchilari bilimini baholash bo'yicha xalqaro dasurlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi. Ya'ni, ta'lim oluvchilar bilimini xalqaro talablarga yetkazish, unga mosligini o'rganib borish maqsadida PISA, TIMSS kabi baholash dasurlarini keng qo'llash rejalashtirilmoqda. PISA – 15 yoshli ta'lim oluvchilarning savodxonligi va kompetentsiyasini baholovchi xalqaro dastur bo'lib, Xalqaro Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan 3 yilda bir marta tabiiy fanlar bo'yicha monitoring qilinadi va ballik tizimda baholanadi. Ushbu xalqaro dasur 1997 yili ishlab chiqilib, 2000 yilda ilk marotaba amaliyotda qo'llangan. Dastur ko'magida turli davlatlar ta'lim tizimidagi o'zgarishlar aniqlanadi, solishtiriladi, baholab boriladi. Shu bois yildan-yilga uning ahamiyati va qamrovi oshib boryapti. Misol uchun, 2000 yilda dastur testlarida 32 davlatdan 265000 nafar ta'lim oluvchi ishtirok etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 2 barobarga oshishi, ya'ni 78 davlatdan 540000 nafardan ziyod ta'lim oluvchi qatnashishi kutilmoqda. Har bir davlatdan ishtirok etuvchi ta'lim oluvchilar soni mamlakatdagi jami 15 yoshli bolalarning 2 foizi miqdorida

shakllantiriladi. PISA dasturi test sinovlari Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan yetakchi xalqaro tashkilot va milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi. TIMSS - maktabda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatining xalqaro monitoringi bo'lib, Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assosatsiyasi tomonidan tashkil etiladi. Ushbu tadqiqot turli davlatlardagi 4 va 8-sinf ta'lim oluvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, pedagoglar salohiyati, ta'lim oluvchilarning oilalari bilan bog'liq omillar o'rganiladi. Tadqiqot to'rt yilda bir marta dunyoning ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari va tashkilotlari, xususan, AQSHning ta'lim sohasidagi test xizmatlari (ETS-Educational Testing Services), Kanadaning statistik markazi (Statistic Canada), Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assosatsiyasi (IEA)ning Sekretariati ishtirokida o'tkaziladi.

Kreativ fikrlash -bu innovatsion va samarali yechimlarni topish,yangi bilimlarni egallash,tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish,baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir.Kreativ fikrlash bizga muammolarni hal qilishda noodatiy yechim topishga yordam beradi.Biroq biz uni tanqidiy fikrlash bilan adashtirib yubormasligimiz,imkonsiz muammolarni hal qilishda bir-birini to'ldirib turuvchi yechimlarni topishga yordamchi sifatida qarashimiz kerak. PISA tadqiqotlarida o'quvchidan kreativ fikrlashni baholash modeliga ko'ra ilmiy muammolarni yoki ijtimoiy muammolarni hal qilish,o'z g'oyalarni yozma yoki visual ifodalash talab qilinadi. Kreativ fikrlashni baholashda turli g'oyalarni ishlab chiqish,kreativ g'oyalarni baholash va takomillashtirish kompetentligiga e'tibor qaratiladi.Agar ibtidoiy odamlarning kreativ fikrlashi bo'lmaganida, ikkita chaqmoqtoshni bir-biriga urib olovni,Tomas Edison elektr lampasini,Leonardo da Vinchi parashyutni ixtiro qilmagan bo'lar edi.Har bir o'quvchida ta'lim olishga istak bo'ladi.Faqatgina biz shu istakni ruhlantirish,ta'lim berish va rag'batlantirish orqali erishamiz.Bugun dunyoda yuz berayotgan to'rtinchi sanoat tamaddunining dvigateli – harakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir. G'ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga talab katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislariga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir. Haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikrlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni umumiy lashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltirilgan.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create"dan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamidagi originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki

yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatika qoidalarini "suv qilib ichib yuborgan" bo'lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshsteyn "Tasavvur – bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Inson miyasi o'z ishini "yengillashtirish", "qulaylashtirish" uchun shablon va stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha ma'lum bo'lgan va umumqabul qilingan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g'oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo'lgan ijtimoiy fikr, mediamahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko'rinishlar ham yetakchi o'rin tutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo'shiladi. Qolaversa, "oqim bo'ylab suzish" mustaqil fikrlashdan ko'ra oson tuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo'yicha inson ongiga "so'rov" berilganida odatiy ma'lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Masalan, "uchburchak" deganda bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan uchta nuqtani ketma-ket tutashtirishdan hosil bo'lgan shakl tushuniladi, bu qolip asosida fikrlashning ko'rinishi. Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o'zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yaratoladi.

Xo'sh siz uchburchak deganda nimalarni ko'z oldingizga keltirasiz?

Eng ajablanarli jihati, ta'lim-tarbiya jarayoni ham bolalarni bir xil fikrlashga o'rgatib qo'yarkan. Mashhur ixtirochi va kashfiyotchilarning aynan maktabdagi ta'lim jarayonidagi bir xillikka ko'nikolmagani, qoliplarga sig'maganini ko'rish mumkin. Masalan, Albert Eynshsteynning maktabdan haydalihi yoki Dmitriy Mendeleyevning kimyo fanidan "uch" olgani bunga misol bo'ladi.

Ken Robinson tomonidan tayyorlangan va YouTube saytida 5 million marta tomosha qilingan "Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?" nomli videolavhada ham shu xususida so'z boradi. Harf o'rganish jarayonidayoq bolalarning belgilangan chiziqlar bo'ylab yozishi, topshiriqlarni bajarishda namunalar orqali ishlashi, adabiyot darslarida asarni qanday tushunish kerakligi to'grisida ma'lumotlar berilishi, pedagoglarning yaxshi bajaruvchilarni yaxshi baholashi natijasida bolalar qoliplar doirasida fikrlay boshlaydi. Oqibatda ko'plab yoshlar topshiriq berilsa, namuna bormi, deb so'raydigan holga kelgan. Bu oldin mavjud bo'lgan modellar asosida ishlashga o'rganib qolish natijasi. Bunday vaziyatni bartaraf etish uchun o'quv jarayonida ijodkorlik sifatlarini tarbiyalashga ahamiyat qaratilishi maqsadga muvofiq. Masalan, o'quvchilarga "Sizga bir kunda 86400 AQSh dollari berilsa, uni nimalarga sarflagan bo'lardingiz?" kabi noodatiy savollar berilishi mumkin. Bu savol o'quvchining topqirlik, bilag'onlik, ijodkorlik, masalaga turli nuqtayi nazardan qaray olish, yashirin jihatlarni ochish kabi xislatlarini rivojlantradi. Sababi, 86 400 bir kundagi soniyalar miqdorini anglatadi. Savol orqali o'quvchiga har bir soniya qimmatini anglatiladi, uni behuda sarflamaslik uqtiriladi. Agar o'quvchi savol tagidagi mohiyatni anglamasa, unda kreativ va evrestik sifatlar past hisoblanadi. Qolip va stereotiplar asosida fikrlashning bir necha ko'rinishlari bor. Masalan, qutbli tafakkur – hamma narsani ikki shaklda – yaxshi yoki yomon deb qabul qilish, dunyoni oq va qora rangda

Shuningdek, kreativlikning mikro va makrosignallarini anglash, uning inson fiziologiyasi bilan bog'liq jihatlari, ya'ni qanday holatlarda inson xayoliga yangi fikrlar kelishini bilish ham muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gafforov Ya. X. (2020). Methods for developing a system of teaching history and increasing the effectiveness of history teaching. Индия. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. 2020, 108.
2. Фафоров. Я.Х. Мактаб ислоҳати ва ўқитиш методларини такомиллаштириш. Science and education. Sgientific Journal. 2020, 482.
3. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta'lim. № 1 (86). - S.5
4. Gafforov Ya.X. Toshtemirova. S. (2020). Ways to increase the effectiveness of education in an integrated environment. International Journal of Current Research and Review. India.

Salayeva Nodira Batirboyevna, Ollaberganova Muborak Xolmuratovna
Academic lyceum of the Urgench branch of
Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad Al-Khwarazmi
(Tashkent, Uzbekistan)

ROLE OF TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF POSITIVE MOTIVATION IN PROFESSIONALLY-ORIENTED FOREIGN LANGUAGE TEACHING

The formation of students' ability and readiness for intercultural communication, which involves the formation of knowledge, the development of skills and the improvement of the skills of traditional types of speech activity: reading, speaking, listening and writing is the practical goal of a foreign language course.

Teaching students of non-linguistic profiles of a foreign language should be aimed at mastering students of a foreign language communicative competence, which will allow solving problems related to professional activities.

The teacher needs to use the most effective pedagogical technologies focused on the personality of students, on communication of students not only with the teacher, but also with each other, as well as on the growth of students' activity in the classroom. The use of modern communication technologies in language education contributes to the formation of positive motivation for the study of a foreign language among students. Learning in cooperation, a personality-oriented approach, the connection of the topics studied with the future professional activities of students, the presence of game moments contributes to an increase in cognitive interest in learning a foreign language.

A prerequisite for stimulating communicative activity in foreign language classes is, in our opinion, the availability of a professionally oriented textbook.

The components of the textbook, contributing to effective teaching in the classroom of a foreign language, should include authenticity materials, cognition and informativeness of texts, relevance and the temporal correlation of information, the communicative orientation of tasks. The focus of training exercises and material on solving professional problems allows you to most effectively immerse yourself in the language environment and helps to increase student motivation.

When selecting material for professionally oriented teaching in a foreign language, it is necessary to provide for the possibility and forms of real use of the information obtained from the texts in the next educational and professional activity of the student and in accordance with this, carry out a special selection of foreign language literature [2, p. 122].

In addition, the following factors should be taken into account when compiling a professionally oriented study guide:

availability and consistency of presentation of material, laconicism and accuracy of presentation of grammatical and lexical-syntactic designs, clarity, illustrativeness, the presence of a complex creative assignments for each educational topic, targeted audio and video support, the use of computer information technology [4, p. 91].

Effective teaching of students of non-linguistic specialties should be based on modern pedagogical technologies, which are a combination of traditional, active and interesting effective teaching methods. In practical exercises, interactive technologies should be used, which are based on interaction between teacher and students. Unlike active methods, interactive ones are focused on wider interaction, students not only with the teacher, but also with each other and on the dominance of students' activity in the learning process [3, p. 112].

The teacher's job is to teach students consciously master the linguistic material in the process of collective activity.

As practice shows, the most effective means of developing positive motivation is the inclusion of intellectual activity of a competitive nature [1, p. 116]. These can be role-playing games, discussions, the creation of educational projects, festivals, quizzes, a variety of creative tasks.

One of the varieties of the interactive teaching method is role play. Role play promotes positive communicative motivation, since any communication is based on the solution of a problem that is being discussed in a life situation. When properly organized, role play creates an environment of conditional practice, and the participants in the interaction are required to make and implement professional decisions. At the same time, role play serves as a means of consolidating the acquired speech skills and abilities.

An example of a role-playing game for students of the specialty "Technosphere Safety" can serve as situational communications on the topic "Environmental Problems in Uzbekistan". Preliminary work in the classroom includes mastering vocabulary, grammatical patterns, listening and reading texts on the topic, activating the material in exercises.

Further, students distribute among themselves the roles of environmental experts, representatives of the authorities, representatives of the public and discuss the problems of air pollution, water pollution, climate change etc. in different regions and offer solutions to these problems.

The games are held in small groups and are accompanied by visual aids.

Along with gaming technologies, we use the project method. We linked the application of the project method with the future professional activities of our students. The design methodology has a practical orientation, allows you to combine independent individual work with group and collective work, stimulates an independent search.

Taking into account the advantages of the design methodology, we use it with students of the specialties "Technosphere Safety" and "Power Engineering and Electrical Engineering" on the topic "Nuclear Power". By discussing the topic of the project, students themselves determine the problems and topics, for example:

"Nuclear accident and incidents", "Nuclear technology companies", Environmental impact of nuclear power, Radioactive waste, Nuclear safety and security, Prospects of nuclear engineering.

Students independently choose the form of work on the project (individual or group), distributing tasks between group members. The teacher acts as a mentor, respects any idea, does not dictate his point of view, conducts consultations as needed. At the final stage, projects are defended with a visual presentation of the prepared material. When summarizing the

results, the teacher should focus on the content of the statement, without diverting the attention of students to correct mistakes.

One of the important aspects of increasing motivation to the study of foreign languages is a competitive moment.

The festival as a form of extracurricular work contributes to the development of inventive and creative abilities, creates conditions for disclosing the identity of students.

Thus, the preparation and holding of competitions and festivals contributes to the formation of linguistic competence, the development of creative and cognitive activity of students.

The use of effective technologies in the process of professionally oriented teaching of a foreign language puts the student at the center of the educational process, promotes active interaction of students with each other and with the teacher, involves students in solving practical problems related to future professional activities, and forms a positive motivation for the student to study a foreign language. language, which has a significant impact on the quality of vocational training.

REFERENCES:

1. Katkova NV Formation of motivation in teaching a foreign language / NV Katkova // Foreign language in the system of secondary and higher education: materials of international scientific-practical. conf. 1-2 October 2011. - Penza; Moscow; Rasht: Scientific Publishing House. Center "Sociosphere", 2011. - pp. 116-118.
2. Krylova AS Integrated teaching as the implementation of an interdisciplinary approach in the study of a foreign language in a technical university / AS Krylova // Modern communication technologies in language education: materials of international scientific and practical. conf. Dec 1 2008 - Khabarovsk: Pacific State Publishing House. University, 2008. - S. 119-124.
3. Nezhivleva IA Interactive methods of teaching a foreign language / IA Nezhivleva // Foreign language in the system of secondary and higher education: materials of international scientific-practical. conf. 1-2 October 2011. - Penza; Moscow; Rasht: Scientific Publishing House. Center "Sociosphere", 2011. - pp. 112-115.
4. Smerdina E. Yu. With Motivation as a factor of pedagogical influence on the process of mastering the English language for special purposes / E. Yu. Smerdina, MN Malakhova // Psychopedagogy in law enforcement agencies. - 2016. - No. 4 (67) - P. 90-93.

Siddiqov Xasan Taxirovich
UrDU, o'qituvchi
(Urganch, O'zbekiston)

OLIV TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHDA TA'LIM-TARBIYANING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashda ta'lim-tarbiya ishlarini yuqori bosqichga ko'tarishda ta'lim tizimiga yangicha yondashuvni shakllantirish kabi masalalar o'rganilgan. Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotning yangi bosqichlarini ochib berish to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, ta'lim jarayoni modernizatsiyasi, pedagogik texnologiya, novatsiya, innovatsiya, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются такие вопросы, как формирование нового подхода к системе образования в повышении уровня организации непрерывного духовного образования в высших учебных заведениях. Также говорят о необходимости создания современных учебников, оказывающих методическую поддержку учителям для повышения эффективности работы в области духовного воспитания.

Ключевые слова: непрерывное духовное образование, современная педагогика, нравственная зрелость, концепция образования, базовая компетенция, инициатива, принцип преемственности.

Annotation. In this article discusses issues such as the formation of a new approach to the education system in raising the level of organization of continuous spiritual education in higher educational institutions. They also talk about the need to create modern textbooks that provide methodological support to teachers to improve the efficiency of work in the field of spiritual education.

Key words: continuous spiritual education, modern pedagogy, moral maturity, the concept of education, basic competence, initiative, the principle of continuity.

Insoniyat paydo bo'lishining dastlabki davrlarida ham davlat va jamiyat munosabatlarini olib borishida ijtimoiy muammolar paydo bo'lgan. Ushbu muammolarni yangicha yondashuv sifatida talqin etishda umumiy tarzda "modernizatsiya" tushunchasi yordamida ifodalani b kelinmoqda. "Modernizatsiya" (ingl. "modern" -zamonaviy, ilg'or, yangilangan) – ob'ektning yangi talablar va me'yorlar, texnik ko'rsatmalar, sifat ko'rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi sanaladi. Aslida modernizatsiya jarayonida mashinalar, dastgohlar, ishlab chiqarilgan mahsulotlar yangilanadi. Lekin, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyalarning rivoji tufayli jamiyat ham rivojlanishning muayyan bosqichidan yanada takomillashgan bosqichga o'tadi. Ta'lim tizimidagi modernizatsiya har bir insonning to'laqonli ta'lim olishida, teng huquqliligi va ta'lim olishning ochiqligini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimida

yangi sifat ko'rsatkichlariga erishish, yangi ta'lim resurslarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanish asosida uzluksiz ta'lim tizimida samarali me'yoriy-huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish, ta'lim tizimining davlat va jamoatchilik boshqaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ta'lim jarayoni ishtirokchilari - talabalar, pedagoglar, ota-onalar va ta'lim muassasalarining rolini oshirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida shunday deb ta'kidlagan edi: "Biz yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunni yangi tahrirda qabul qildik. Shu asosda yangicha yondashuvlar hayotga faol joriy etilmoqda". Bu dolzarb vazifani amalga oshirishning birdan-bir yo'li ta'lim standart tizimini tinmay takomillashtirish orqali yosh avlodni ilm-fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Zero, ilm olish yo'lidagi izlanish insonning e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradi, ma'naviy-axloqiy kamolot sari yetaklaydi. Uzluksiz ma'naviy tizimni takomillashtirish har bir o'zbek oilasidan boshlanishi maqsadga muvofiqligini bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davlatlar bilan taqqoslash jarayonida ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, 2019-yil 31-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1059-sonli Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi qabul qilingan. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. Ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda.

Pedagogik texnologiya-ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va boshqalarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiiq etish va aniqlashning izchil metodi hisoblanadi. Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa va AQSHda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk marotaba o'rtaga tashlandi. XX asrning o'rtalarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash "ta'lim texnologiyasi" yo'nalishini belgilab beruvchi omil sifatida baho berilib, asosiy e'tibor talabalar auditoriyasini kengaytirish, texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli qarorida oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyatni mustahkamlash, oliy ta'limda ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, ayniqsa, yosh avlodda bunyodkorlik g'oyalarini

shakllantirish, ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, ijtimoiy madaniyatini oshirish kabi muhim vazifalarni bajarish orqali uning roli tobora oshib bormoqda. Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, Oliy ta'lim tizimiga yangi tushunchalar, tamoyillar va maqsadlar sari rivojlantirish tendensiyasini shakllantirish orqali tahsil oluvchilar dunyoqarashi, ta'lim-tarbiyasi va bilimini mustahkamlash muhim vazifalardan biri bo'lib davom etaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi (22-dekabr 2017-yil). - Toshkent:"O'zbekiston", NMIU, 2018.
2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari /Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., "Sano standart" nashriyoti, 2015.

**Tilavova Minavar
katta o'qituvchi,
Sapayeva Boljon
katta o'qituvchi,
Madrahimova Dinora
o'qituvchi
UrDU
(Urganch, O'zbekiston)**

ORFOGRAFIYA - SAVODXONLIGIMIZ GAROVI

Аннотация. В статье обсуждаются актуальные вопросы обучения орфографии в начальных классах.

Ключевые слова: орфография, грамотность, виды письменной работы, диктант, повествование, эссе, типы ошибок, речевые ошибки.

Annotation. in this article, it is given current issues in orthography in primary school. Thoughts on pupils' speech errors in dictation, narration, and essay writing are systematically presented.

Keywords: orthography, literacy, types of written work, dictation, narration, essay, types of errors, speech errors.

Mamlakatimizda olib borilayotgan pedagogik ta'limning asosiy maqsadlaridan biri, milliy tarbiyamizda barkamol shaxs ma'naviyatini yuksaltirishning didaktik asosi sifatida qarab, barkamol avlodni shakllantirish muammolarini hal qilishdan iborat. Ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or- nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi. Ha, bu ulkan ishda ona tili o'qitish metodikasi fani alohida ahamiyat kasb etadi.

Fan o'z oldiga bolalarning yoshi, saviyasiga qarab muhim ta'lim va tarbiyaviy masalalarni qo'yadi. Bolalar uchun tavsia qilinadigan matnlar ularning yosh xususiyatlariga to'g'ri kelishidan tashqari kichintoylarga tushunarli va qiziqarli bo'lishi zarur.

Mustaqil O'zbekistonimiz oldida juda ko'p masalalar bilan bir qatorda ham jismoniy, ham aqliy jihatdan chiniqqan, ma'naviy yetuk, hayotning turli sohalarida faollik bilan ish olib borishga qodir o'qimishli kishilarni voyaga yetkazishdek buyuk ishlar turadi. O'z navbatida, bunday ulkan vazifalar ona tili fani oldiga ham yuksak talablar qo'yadi. Faqat chinakam o'qituvchigina bolalarning ongi va shuuriga kuchli ta'sir ko'rsata oladi.

Ona tili – milliy savodxonlik fanidir. Chunki biz o'quvchilarga bu fanni mukammal o'qitish orqali ularning savodxonligiga erishishimiz mumkin. Ona tili fanini o'qitish mobaynida o'quvchilarga ona tilimizning tarixi, tilimizdagi so'zlarning xilma-xilligi, ularning yasalishi, tilshunosligimizning bo'limlari, so'zlarning boyish manbalari haqida ma'lumot berish bilan bir qatorda eng muhim bo'lgan jihat – imloviy savodxonligiga ham alohida e'tibor beramiz. Ona tili darsliklarida berilgan mavzulardagi qoidalarning deyarli barchasida ham imloviy savodxonlikka ham alohida e'tibor berilgan. Bu esa o'quvchi egallagan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq

etishiga yordam beradi. Shunday bo'lsa-da, ba'zan o'quvchilarning yozma nazorat ishlari: diktant, bayon, insholarida bir qancha imloviy xatolar uchrab turadi. Ayniqsa, o'quvchilarda x va h harflari qatnashgan so'zlarni yozayotganlarida ikkilanishlari, o'ylanib qolishlari va hatto bu harflarning o'rnini almashtirib qo'yishlari achinarli holdir.

Orfografiya-savodxonligimiz asosi. O'quvchilarni har tomonlama kamol topishida savodxonlik ham alohida o'rin tutadi. Savodxonlik esa maktabda boshlang'ich sinflardan boshlab diktant olish va ularni muntazam tekshirib borish orqali amalga oshiriladi.

O'qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagi o'quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilaydi.

Imloviy malaka maxsus nutq malakasidir. To'g'ri yozuv – maxsus nutq faoliyati; yozuv ham murakkab harakat bo'lib, uning asosida nutq yotadi. Imloviy malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, so'zni uslubiy aniq qo'llashni ham o'z ichiga oladi. Imloviy malaka murakkab malaka bo'lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so'zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash ko'nikmasi kabilarga asoslanadi. Psixologiya malakani avtomatik harakat, ya'ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongli harakat deb belgilaydi. Avtomatlashish o'rganilgan imlo qoidasining oson yoki qiyinligiga bog'liq. Imloviy malaka o'z tabiati bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo'yilgan ko'nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq va to'g'ri bo'la boshlaydi, ishonarli va tejamli bajariladi); shuning bilan birga, faoliyatning tuzilmasi qayta quriladi: mayda birlik bilan ishlash kengroq, butun, qo'shilgan birliklar bilan ishlashga o'tadi (masalan, so'zni harflab ko'chirish, bo'g'inlab ko'chirish bilan, keyin so'zni yaxlit ko'chirish bilan, so'ngra u gapni ko'chirish bilan almashadi). Bir imlo malakasi avtomatlashadi, imloga oid boshqa hodisa o'rganiladi va asta-sekin so'zni to'g'ri yozish malakasi hosil bo'ladi. Umuman olganda, yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi.

To'g'ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o'quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Biror to'g'ri yozuv hodisasini o'zlashtirish uchun o'quv va yodda saqlashgina emas, balki analiz va sintez ham tatbiq etiladi. Bunda grammatik va imloviy hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so'z va so'z shakllarini ma'lum grammatik yoki grafik guruhlarga ajratish, muayyan tizimga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim o'rin tutadi.

O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'znigina emas, balki umumiylik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me'yorga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi.

Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan so'zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, so'z yasashiga oid materiallarni ma'lum darajada bilmasdan turib o'zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo'ladigan grammatik nazariyaga bog'liq holda o'rganiladi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish borasida o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: imlo qoidalarini ongli o'zlashtirish, ijodiylik, fikrni aniq, lo'nda, qisqa va tushunarli bayon etish.

O'quvchi yozma savodxonligini oshirish maqsadida taqvim-mavzu ish rejasida ko'rsatilgan muddatlarda insho, bayon hamda diktant kabi yozma ish turlarini muntazam o'tkazib borish belgilangan. Yozma ish turi o'quvchi bosqichma-bosqich o'zlashtirgan imlo qoidalariga mos ravishda tanlanishi, o'tilgan mavzular bo'yicha o'quvchi o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratilishi, o'quvchilarning o'rgangan bilimlarini qay darajada amalda qo'llay olishini aniqlashga yo'naltirilishi lozim.

Taqvim-mavzu ish rejasiga asosan yozma ish turlarini o'z vaqtida o'tkazish mumkin, ammo uning natijasi qanday bo'lishiga ko'ra tadbirlar ishlab chiqish – asosiy masala. Aslida, o'quvchining savodxonlik darajasi saboq berayotgan o'qituvchiga hali nazorat ishlari boshlanmasdan avval aniq bo'ladi. Chunki ko'pi bilan uch dars oralig'ida o'quvchilarning daftarlarini tekshirish sinchkov o'qituvchiga bu imkoniyatni beradi. Daftarlar tekshuruvi o'quvchi savodxonligini aniqlashdan tashqari, savod o'rgatish borasida ham bemisl ahamiyatga ega. To'g'ri tekshirilgan so'z, jumla yoki gap imlo me'yorlari borasidagi amaliy muloqot tarzida o'quvchi esida oson qoladi va keyingi amaliyotda mayoq vazifasini o'taydi.

Sinfda va uyda bajarilgan matn yaratishga oid topshiriqlarni har bir o'quvchi kesimida nuqta, verguligacha e'tibor bilan tekshirish o'qituvchiga muayyan o'quvchining yutuqlari va kamchiliklarini aniqlash, keyingi darslarda ularga munosabat bildirish imkonini yaratadi. O'quvchilarning yozma savodxonligi dastur talablaridan past darajada bo'lsa, o'qituvchi taqvim-mavzu ish rejasiga qo'shimchalar kiritishi yoki o'quvchilar yozma savodxonligini oshirish maqsadida qo'shimcha darslar tashkil qilishi samara beradi. Faqat bu darslar o'quvchilar real bilim, malaka, ko'nikmalarining tashxisiga asoslangan, maqsadli belgilangan mavzularga oid darslar bo'lishiga e'tibor berish kerak.

O'quvchi dasturda belgilangan DTS talablarini hamma vaqt ham risoladagiday uddalay olmasligi mumkin. Buning bosh sababi, o'quvchilarning quyi sinflarda yoki oldingi mavzularda o'rganishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarida bo'shliq yuzaga kelganidir. Bu bo'shliq barcha uchun bir xil – standart bo'lmaganidan bu masalaga har bir o'qituvchi individual – ijodiy yondashishga to'g'ri keladi.

O'qituvchi real vaziyatdan kelib chiqqan holda nafaqat yozma ishlarni, balki sinf va uy ishlarini ham e'tibor bilan o'rganib chiqishi, har bir o'quvchi yo'l qo'yg'an xatolarni belgilab olishi va ular asosida guruhlangan xatolar ro'yxatini tuzishi, umumiy xato va kamchiliklarni umumiy ko'rinishda, xususiy xato va nuqsonlarni individual ishlab chiqishi talab etiladi.

Demak, o'quvchining yozma savodxonligiga tamal toshi yozma ishlar yozish jarayonida emas, balki imlo qoidalariga oid mavzularni o'rgatish jarayonida qo'yiladi. Yozma ish bir necha bosqichni qamrab oladi. Shunga ko'ra diktant, bayon, insho kabi yozma ishlardan har birining bir qancha turi mavjudki, ulardan maqsadli foydalanishgina ko'zlangan samarani beradi.

Diktant nisbatan mo'tadil yozma ish turi sanaladi. Uni a'lo bahoga yozish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Yozma ishning bu turida o'quvchining erkin fikrlashiga zarurat sezilmaydi, chunki tayyor matn aytib turiladi va o'quvchi yozaveradi. Shu o'rinda hatto diktovka (o'qib yozdirish) talablarini barcha o'qituvchilar ham bilmasligini aytib o'tish lozim. Diktovka jarayonida yuqori sinf o'quvchilariga ham bo'g'inlab, quyi sinf o'quvchilariga so'z yoki jumla

ta'kidlab o'qilayotgan, noto'g'ri talaffuz qilinayotgan, noto'g'ri to'xtam holatlariga duch kelishimiz mumkin. Ba'zan o'quvchining faqat o'z o'qituvchisi diktovkasiga ko'nikma hosil qilganini ko'ramiz. Bilimlar bellashuvlarida notanish o'qituvchining diktovkasi o'quvchilarni - esankiratib qo'ygan holatlar ham uchrab turadi.

Diktantning o'ziga xos sharti o'z lug'aviy ma'nosidagi diktovka - aytib turib yozdirish degan tushunchadan ko'ra muhimroqdir. Diktant - bu eshitganinigina yozish emas, balki aytilayotgan so'zning ongda, shuunda muhrlangan suratini nusxalash. Shuning uchun ham aytib turish - diktovka qanday bo'lishidan qat'iy nazar, o'quvchining to'g'ri yoza olishiga erishish bosh masaladir. O'quvchi aql, fahm kabi bir bo'g'inli so'zlarda qator kelgan undoshlar orasida qisqa i unlisi eshitilsa-da, yozilmasligini; zidlov, sabab va aniqlov bog'lovchilaridan oldin vergul qo'yilishini ongli idrok etmasa, bahosi "yaxshi" yoki "alo" bo'lishidan umidvor bo'lmaslik kerak. Demak, diktant uchun ham faqat diktant yozayotgan paytni muhim deb belgilamaslik zarur.

O'quvchi savodxonlikning ma'lum bosqichini o'tagandan keyin diktantga nisbatan murakkabroq bo'lgan bayon yozishga o'rgatiladi. Bayon diktantdan o'z ijodiyligi bilan farqlanadi. Unda o'quvchining ijodkorligi matnni tinglash jarayonida ko'z oldiga keltirgan, eslab qolgan manzara, holat, voqealar rivojini tasavvurida tiklagani holda individuallashtirishi – o'z tilida o'ziga xos ifoda tanlashida namoyon bo'ladi. O'quvchi bu o'rinda matnni boyitishi, jonlantirishi, tasviriy ifodalardan o'rinni foydalanishi yoki, aksincha, borini buzib, uslubiy xatoliklarga yo'l qo'yishi mumkin. Bunday paytlarda muayyan o'quvchining har bir gapi, jumlas, so'zlarni bir-biriga bog'lashi, umuman olganda, ifoda texnikasi haqida fikr yuritishga, yo'l qo'yilgan xatolikni bartaraf etib, qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatni rag'batlantirishga to'g'ri keladi.

Insho bayonga nisbatan ham ijodiy yondashuv borasida yuqori maqomda turadi. Unda izlanuvchanlik, ma'lumotlar to'plash, saralash, umumlashma xulosalar chiqarish, eng muhimi, g'ozal badiiy ifoda yetakchilik qiladi. Bu boradagi urinishlar juda mashaqqatli jarayon bo'lib, o'quvchi va o'qituvchidan ancha ter to'kishni talab etadi.

Yozma ishlarning barcha turlaridan keyin imlo va uslubiy savodxonlik taqvim-mavzu rejasi asosida tahlil darslari bilan mustahkamlanadi. Ushbu darslarning samarasi beqiyosdir. Garchi ijodiy ish tugaganday taassurot tug'dirsa-da, tahlil darslarisiz ijodiy ish yakuniga yetmagan hisoblanadi. Tahlil darslari o'ziga xos saboq, keyingi ijodiy ish uchun namuna vazifasini o'tashda tengsiz mashg'ulot sanaladi.

O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish bo'yicha maktablarda qilinayotgan ishlarning barchasini ko'ngildagiday deb bo'lmaydi. O'quvchilarning bilimlar bellashuvi va fan olimpiadalari natijalarilaridan shuni ko'rish mumkinki, ona tili fanidan ushbu bellashuvarda ishtirok etgan o'quvchilar ishlarida ham kamchiliklar anchagina. O'quvchilar yo'l qo'ygan xato va kamchiliklar ichida eng ko'p uchragani tinish belgilariga oid xatolar sanaladi. Undalma, kirish so'z, bog'lovchilar, uyushiq bo'laklarning vergul, izohlanayotgan bo'laklarning vergul, qavs yoki tire bilan ajratilishi, ega va ot kesim orasida tirening qo'llanilishi, xullas, tinish belgilarining qo'llanilishiga oid bilimlarda bo'shliq yaqqol ko'zga tashlanadi.

Garchi tinish belgilari xatoligi xatoliklar darajasida quyi pog'onani egallasa-da (baholash mezonlarida ba'zan 3-4 tinish belgisi bir imlo xatosiga tenglashtiriladi), ularga bepisand munosabatda bo'lish mumkin degan xulosaga olib kelmasligi lozim. Ayrim hollarda tinish belgilari sintaktik munosabatni boshqargani bois uslubiy xatoga yo'l ochadi: Doktor opam keldi – Doktor, opam keldi.

Nuqtali vergul o'rnida vergul, tire o'rnida ikki nuqta yoki, aksincha, ikki nuqta o'rnida tire qo'llash nafaqat maktab o'quvchilari ishlarida, balki matbuot va kitob nashrlarida ham ko'p uchraydi.

Ikkinchi turdagi xatolik savodxonlikning asosiy mezonini bo'lgan imlo xatolaridir. Ushbu xatolar miqdori 7 va undan oshsa, ish "qoniqarsiz" baholanishi lozim.

Bayon va insho imlo xatolari eng ko'p uchraydigan yozma ish turlari bo'lganidan - (diktantda 4-5 ta imlosi qiyin so'z dars taxtasiga yozib qo'yiladi) amaliyotda ikkinchi - savodxonlikka qo'yilayotgan baholar "2" - "qoniqarsiz" dan oshmagani o'qituvchi 2 soatga mo'ljallangan yozma ishning ikkinchi bahosini jurnalga hamma vaqt ham qo'yavermaydi: "Boshog'riq kimga kerak?!". Ijodiy ishlarning savodxonlik uchun qo'yiladigan ikkinchi bahosi muntazam qo'yib borilsa, samaradorlik keskin pasayishi, hatto ayrim o'quvchilarni sinfda qoldirish muammosi ham paydo bo'lishi mumkin.

Ijodiy ishlarda uchrayotgan xatolardan keyingisi uslubiy xatolardir. Ularning vahimasi o'ziga yarasha: baholash mezonlarida bir uslubiy xato 3-4 imlo xatosiga tenglashtiriladi. Bu xatolarning ildizi kitobxonlikka borib taqaladi. Ona tili o'qituvchisi uchun uslubiy xatolikka oid xatolarni izlash zarurati yo'q, chunki u har kuni o'quvchilar daftarini tekshirar ekan bu xatolarga duch kelishi tayin.

Uslubiy xatolarni bartaraf etish uchun juda ko'p ter to'kish zarurati yo'q. Bor-yo'g'i o'quvchilarni kitobga oshno qilish kifoya. Shunda o'quvchilarning lug'at boyligi oshadi va uslubiy xatolarning oldi olinadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'quvchilarda yuqoridagi kabi xatolarning oldini olish uchun nazariy bilimlarni chuqurroq o'rgatish va ularni kitobxonlikka o'rgatishimiz zarur. O'quvchi olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olmasa uni uqqan deya olmaymiz.

Shuningdek oliy ta'lim muassasalarining kirish imtihonlari - test bloklari qatoriga ona tili fanidan yozma diktant olinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Qachonki insonga talab qo'yilsagina, shu talabni amalga oshirish uchun qunt bilan harakat qiladi. Shu usul bilan ham o'quvchilarning, qolaversa, bo'lajak kadrlarning yozma savodxonligini oshirgan bo'lar edik. Negaki, oliy ma'lumotli kadrlarning yozma savodxon bo'lishlari davr talabidir.

Нурметов М. Р., Сейитниязова А. А.
Урганч Давлат университети
(Урганч, Узбекистан)

ЧИЗМАЧИЛИК ФАНИ БЎЙИЧА ЎҚУВЧИЛАРДА КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Умумий ўрта таълим мактабларида чизмачилик фанининг ўқитилишидан **асосий мақсад**, ўқувчиларнинг мураккаб бўлмаган чизмаларни бажаришда лозим бўлган геометрик ва проекцион чизмачилик бўлими мавзуларини мукаммал ўргатиш асосида ўқувчиларда чизма чизиш ва уни ўқишга ўргатиш ва у орқали уларнинг фазовий тасавурини бойитиш, ўз фикрини график тасвирлар воситасида ифода этишга ўргатишдан иборат.

Ўзбекистон Республикасида таълимнинг узлуксизлиги, баркамол шахсни тарбиялашга йўналтирилганлигидан келиб чиққан ҳолда, умумий ўрта, ўрта махсус, касб-ҳунар таълимида (9+3) ўқитиладиган умумтаълим фанлари мазмунининг изчиллигини таъминлаш мақсадида таянч компетенциялар ҳамда ҳар бир ўқув фани мазмунидан келиб чиққан ҳолда хусусий компетенциялар белгиланади. Чизмачилик фани бўйича эгаллаган билим, кўникма ва малакаларидан кундалик ҳаётда фойдаланиш ва амалиётда қўллай олиш қобилиятида **ўқувчининг компетенцияси шаклланади**.

Инсон ўз ҳаётида шахсий, ижтимоий, иқтисодий ва касбий муносабатларга киришиши, жамиятда ўз ўрнини эгаллаши, дуч келадиган муаммоларнинг ечимини ҳал этиши, энг муҳими ўз соҳаси, касби бўйича рақобатбардош бўлиши учун зарур бўлган **таянч компетенцияларга** эга бўлиши лозим.

Бундан ташқари таълимда ҳар бир ўқув фанини ўзлаштириш жараёнида ўқувчиларда, шу фanning ўзига хослиги, мазмунидан келиб чиққан ҳолда, ўқув предметига тегишли **хусусий компетенциялар** ҳам шакллантирилади.

8-синф чизмачилик фанидан “Аксонетрик проекциялар ҳақида умумий тушунча ва ўқларнинг жойлашиши. Деталнинг фронтал диметрик проекцияси. Деталнинг изометрик проекцияси” мавзуси мисолида кўриб чиқамиз.

Дарс мақсади: **а) таълимий:** Ўқувчиларга аксонетрик проекциялар ва уларнинг турлари ҳақида умумий маълумот бериш.

б) тарбиявий: Ўқувчиларга нафосат тарбияси бериш, техник маълумотлар орқали уларда касбий тайёргарлик элементларини ўстириш.

г) ривожлантирувчи: Ўқувчиларнинг проекциялаш бўйича билимларини ошириш.

Дарс услуби: Амалий-график ва намойиш дарси.

Керакли жиҳозлар: а) Кўргазма-слайдалар, АКТ, дарслик.

б) чизмачилик асбоблари, иш дафтари.

Дарс босқичлари:

Ташкилий қисм	3 дақиқа
Ўтилган мавзунини мустаҳкамлаш	5 дақиқа
Янги мавзу баёни	30 дақиқа
Мавзунини мустаҳкамлаш	5 дақиқа
Дарсни яқунлаш	2 дақиқа

Янги мавзу баёни:


Аксонометрия юнунча сўз бўлиб, **аксон** – “ўқ” ва **метрео** – “ўлчаш” деган маънога тўғри келиб, “ўқлар бўйича ўлчаш” деганидир. Аксонометрик проекциялар уч ўлчамли яққол тасвир ҳисобланади. Улар x , y , z координата ўқлари тизимида ҳосил бўлишига қараб **тўғри** ва **қийшиқ бурчакли** турларга ажралади.

Тўғри бурчакли аксонометрия


Агар координата ўқлари орасидаги бурчаклар ўзаро тенг бўлса, яъни жисм ўлчамлари ушбу x , y , z ўқларга ўзгармасдан бир хилда тасвирланса, **тўғри бурчакли аксонометрия** дейилади.

Қийшиқ бурчакли диметрик проекция

Кубнинг бир томонини фронтал проекциялар текислиги V га параллел жойлаштириб, аксонометрик проекция текислиги P га проекцияланади. Бу проекциялаш усули **қийшиқ бурчакли диметрия** ёки фронтал диметрия дейилиши ҳам мумкин.


**Фронтал диметрияда ўқларнинг жойлашиши**

Бунда x ва z ўқлар ўзаро 90 градус бурчакда, y ўқ эса убурчакни тенг иккига бўлиб ўтади.



Тўғри бурчакли изометрик проекция

Кубни аксонометрик проекциялар текислиги Π га нисбатан бир хил қияликда жойлаштириб, унга куб учлари орқали проекциялаш нурларини перпендикуляр қилиб ўтказилса, кубнинг тўғри бурчакли изометрик проекцияси ҳосил бўлади. Тўғри бурчакли изометрик проекция қисқача **изометрия** ҳам дейилади.



Изометрия юнонча сўз бўлиб, бир хил(тенг) деган маънони англатади.

Изометрияда Ox , Oy , Oz ўқлар орасидаги бурчаклар ўзаро тенг бўлиб, улар 120° бурчакни ташкил қилади, чунки улар Π текислигига нисбатан бир хил қияликда проекцияланади.

Дарсни мустаҳкамлаш:

а) Янги дарс мавзусини мустаҳкамлаш мақсадида тубандаги саволлардан фойдаланилади:

1-савол: Аксонометрия (яққол тасвир) нима?

2-савол: Аксонометрия қандай турларга бўлинади?

3-савол: Қийшиқ бурчакли диметрия ўқлари орасидаги бурчак қандай бўлади?

4-савол: Тўғри бурчакли изометрик проекция ўқлари ўзаро қандай бурчак остида жойлашади?

5-савол: Қийшиқ бурчакли диметрияда у ўқи бўйича нарсанинг қандай нисбатдаги ўлчами қўйилади?

б) Доскага 3 та вариантда деталнинг яққол тасвири чизилган қогоз варақлари илб қўйилади ва ушбу тасвирлар асосида уларнинг изометрик ва қийшиқ бурчакли фронтал диметрик проекцияларини ҳосил қилиш учун 3 та гуруҳдан 2 нафардан ўқувчи доскага чиқарилади ва амалий жараён ўтказилади. Ўқувчиларнинг ишлари таҳлил қилинади ва умумлаштирилади.

Дарсни яқунлаш ва уй вазифаси бериш:

Дарс жараёнида фаол қатнашган ўқувчилар рағбатлантирилади ва уйга вазифа сифатида мавзуга оид маълумотларни ўқиб билимларни мустаҳкамлаш, қийшиқ бурчакли диметрик ва тўғри бурчакли изометрик проекция ўққларини катак дафтарида бажариш топшириғи берилади.

Хусусий компетенциялар. Иш қуролларидан тўғри фойдаланиш компетенцияси, чизмаларни чизишни ўрганиш, таҳлил қилиш ва ўз-ўзини назорат қилиш компетенцияси, чизмаларни ўқиш тартиби ва чизмани кетма-кетликда тўғри бажариш компетенцияси, чизмачиликда қўлланиладиган атамаларни билиш ва чизмаларни ўқишда қўллай олиш компетенцияси ташкил қилинган.

Дарсда таянч компетенциялардан **Коммуникатив компетенцияси** “Аксонетрик проекциялар ҳақида умумий тушунча ва ўққларнинг жойлашиши. Деталнинг фронтал диметрик проекцияси. Деталнинг изометрик проекцияси” мавзусини ўзлаштиришда ўқитувчи синфга ақлий хужум методига асосан “Аксонетрия (яққол тасвир) нима? Аксонетрия қандай турларга бўлинади? Қийшиқ бурчакли диметрия ўққлари орасидаги бурчак қандай бўлади? Тўғри бурчакли изометрик проекция ўққлари ўзаро қандай бурчак остига жойлашади?” савол билан мувожабат қилади. Бу савол-жавоб орқали ўқувчилар ўз фикрини оғзаки ва ёзма тарзда аниқ ва тушунарли баён қила олишади, мавзудан келиб чиқиб саволларни мантиқан тўғри қўя олишади ва жавоб беришади.

Ахборот билан ишлаш компетенцияси мавзу юзасидан маълумотлар олишда компьютердан (интернет аудио-видео ёзув) фойдалана олиш ва излаб топа олиш шакллантирилади.

Шахс сифатида ўз-ўзини ривожлантириш компетенцияси мавзунини ўтишдан олдин уйга вазифа қилиб, турли материалларнинг проекциялаш усуллари белгиланишини иш дафтарида чизиш, бир неча кўринишларини чизиш топшириғи берилади. Ўқувчи уй вазифасини бажариш жараёнида мавзу юзасидан маълумотларни қидириш учун ўқиб-ўрганиши, билимини бойитиши, тажрибани мустақил равишда эгаллаши.

Математик саводхонлик компетенцияси мавзусини ўзлаштиришда ўқувчи аксонетрия чизиш вақтида аниқ ҳисоб-китобларга асосланган ҳолда шахсий, касбий режаларини туза олиши, ҳисоб-китоб билан иш юритиш, тайёрланган детал чизмаси ўлчамлар сони тўғри қўйилиши, модел, чизмаларни ўқий олиш ва фойдаланиши шакллантирилади.

Дарсда таянч компетенциялардан коммуникатив, ахборот билан ишлаш, шахс сифатида ўз-ўзини ривожлантириш, математик саводхонлик компетенциялари шакллантирилади.

Дарс ноанъанавий усулда ўтилади ва дарсда АКТдан фойдаланилади.

Хулоса:

Чизмачилик фанидан мавжуд 6 та таянч компетенциялар ичида коммуникатив, шахс сифатида ўз-ўзини ривожлантириш, ахборот билан ишлаш, математик саводхонлик компетенцияларини шакллантириш қулайлик туғдиради, чунки ушбу компетенциялар дарсликларда берилган график иш ва топшириқлар билан узвий боғлиқ, ҳамда бу компетенциялар чизмачилик фанлари билан уйғун, улар билан алоқадор.

Умумаданий ва ижтимоий фаол фуқаролик компетенциясини ўқувчиларда шакллантиришда қийинчиликларга дуч келади, чунки ушбу компетенцияларга оид манбалар дарсликда кам.

Нурметов М. Р., Сейитниязова А. А.
Урганч Давлат университети
(Урганч, Узбекистан)

МУҲАНДИСЛИК ГРАФИКАСИДА ФАЗОВИЙ ТАСАВВУРНИНГ ПСИХОЛОГИК ВА ПЕДАГОГИК ЖИҲАТЛАРИ

Аннотация. Ушбу мақолада муҳандислик графикаси фанларидан бири бўлган чизмачиликда талаблар фазовий тафаккурнинг психологик ва педагогик жиҳатлари баён этилган.

Таянч иборалар: Тафаккур, борлик, мавжуд, мавҳум, анализ, синтез, мантик, қобилият, онг, идрок, объект, фазовий тасаввур, фазовий тафаккур.

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические и психологические аспекты пространственного мышления в черчении, которая является частью предмета инженерной графики.

Ключевые слова: Мышления, вселенная, реалистичный, абстрактный, анализ, синтез, логический, способность сознание, рассудок, объект, пространственное мышление.

Annotation. In given article are considered pedagogical and psychological aspects of the spatial thinking in drawing, which is part of subject engineering graphs

Key words: Thinkings, universe, realistic, abstract, analysis, syntheses, logical, ability, consciousness, reason, object, spatial presentation, spatial thinking

Талабалар ўзларининг амалий ва ўқув фаолиятларида мавжуд борликдаги объект ва ҳодисаларнинг мавҳум образларини ва олган маълумотларини онгларида акс эттириш жараёнида фазовий тафаккурларини шакллантириб ҳамда ривожлантириб борадилар.

Муҳандислик графикасида фазовий тафаккур бирор мақсадга мувофиқ фазовий тасаввур қилиш ва мантиқий фикрлаш натижасида ҳосил бўлади.

Ушбу мақолада муҳандислик графикаси фанларидан бири бўлган чизмачиликда талаблар фазовий тафаккурининг психологик ва педагогик жиҳатлари баён этилган.

Чизмачиликда фазовий образлар билан ишлаш нафақат объектни қайта тиклашни, балки улар устида амаллар бажаришни, қисмларга ажратиш, алоҳида элементларни яхлитлаш, буюмнинг таркибий қисми сифатида бошқа объектлар билан алоқадорликда бўлиши назарда тутилади ва булар фазовий тасаввурни ташкил этади. Буларнинг ҳаммаси тушунчаларга яқин бўлган умумлашган фазовий тафаккурни шакллантиришга хизмат қилади.

Биз ўз тадқиқотларимизда фикрларимизни умумлаштирган ҳолда, объектларни онгимизда идрок этиб, фазовий тасаввурни шакллришининг умумий схемасини ишлаб чиқдик (1- расм).

Схемадан кўриниб турибдики, фазовий образ ҳосил бўлишида фазовий тафаккур ва фазовий тасаввур қилиш муҳим аҳамиятга эга.

Фазовий тафаккурнинг психологик хусусиятлари шундан иборатки, у ақлий фаолият тури бўлиб, амалий ва назарий масалаларни ҳал қилиш жараёнида фазовий образлар ҳосил қилиш, улар устида таҳлиллар олиб бориш ва график амаллар бажаришни таъминлайди. Уни ривожлантиришда лойиҳалаш, моделлаштириш, график тасвирлаш каби фаолият шакллари жуда муҳим ўрин тутлади.



1-расм

Бу фаолият турларини эгаллаш жараёнида талабалар ўз фаолияти натижасини олдиндан тасаввур қилиш ва уларни расм, чизма, эскиз, қурилмаларда акс эттириш, ҳаёлан уларнинг кўринишини ўзгартириш ва унинг асосида янгиларини излаш, топиш малакаларини шакллантирадилар. Излаб топилган сийсоларга мувофиқ унинг тасвирларини бажаришда ўз меҳнат натижаларини ва уни амалга ошириш босқичларини нафақат вақт, балки амалларни фазовий кетма-кетлигини ҳам ҳисобга олиб режалаштиришни ҳам ўрганадилар.

Фазовий буюмлар ва ҳодисаларнинг хусусиятлари ва муносабатларини муайян нарса ва предметдан ажратиб бўлмайти - булар айниқса, реал мавжуд нарсаларнинг ўзига хос мавҳум кўриниши бўлган геометрик объектлар (ҳажмли сиртлар, моделлар, чизмалар, схемалар ва ҳ.к.)да нққол намоён бўлади. Шунинг учун ҳам фазовий тасаввурни шакллантиришда ва улар устида амаллар бажаришда геометрик объектлар (ударнинг турли комбинацияси) асосий восита бўлиб хизмат қилади.

Ҳозирги психологияда **фазовий тасаввур** тушунчаси объект ёки ҳодисанинг идрок этиш натижасида ҳосил бўлувчи образнинг тушунчаси билан боғланади. Фазовий тасаввурлар фазовий объект ёки ҳодисаларнинг трансформацияланиб онгимизда идрок этилиши ва бу фаолият жараёнида тасвирли ахборотларни хотирада акс этган яхлит субъектив образдир. Шундай экан, биз фазовий тасаввурни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнига, онгимизда образлар ҳосил қилиш ва улар устида амаллар бажариш жараёни сифатида қарашимиз мумкин.

Фазовий тасаввурга бундай нуқтаи назар талабаларнинг фазовий тасаввурни шакллантириш ва ривожлантириш методикасини ишлаб чиқишда кўпгина методист олимлар томонидан асос қилиб олинган [3]. Бунда кўпроқ фазовий (геометрик) конфигурациянинг у ёки бу образи, ҳамда унинг элементлари ва улар орасидаги муносабатлар тушунилади. Фазовий тасаввурни шакллантириш ва ривожлантириш жараёни ўрганилаётган объектнинг фазоний образлари ёки схематик конфигурацияларни ҳаёлан лойиҳалаш ва объект устида бажарилиши лозим бўлган амалларни улар устида бажариш малакаси билан тавсифланади.

Тасаввурларнинг билишдаги ўрни ҳиссийликдан фикрлашга ўтишда боғловчи занжир бўғини эканлигидадир. Талабалар онгида шакллантирилган геометрик объектлар ҳақидаги маълумотлар тушунчалар сифатида идрок этилиб билим, кўникма, малака ва тажрибага айланиб боради.

Тасаввур билишнинг муҳим элементи сифатида нарса ва ҳодисалар образини улар ҳақидаги тушунчаларнинг мазмун моҳияти билан боғлашга хизмат қилади [4]. Тасаввурларнинг шаклланиши тушунчаларни эгаллашни талаб қилади, чунки тушунчалар образнинг моҳиятини белгилаб беради. Айтиш мумкинки, геометрик объектлар ҳақидаги фазовий тасаввурларни шакллантириш жараёни улар ҳақидаги тушунчалар ва билимлар асосида кечади.

Юқоридаги фикрларга асосланиб, шундай хулоса чиқариш мумкин: Фазовий тафаккур - мавжуд борлиқни (ҳодиса, воқеълик ва объектларнинг) онгимизда шаклланган мавҳум тизимли субъектив образларидир, яъни мавжуд борлиқни онгимиздаги мавҳум билимлар тўпламидир. У ўқувчи-талабаларни фазовий тасаввур қилиш ва мантикий фикрлаш қобилиятларида намоён бўлади.

Таянч иборалар

Тафаккур, борлиқ, мавжуд, мавҳум, анализ, синтез, мантик, қобилият, онг, идрок, объект, фазовий тасаввур, фазовий тафаккур.

Таянч иборалар

Мышления, вселенная, реалистичный, абстрактный, анализ, синтез, логический, способность сознание, рассудок, объект, пространственное мышление.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Адиллов П, Ташимов Н., Хошимова Х. Чизма геометрияда мураккаб ва қийин масалаларни бериш талабаларда фазовий тафаккурни ошириш воситаси сифатида. - Т., Педагогик таълим, 2005/3. -Б. 94-97
2. Холимов М. Фазовий тасаввурлаш ва мантикий фикрлаш қобилиятни ўстиришнинг тезкор усули. -Т.: Низомий номидаги ТДПУ, Республика ИАК материаллари, 2005 й, - Б. 120-122.
3. Якиманская И.С. Развитие пространственного мышления школьников. –М.: Просвещение, 1980. – 239 с.
5. Хошимова Х.М. “Талабалар фазовий тасаввурини шакллантиришнинг педагогик асослари” магистрлик диссертацияси. -Т., 2009 й.

SECTION: PHILOLOGY AND LINGUISTICS

Dusmetova Maksuda Matnazarovna
Senior teacher,
Dusmetova Saodatjon Murodovna
Masters Student
UrSU
(Urgench, Uzbekistan)

TYPES OF APPROACHES TO STUDYING PRAGMALINGUISTICS

Annotation. *The article deals with the types of approaches to studying methods of pragmalinguistics and its association with the subcategories of linguistics.*

Keywords: *pragmatics, approaches, researches, association.*

Аннотация. *В статье рассматриваются типы подходов к изучению методов прагмалингвистики и их связь с подкатегориями лингвистики.*

Ключевые слова: *прагматика, методы, исследования, ассоциация.*

Introduction. "Pragmalinguistics" or the occupation with pragmatic aspects of language can be important where computational linguists or artificial intelligence researchers are concerned with natural language interfaces to computers, with modelling dialogue behavior, or the like.. What speakers intend with their utterances, how hearers react to what they hear, and what they take the words to mean will all play a role of increasing importance when natural language systems have matured enough to cope readily with syntax and semantics. Asking a *sensible* question to a user or giving him a *reasonable* response often enough depends not only on the "pure" meaning of some previous utterances but also on attitudes, expectations, and intentions that the user may have. These are partly conveyed in the user's utterances and have to be taken into account, if a system is to do more than just give factual answers to factual requests.

Thus someone who wants to construct a natural language system might look at Mey's book *Pragmalinguistics* with some expectations as to what he should consider or what guidelines he should follow, or maybe just to find out what the current state of the art in pragmatics is. However, he will find little of that in this book. *Pragmalinguistics* is a collection of articles dealing with many different things—some of the articles could instead of being called *pragmatic* or *prag- malinguistic* be labelled *sociolinguistic*. Most authors that have contributed to this volume are located in Scandinavia, and thus maybe it gives a good impression of the concerns of North European linguists.

One of the most dynamically developing directions in modern linguistics is pragmalinguistics. The researchers interpret various aspects of pragmatic linguistics. According to Y.D. Apresyan, the pragmatics is speaker's (1) true nature; 2) the content of the

communication; 3) written convention of the addressee in any language unit (lexema, affix, grammatical syntax). In general, the definitions of linguistic pragmatics in scientific literature can be grouped as follows: 1) explanations that overpass human factor; 2) the definitions of the functional aspect of linguopragmatic researches, their contextual condition: “science of language use”, “language in context”; 3) definitions that focus on studying the effectiveness of language interaction in the context of communicative interaction; 4) definitions that distinguish an interpretive aspect of the speech that is reflected in any communicative context. The interpretation here is pragmatic meaning of the word [1, 78].

²⁶ А.Я. Варга. Структура и типы родительского отношения: Дис.... канд. психол.наук: 19.00.01:М., 1986. – 206 с

²⁷ Е.Р. Баенская. Помощ в воспитании детей с особым эмоциональным развитием – М.: Теревинф, 2007. - 112 с.

Ҳар бир ота-она шуни яхши тушунишлари керакки, аутизм синдромли болалар билан ишлаш узоқ ва тизимли ёндашувни талаб қилади. Чунки ҳар қандай индивидуал ўйинларга ҳам бола қизиқиш билдирмаслиги, ўйиндан бош тортиши мумкин. Шу сабабдан аутик бола билан ўтказиладиган ўйинларни уларни имконият ва зарурият нуқтаи назаридан танлаш керак. Бола ҳар қандай ўйинда ўзининг манфаатларини кўра олишлари керак. Ўтказиладиган ўйин дастурларида бир неча ўйинлар мавжуд бўлиши ва боланинг манфаатлари ўзгарганда қўллаш учун қулай бўлиши керак. Аутизм бола учун энг қийин мулоқат бу жамоавий мулоқатдир. Шуни учун болалар бундай жараёнда қийинчиликка дуч келишади. Эрта ёшдаги аутик болада ёзиш ва ўқишни ўрганиш жараёни мураккаб ва узоқ муддатни талаб қилади. Оғзаки тасвирларни расми ва визуал тасвирлар билан қўллаш болани тарбиялашни осонлаштиради. Шунинг учун ота-она ўз амалиётларида доимий шу усулларни қўллаши керак.

Демак, фарзандида аутизм синдроми аниқланган ота-она дастлаб шу масалага оид назарий билимларни ўрганиши, болага бўлган ўз муносабатини мослаштириши, фарзандидаги ҳолатни қабул қилиши, ва боласини ижтимоий муҳитга адаптациясини, тенгқурлари билан мулоқотини таъминлашга ҳам психологик ҳам педагогик жихатдан тайёр бўлишлари керак.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Г.М. Андреева. Социальная психология; Учеб, для высшей школы. - М: Аспект Пресс, 1999. - 370 с
2. Е.Р. Баенская. Помощь в воспитании детей с особым эмоциональным развитием – М.: Теревинф, 2007. – 112 с.
3. В.М. Башина. Аутизм в детстве.- М.: Медицина, 1999.- 236 с
4. А.Я. Варга. Структура и типы родительского отношения: Дис.... канд. психол.наук: 19.00.01:М., 1986.-206с

Конурова Лейла Руслановна
Преподаватель Гулистанского Государственного Университета
(Гулистан, Узбекистан)

ПРИМЕНЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ ТЕРАПИИ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В статье рассматриваются особенности музыкальной терапии, как одного из методов рецептивного, активного и интегративного музыкального воспитания. В процессе своей работы учитель музыки использует методику активной музыкальной терапии: игра на различных музыкальных инструментах и пение. Сделан вывод о эффективности музыкальной терапии в рамках физического и психологического состояния детей.

Ключевые слова: музыка, музыкальная терапия, сопровождение, релаксация, эмоциональное состояние, влияние музыки.

Abstract. The article examines the features of music therapy as one of the methods of receptive, active and integrative music education. In the course of his work, a music teacher uses the method of active music therapy: playing various musical instruments and singing. The conclusion is made about the effectiveness of music therapy in the framework of the physical and psychological state of children.

Key words: music, music therapy, accompaniment, relaxation, emotional state, influence of music.

Влияние музыки в развитии творческих способностей детей играет большую роль в формировании сознания подрастающего поколения, его художественной и эстетической культуры, мобилизует его духовные силы и нравственность.

Музыка воздействует на развитие ребенка, побуждает к нравственно-эстетическим переживаниям, ведёт к преобразованию окружающего, к активному мышлению.

В становлении личности ребенка, в развитии его творческих способностей неопределима роль музыкальной терапии, при помощи которой ребенок воспринимает окружающий его мир и формируется как творчески мыслящая личность.

Музыка способна влиять на душу ребенка, на его чувственные и нравственно-духовные переживания, преобразовывать окружающий мир, вести к активному мышлению, приобщать к духовному опыту человечества и выполнять важную социальную и воспитательную функцию. В музыке заложены широчайшие возможности общения. Действенной формой оздоровления является релаксация, которая необходима и эффективна на музыкальных занятиях, она помогает восстановить дыхание, снизить утомление, подготовить ребенка к дальнейшему восприятию музыкального материала. Слушая музыку природы: звон ручейка, пение птиц, завывание ветра, стрекотание кузнечиков, шелест листвы и ветра, ребёнок расслабляется, получает удовольствие, отвлекается от посторонних мыслей и успокаивается.

Музыкальная терапия – это вид терапии, который помогает укрепить психическое, физическое и социальное здоровье детей в дошкольном учреждении. Слушание правильно подобранной музыки повышает настроение детей, снимает напряжение и раздражительность, головную и мышечную боль, восстанавливает спокойное дыхание. Утром встречают детей, укладывают спать, поднимают после дневного сна под соответствующую музыку, используют ее в качестве фона для занятий, свободной деятельности. Музыкальные занятия с использованием технологий эффективны при учете возрастных особенностей каждого ребенка, его интересов. Успех занятий невозможен без совместной деятельности музыкального руководителя и воспитателя.

Исследование С.В. Шушарджана свидетельствует, что музыка может способствовать более быстрому излечению от многих болезней. Очень важно прививать детям интерес и любовь к музыке как важной составляющей здорового образа жизни. Одна из возможностей, которая может быть использована для достижения этой цели – общение с детьми в музыкальных кружках.

К числу более поздних исследователей, внесших значительный вклад в изучение музыкальной терапии, можно назвать В. Петрушина, который в своих многочисленных работах эмпирическим путем доказал влияние музыки на психологическое здоровье и интеллектуальное развитие детей.

Процесс творческого развития дошкольников будет более эффективным, если в процессе деятельности будут использованы возможности творческих занятий, проводимых в форме комплексных музыкальных упражнений.

Во время комплексных занятий повышается активность детей, т.к. поставленные учителем музыки задачи предполагают свободу выбора слова и действий в ее реализации. Творческие занятия помогают раскрыть стеснительных детей, дают возможность детям почувствовать себя сопричастными ко всему, что происходит во время проводимых музыкальных действий, свободно выражают свои эмоции, радуются результатам коллективного труда.

Такие комплексные занятия способствуют воспитанию духовно-нравственных и эстетических чувств, дети способны выражать себя и ориентироваться в окружающем мире.

Диагностика музыкальной терапии предполагала выявление уровня развития творческих способностей в музыкально-ритмическом движении, в композиционном творчестве, импровизации, в пении, в игре на детских музыкальных инструментах.

На основе музыкальной терапии диагностическое исследование позволило предложить программу комплексных музыкальных занятий для дошкольников экспериментальной группы и разработать методические рекомендации для воспитателей.

Программа комплексных музыкальных занятий по развитию интереса к классической музыке у дошкольников включала в себя занятия, построенные на музыкальном материале произведений композиторов-классиков (П.И. Чайковский, М. И. Глинка, С.С. Прокофьев и т.д.).

К занятиям предполагались задания на творческую продуктивную деятельность: задания на своеобразное исполнение танцевальных движений; викторины; чтение поэтических отрывков; иллюстрирующих произведение и т.п.

Наиболее результативными методами организации ориентировки детей в этом репертуаре были: организация восприятия целостного музыкального произведения; вербальный анализ средств музыкальной выразительности.

Вид музыкальной деятельности как пение, музыкальное движение, было направлено на развитие музыкального восприятия в целом, так и рассматривалось нами как эффективный метод организации ориентировки детей на важнейшие компоненты музыки - мелодию и интонацию.

Результаты исследования показывают, что развитие детей в музыкальной деятельности посредством музыкальной терапии, включая дидактические пособия и игры, сочетающие в себя все обучающие, развивающие и воспитательные функции, направленные не только на развитие музыкальных способностей, но и обогащающие опыт ребенка, способствуют формированию музыкальных способностей детей.

Таким образом, было доказано что музыкальная терапия является научно признанным эффективным методом, основывающимся на использовании музыки как средства оказания лечебного, релаксирующего, стимулирующего эффекта.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Ветлугина Н.А. Музыкальное развитие ребенка. – М.: Просвещение, 1996. – 376 с.
2. Шушарджан С.В. (2005б) Современные методы музыкальной терапии и эффекты, возникающие при воздействии музыкой и различными акустическими сигналами на организм человека. Традиционная медицина, 2(7): 23–29.
3. Петрушин В.И. Музыкальная психотерапия: Теория и практика. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 1999. 176 с.
4. Введение в музыкотерапию / Под ред. Г.Г. ДекеррФойгт. – СПб: Питер, 2003.

**Усмонова Мухтасар Акбаровна
Фаргона политехника институти
(Фаргона, Узбекистан)**

ИЖТИМОЙ УСТАНОВКАНИНГ ШАХС ИЖТИМОЙЛАШУВИГА ТАЪСИРИ

Аннотация. Ушбу мақолада шахс ижтимоийлашуви, шахсга таъсир этувчи омиллар, қадриятлари инсон ижтимоий ҳаёти ва фаолиятига муҳим ўрин эгаллаши, ижтимоий установка тушунчаси илмий асосда таҳлил қилинган.

Таянч сўзлар: Шахс, хулқ-атвор, қадриятлар, ижтимоий установка, психика, психик ҳолатлар, аффект ва эффект, фаолият.

Усмонова Мухтасар Акбаровна
(Фаргона, Узбекистан)

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНОГО ИНСТИТУТА НА СОЦИАЛИЗАЦИЮ ЛИЧНОСТИ.

Аннотация. В статье на научной основе анализируется социализация личности, факторы, влияющие на личность, важная роль ценностей в социальной жизни и деятельности человека, концепция социального института.

Ключевые слова: Личность, поведение, ценности, социальная среда, психика, психические состояния, аффект и эффект, активность

Usmonova Mukhtasar Akbarovna
(Fargona, Uzbekistan)

THE INFLUENCE OF SOCIAL INSTITUTION ON THE SOCIALIZATION OF THE INDIVIDUAL

Annotation. This article analyzes the socialization of the individual, the factors affecting the individual, the important role of values in human social life and activity, the concept of social institution on a scientific basis.

Key words: Personality, behavior, values, social environment, psyche, mental states, affect and effect, activity

Ижтимоий ва шахсий тажрибада юзага келган содда психологик маълумотлар илмий психологиягача яратилган психологик билимларни ташкил этади. Улар анча кенг миқёсли бўлиши, маълум даражада теварак-атрофдаги кишиларнинг хулқ-атвориغا қараб иш қилишга ёрдам бериши, бир мунча тўғри бўлиши ва воқеликка мос келиши мумкин. Лекин, бу билимлар системалиқдан, теранлиқдан, исботлилиқдан махрумдир ва шунга кўра ҳам билимлар киши психикаси тўғрисида одамлар билан уларнинг у ёки бу хилда қутилаётган ҳолатлардаги хулқ-атворини тахмин қилиш имконини берадиган ҳамда илмий, яъни объектив ва ишонарли билимларни талаб қиладиган жиддий

(педагогик, даволаш, ташкилий ва бошқа шу каби) иш олиб бориш учун мустахкам негиз бўлиб хизмат қилади.

Ҳозир кунга қадар мамлакатимизда психология фани ҳам кенг тармоқларда ривожлана бошлади. Психология фанининг турли соҳаларида олимларимиз самарали хизмат қила бошладилар. Шунингдек, педагогика психология фанига ҳам бошқа психология фанлари каби эътибор кучайиб бормоқда. Психология аини ўрганиш жараёнида ижтимоий установа ҳақида фикр юритадиган бўлсак, “Ижтимоий установа” нима? Деган ўринли саволга дуч келамиз.

Ижтимоий установакалар. Соф психологик маънода янгича тафаккур ва дунёқарашни шакллантирувчи ва ўзгартирувчи ижтимоий психологик механизм - бу ижтимоий установакалардир. Бу-шахснинг атроф муҳитида содир бўлаётган ижтимоий ходисаларни, объектларни, ижтимоий гуруҳларни маълум тарзда идрок этиш, қабул қилиш ва улар билан муносабатлар ўрнатишга руҳий ички ҳозирлик сифатида одамдаги дунёқарашни ҳам ўзгартиришга алоқадор категориядир. Шу жараёнда индивид ижтимоийлашиб шахсга айланиб боради.

Рус олими В. А. Ядов ўзининг диспозицион концепциясини яратиб, унда установакаларни тўрт босқич ва тўрт тизим сифатида тасаввур қилган.

* элементар установакалар (set) – оддий, элементар эҳтиёжлар асосида кўпинча онгсиз тарзда ҳосил буладиган установакалар. Уларни ўзгартириш учун моддий шарт-шароитларни ва одамдаги эҳтиёжлар тизимини ўзгартириш кифоя.

* ижтимоий установакалар (attitud) – ижтимоий вазиятлар таъсирида ижтимоий объектларга нисбатан шаклланидиган установакалар. Уларни ўзгартириш учун ижтимоий шарт-шароитлар ва шахснинг уларга нисбатан баҳо ва муносабатлари тизимини ўзгартириш керак.

* базавий ижтимоий установакалар – улар шахснинг умумий йўналишини белгилайди ва уларни ўзгартириш эътиқодлар ва дунёқарашларни ўзгартириш демакдир.

* Қадриятлар тизими – улар авлодлараро мулоқот жараёнининг маҳсули сифатида жамиятда қадр-қиммат топган нарсаларга нисбатан установака. Масалан, саҳиҳ ҳадислар шундай қадриятлардир, биз уларни танқидсиз, муҳокамаларсиз қабул қиламиз, чунки улар ҳам илоҳий, ҳам энг буюк инсонлар томондан яратилган ва авлоддан авлодга ўз қадрини йўқотмай келаётган қадриятлардир.

Ижтимоий установаканинг биринчи фарқи белгиси шундан иборатки, у фаоллик манбаи бўлган эҳтиёж сифатида юзага чиққан холда фаолликни йўналтирувчиси бўлган англанилган мақсад, яъни мотив билан бошқарилади. Установака “созланиш” муваффақиятли бўлиши учун психика нарсаларнинг хусусий объектив хоссаларини акс эттириши ва улар билан олдига қўйилган мақсадга эришиш усулларини ҳам белгилаб бериши лозим. Установака жараёни кишининг хулқ атворида мақсадга қаратилган ҳаракатларни рўёбга чиқариш, хусусан олганда эса юзага келган эҳтиёжларни, ўзи зудлик билан қондира олмайдиган, яъни бевосита мададга таянмайдиган фаолликни рағбатлантириш ва қўллаб - қувватлаш имконини берадиган даражада бошқаришга қодир бўлиши керак. Бундан кўриниб турибдики, инсон ўз-ўзини ҳар қандай фаолиятга

мослаши, билим ва ирода билан чамбарчас боғлиқ, билиш ва иродавий жараёнларсиз юз бериши мумкин эмас.

Демак, установка кишининг англанилган мақсад билан бошқариб туриладиган ички ва ташқи фаоллигидир.

Шундай қилиб, ижтимоий установка ҳақида гапириш мумкин бўлиши учун киши фаоллигида англанилган мақсаднинг мавжудлигини аниқлаш зарур. Ижтимоий установканинг қолган жиҳатлари - унинг мотивлари, бажарилиш усуллари тегишли ахборотни танлаш ва қайта ишлаш англанилган бўлиши ҳам, англанилмаган ҳам бўлади. Бундан ташқари, мотивлар чала ярим тарзда англанилган ва хатто нотўғри англанилган ҳолатлари ҳам учрайди.

Фақат мотивлар эмас, балки фаолиятнинг у ёки бу режаларини танлашга олиб келган кўпгина фикрлаш жараёнлари ҳам киши томонидан тўла - тўққис англанилган бўлавермайди. Ижтимоий установка амалга ошириш усуллари келганда шуни айтиш керакки, уларнинг кўпчилиги одатда онгдан ташқари ҳолда йўналтирилади. Бунга одатлашиб қолинган ҳар қандай ҳаракат: юриш, сўзлаш, хат ёзиш, автомобилни бошқариш ва шу кабиларни мисол қилиб кўрсатишимиз мумкин.

Установканинг ана шу барча жиҳатлари онгда акс этиш даражаси ва тўлақонлилиги тегишли фаолиятнинг англанилганлиги даражасини белгилайди.

Фаолиятнинг англанилганлиги даражаси қандай бўлишидан катъий назар, мақсадни англаш ҳамisha унинг муқаррар белгиси бўлиб қолаверади. Ушбу белги бўлмаган ҳолларда киши тушунчасидаги фаолият ҳам бўлмайди, балки импульсив (беихтиёр) хатти ҳаракат юз беради. Фаолиятдан фарқли улароқ, импульсив хатти-ҳаракат бевосита эҳтиёжлар ва ҳиссиёт билан идора қилинади. У индивиднинг қаттиқ хаяжонга тушиши (аффекти)ни ва майилинигина ифода этади ва шунинг учун ҳам кўпинча эгоистик ва жамиятга зид характерга эга бўлади.

Шахс ижтимоий установка жараёнида ўз ички хусусиятларини ишга солиб ва намоён қилиб, нарсаларга нисбатан субъект сифатида, одамларга нисбатан эса шахс сифатида гавдаланади. Ўз навбатида уларнинг жавобий таассуротини хис қилган ҳолда, у шу йўл билан одамларнинг, нарсаларнинг, табиат ва жамиятнинг ҳақиқий, объектив, муҳим хусусиятларини билиб олади. Унинг қаршисида нарсалар объектлар сифатида, одамлар эса шахс сифатида гавдаланади.

Масалан, тошнинг оғирлигини билиши учун уни қўтариб кўрмоқ, парашютнинг чидамлилигини аниқлаш учун эса ундан самолётдан сакраб кўрмоқ керак. Киши тошни қўтариб ва парашютда тушаётиб, фаолият орқали уларнинг реал хусуситларини билиб олади. У ана шу реал ҳаракатларни тимсолий ҳаракатлар билан алмаштириши, яъни «тош оғир» деб айтиши ёки парашютда тушиш тезлиги ва траекториясини тегишли формула бўйича ҳисоблаб чиқиши мумкин. Шу жараёнда инсонни установка бўлиш даражаси белгиланади. Амалиёт кишининг нимани билиши ва нимани билмаслиги, унинг оламда нимани кўраётган ва нимани кўрмаётганини, нимани танлаб олаётгани ва нимани рад этаётганини белгилайди ва кўрсатади. Бошқача сўз билан айтганда, у киши психикасининг мазмунини ва унинг механизмларини белгилаб беради, ва шу билан баробар ўз ҳолатини намоён қилади. Киши фаолияти жуда мураккаб ва ўзига хос жараёндир. Ана ўша мураккаб жараёнда инсон установка бўлиши керак бўлади.

Ижтимоий установка шунчаки эҳтиёжларни қондиришдангина иборат бўлиб қолмасдан, балки кўпроқ даражада жамиятнинг мақсадлари ва талаблари билан белгиланади. Мақсаднинг англанилганлиги ва унга эришиш юзасидан ижтимоий ҳаракатлар тажрибаси билан боғлиқ эканлиги киши фаолиятининг ўзига хос белгисидир. Киши фаолиятининг ташқи ва ички жиҳатлари чамбарчас боғлиқдир. Ташқи жиҳат - одам ташқи оламга таъсир кўрсатиш учун қиладиган сайхи-ҳаракатлар, яъни мотивлаштирувчи, билишга ундовчи ва бошқарувчи ички фаолият билан белгиланади ва йўналтирилади. Иккинчи томондан, бутун ана шу ички, психик фаолият буюмлар ва жараёнларнинг хусусиятларини ўзида намоён қиладиган, уларнинг мақсадга мувофиқ тарзда қайта ўзлаштирилишини амалга оширадиган, психик андозаларнинг ўхшашлик даражасини, шунингдек эришилган натижалар ва ҳаракатларнинг кутилганларига мувофиқлиги даражасини кўрсатадиган ташқи жиҳат томонидан йўналтирилиб ва назорат қилиниб турилади. Ҳар қандай ҳаракатнинг таҳлил этилган жиҳатларини тегишли тарзда унинг мотор (ҳаракат), сенсор (ҳиссий) ва марказий қисмлари деб аташ мумкин. Шунга мувофиқ ушбу қисмларнинг ҳаракатни амалга ошириш жараёнида бажарадиган вазифаларни ижро этиш, назорат қилиш ва бошқариб туришдан иборат бўлади. Киши фаолият жараёнида ижтимоий установкадан фойдаланиши, ҳаракатларни ижро этишда, назорат қилиш ва бошқариб туришда фойдаланадиган йўл-йўриқлар ушбу фаолиятнинг усуллари деб аталади.

Айтиб ўтилган вазифаларнинг ҳар бирини киши англанилган тарзда ҳам ва англанилмаган тарзда ҳам амалга ошириши мумкин. Масалан, сўзни талаффуз этиш учун зарур бўлганда хиқилдоқ ҳаракатлари системаси киши томонидан мутлақо англанилмаган ҳолда ишлайди. Лекин киши айтмоқчи бўлаётган иборанинг грамматик шакллари ва мазмуни ҳаминиша онгда олдиндан аён бўлади. Бироқ одатда, ҳаракатларнинг пировад мақсадлари шунингдек уларнинг умумий характери ҳаминиша англанилган бўлади. Масалан, киши велосипедда мутлақо онгсиз ҳолатида юриши мумкин эмас. У қаёққа бораётганини, қайси йўл билан ва қандай тезлик билан бораётгани ва шу кабиларни умуман тасаввур қилиши керак. Бу ҳар қандай меҳнат, ўйин ва бошқа хил ҳаракат жараёнларига тааллуқлидир. Ва ниҳоят айрим сайи-ҳаракатлар онгли тарзда йўналтирилган ҳолда ҳам, англанилмаган ҳолда ҳам бажарилади.

Шундай қилиб, ҳаракатлар ўзлаштирила борган сари унинг натижаларини ва бажарилиш шароитларини янада аниқроқ ва тезроқ бевосита сифатли назорат қилиш учун имкониятлар туғилади.

SECTION: SCIENCE OF LAW

Алимов Нодир Юнусович
Камолиддин Бехзод номидаги
Миллий рассомлик ва дизайн институти доценти
(Тошкент, Ўзбекистон)

МУАЛЛИФЛИК ҲУҚУҚИ СОҲАСИДАГИ
ҚОНУНЧИЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИ

Аннотация. Мақолада муаллифлик ҳуқуқи соҳаси давр талаби билан ҳамнафас равишда такомиллашиб бораётганлиги, жумладан, жаҳон тарихида муаллифлик ҳуқуқига доир қабул қилинган дастлабки қонунлар таҳлил қилинган: Англия, АҚШ, Франция, Пруссия, Дания, Испания, Россияда қабул қилинган қонунлар ҳақида маълумот берилган; мустақиллик йилларида муаллифлар ва ҳуқуқ эгаларининг ҳуқуқларини муҳофаза қилишга доир норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар такомиллашуви ҳақида маълумотлар берилган.

Мақолада муаллифлик ҳуқуқи қонунчилиги тараққиёти тарихи ўрганилиб, қиёсий таҳлил қилиниб, соҳа қонунчилигининг ислоҳ қилиниши ҳақида; шунингдек, халқаро тажриба норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар такомиллашувига хизмат қилиши ҳақида фикр билдирилган.

Калит сўзлар: интеллектуал мулк, муаллифлик ҳуқуқи, муаллиф, ҳуқуқ эгаси, ижод қилиш, интеллектуал мулк объектларининг реестри, Интеллектуал мулк агентлиги.

Алимов Нодир Юнусович
Доцент Национального института художеств и дизайна
имени Камолиддина Бехзода
(Ташкент, Ўзбекистан)

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В СФЕРЕ АВТОРСКОГО ПРАВА

Аннотация. В данной статье рассматриваются первые законы, принятые в мировой истории в сфере авторского права: приводятся сведения о законах, принятых в Англии, США, Франции, Пруссии, Дании, Испании, России; перечисляются нормативно-правовые документы по защите прав авторов и правообладателей, принятые за годы независимости.

В статье посредством изучения истории развития законодательства об авторском праве и путём сравнительного анализа высказываются мнения о реформировании законодательства данной сферы, а также делается вывод о том, что международный опыт послужит совершенствованию нормативно-правовых актов.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, авторское право, автор, правообладатель, создание, реестр объектов интеллектуальной собственности, агентство интеллектуальной собственности.

Alimov Nodir Yunusovich
Associate Professor of The National institute of fine arts and design
named after Kamoliddin Behzod
(Tashkent, Uzbekistan)

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF LEGISLATION IN THE FIELD OF COPYRIGHT

Abstract. In this article are discussed the first laws adopted in the world history in the field of copyright, provides information about the laws adopted in England, the United States, France, Prussia, Denmark, Spain, and Russia; and also listed below the legal documents on the protection of the rights of authors and copyright holders adopted during the years of independence.

In the article, through the study of the history of the development of copyright legislation and through a comparative analysis are expressed on the reform of legislation in this area, it is also concluded that the international experience will serve to improve the regulatory legal acts.

Keywords: intellectual property, copyright, author, copyright holder, creation, register of intellectual property objects, intellectual property agency

1. Долзарблиги:

2017 йил 7 феврал куни Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони қабул қилиниб, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тасдиқланди. Унда Қонун устуворлигини таъминлаш ва суд-ҳуқуқ тизимини янада ислоҳ қилиш йўналишида фуқаролик қонунчилигини такомиллаштириш ва самарасини ошириш мақсади қўйилган.

Барча жабҳаларда содир бўлаётганлиги сингари интеллектуал мулк ҳуқуқи соҳасида, жумладан муаллифлик ҳуқуқида ҳам давр талаби билан ҳамнафас қонунчилик нормалари такомиллашиб бормоқда.

Муаллифлик ҳуқуқи соҳасида қонунчиликнинг ривожланиши тарихини таҳлил қилиш бугунги кунда ҳам долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

2. Методлар ва ўрганилганлик даражаси:

Мақолада муаллифлик ҳуқуқи қонунчилиги тараққиёти тарихий, қиёсий таҳлил, диалектик методлари асосида ёритилган.

Ушбу мавзу билан бир қатор совет даври олимларидан М.В. Гордон, Е.А. Флейшиц, Н.А. Райгородский, А.М. Гарибян, О.С. Иоффе, М.М. Богуславский, Э.П. Гавриловлар ўрганиб, бир талай маълумотлар тақдим ётганлар. Мустақиллик йилларида миллий олимларимиздан О. Оқюлов, Б. Тошев, И. Насриев,

Г. Абдуллаходжаев, И. Рустамбеков, А. Нуридудлаев, С. Мусаевлар ўз илмий ишларида муаллифлик ҳуқуқи қонунчилигининг такомиллашувига ҳақида маълумот берганлар.

3. Тадқиқот натижалари:

Муаллифлик ҳуқуқига оид муносабатлар инсоният тараққиёти билан бирга қонунлар асосида тартибга солина бошланган. Айтиш мумкинки, қиролича Анна томонидан 1709 йилда Англияда қабул қилинган биринчи қонун муаллифлик ҳуқуқини расман ҳуқуқий жиҳатдан тан олинганини кўрсатади. Қонунга кўра, биринчи марта муаллиф ўз асари нусхасини кўпайтиришда рухсат бериш ҳуқуқини олди ва натижада «Соруригит» (нусха олишга рухсат) термини пайдо бўлади.

1787 йилда АҚШ Конституциясида биринчи марта интеллектуал фаолият натижаларига бағишланган нормалар белгиланган. 1790 йилда эса АҚШ Конгресси “Карталар, чизмалар ва китоблар ҳимояси ҳақида” дастлабки федерал қонунни қабул қилган. Қонунчиликдаги нормалар кейинчалик саҳна асарлари, ашула ва бошқаларга ҳам тадбиқ этила бошланди.

Муаллифлик ҳуқуқига оид дастлабки қонунлар бошқа давлатларда ҳам қабул қилина бошлайди. Жумладан, Франциянинг 1791, 1793 йилларда Декретлар, Пруссиянинг 1794, 1837 йил, Даниянинг 1741 йил, Испаниянинг 1762 йил, Россиянинг 1830 йилдаги муаллифлик ҳуқуқига оид қонунлари ўзининг тарихийлиги билан ажралиб туради.

Англияда 1709 йилда қабул қилинган қонун кейинчалик ривожлантирилиб, 1842 йилда янги “Муаллифлик ҳуқуқи қонуни” қабул қилинади. Ушбу соҳага оид бошқа қонунлар 1911, 1956 йилларда мукамал тарзда қабул қилинган.

Ривожланган мамлакатларда етарли даражада соҳага оид қонунчилик шакллантирилганидан сўнг, муаллифлик ҳуқуқини халқаро миқёсда ҳимоя қилиш мақсадида 1886 йилда биринчи марта Бернда универсал, яъни кўп томонлама шартнома имзоланган.

1886 йил 9 сентябрда Швейцариянинг Берн шаҳрида қабул қилинган мазкур конвенция фан, адабиёт ва санъат асарларини яратиш ва улардан фойдаланиш натижасида келиб чиқадиган муносабатларни тартибга солиш, муаллифлар ҳуқуқларини ҳимоя қилишга қаратилган халқаро ҳуқуқий ҳужжатдир.

Берн конвенцияси аъзо давлатларда тўғридан-тўғри ёки унинг қоидаларини соҳага оид миллий қонунчиликда акс эттириш орқали қўлланилади. Маълумки, 2005 йил 19 апрелдан Адабий ва бадий асарларни муҳофаза қилиш тўғрисидаги Берн конвенцияси қоидалари юртимизда амал қила бошлади. Шу муносабат билан, Ўзбекистон Республикасининг 2006 йил янги тахрирда қабул қилинган “Муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқлар тўғрисида”ги қонунда муаллифлар манфаатлари ўз ифодасини янада тўлиқроқ акс эттирди²⁸; Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 16 январдаги ЎРҚ-79-сонли Қонуни билан Фуқаролик кодексининг 1052 (Муаллифлик ҳуқуқи), 1053 (Муаллифлик номига бўлган ҳуқуқ), 1054 (Асарнинг дахлсизлигига бўлган ҳуқуқ), 1055 (Асарни эълон қилиш ҳуқуқи), Асардан фойдаланиш ҳуқуқини тасарруф этиш), 1064 (Муаллифлик ҳуқуқи амал қилишининг бошланиши) ва турдош ҳуқуқларга оид бўлган 1071, 1072 моддалари чиқариб ташланди; 1056 (Муаллифнинг асардан

²⁸ <http://www.uza.uz/oz/society/intellektual-mulk-doimiy-muhofazada-18-04-2016>

фойдаланиш ҳуқуқи → Муаллифнинг мулкый ҳуқуқлари) ва бошқа бир қатор моддалар ўзгартирилди. Аммо ушбу чиқариб ташланган моддаларнинг мазмуни бошқа моддаларга киритилди, баъзи бир моддалар бойитилди.

2016 йил 20 январ куни “Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодексини тасдиқлаш тўғрисида”ги қонуни кучга кирди. Унга кўра, муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқлари, интеллектуал мулк объектларига бўлган мутлақ ҳуқуқ эгасининг ҳимояси билан боғлиқ бўлган янги тартиб киритилган. Интеллектуал мулк объектларига бўлган ҳуқуқларни ҳимоя қилиш бўйича чоралар қўлланилиши тўғрисида қарор қабул қилинган интеллектуал мулк объектлари Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона кўмитаси томонидан Интеллектуал мулк объектларининг божхона реестрига киритилади.

Божхона кодекси «Интеллектуал мулк объектларига бўлган ҳуқуқларни ҳимоя қилиш» деб номланган янги боб билан тўлдирилди. Унга кўра, божхона органлари ўз ваколатлари доирасида интеллектуал мулк объектларига бўлган ҳуқуқларни ҳимоя қилиш чораларини кўради.

Юқорида айтиб ўтилгандек, Интеллектуал мулк объектларининг божхона реестри юритилади бошланди. Бунда ҳуқуқ эгаси ёки унинг ваколатли вакили Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона кўмитасига реестрга киритиш ҳақида белгиланган тартибда ариза беради. Унга интеллектуал мулк объектига бўлган ҳуқуқларнинг мавжудлиги ва мансублигини тасдиқловчи мавжуд ҳужжатларнинг (патентнинг, гувоҳноманинг, лицензия шартномасининг ёки бошқа ҳужжатларнинг) ҳуқуқ эгаси томонидан тасдиқланган кўчирма нусхалари илова қилинади.

Ҳуқуқ эгаси ёки унинг ваколатли вакили Интеллектуал мулк объектларининг божхона реестрига киритилганидан кейин интеллектуал мулк объектларига бўлган ҳуқуқларнинг ҳимоя қилинишини таъминлаш учун божхона органларига божхона назорати остида турган товарларни чиқариб юборишни тўхтатиб туриш бўйича чоралар кўрилиши учун мурожаат қилиши мумкин.

Божхона органлари ходимлари божхона расмийлаштируви ва божхона назоратини амалга оширишда ҳуқуқ эгаси томонидан контрафакт деб кўрсатилган товарлар аниқланса, ҳуқуқ эгасига ўз ҳуқуқларини ҳимоя қилиш имконини бериш учун бундай товарларнинг чиқарилишини тўхтатиб туради²⁹.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикасида муаллифлар, интеллектуал мулк объектлари ҳуқуқ эгаларининг ҳуқуқларини том маънода ҳимоя қилиш бўйича тизимли ишлар амалга оширила бошланди ҳамда муаллифлик ҳуқуқлари бузилишининг олдини олиш долзарб масалаларидан бирига айланди.

2020 йил 12 октябрь куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев интеллектуал мулк объектлари муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштириш бўйича кенгайтирилган йиғилишда ҳамда 2021 йил 28 январдаги “Интеллектуал мулк объектларини муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4965-сонли қарорида интеллектуал мулк соҳасини ривожлантириш бўйича зарур чора-тадбирлар белгиланиб, соҳа бўйича қонунчиликни такомиллаштириш, интеллектуал мулк соҳасига оид фанларни кадрлар тайёрлаш

²⁹ <http://www.uza.uz/oz/society/intellektual-mulk-doimiy-muhofazada-18-04-2016>

тизимига босқичма-босқич жорий этиш, жамиятда интеллектуал мулкка нисбатан ҳуқуқий маданиятни ошириш ва ҳурмат ҳиссини шакллантириш лозимлиги қайд этилди. Мазкур чора-тадбирларни амалга оширишда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Интеллектуал мулк агентлигига катта вазифалар юкланди. Интеллектуал мулк агентлиги муаллифлик ҳуқуқи соҳасида содир этган ҳуқуқбузарга нисбатан жазо қўллашни эмас, аксинча бу каби ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, оқибатларини тушунтириш ҳамда энг муҳими, муаллифга нисбатан ҳурмат ҳиссини шакллантиришни ўз олдига мақсад қилган.

4. Хулоса:

Хулоса тарикасида шуни айтиш кераки, муаллифлик ҳуқуқи қонунчилиги тараққиёти тарихини ўрганиб, қиёсий таҳлил қилиб, соҳа қонунчилиги ислоҳ қилинади. Ижтимоий-ҳуқуқий муносабатни тартибга солиш учун норма ижодкорлигига таклиф берилади, халқаро ҳуқуқ нормалари миллий қонунчиликка имплементация қилинади. Бунинг натижасида ижтимоий муносабатлар тараққиёти билан ҳамнафас тарзда янги нормалар қабул қилинади.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т. “Адолат” 2014.
2. Тошев Б.Н. Муаллифлик ҳуқуқи. - Т.: Абдулла қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1997.-120.
3. <http://www.uza.uz/oz/society/intellektual-mulk-doimiy-muhofazada-18-04-2016>
4. <https://www.facebook.com/search/top?q=Интеллектуал%20Мулк%20Агентлиги%20Матбуоти>
5. Utanova U. A. et al. Scientifically-Philosophical Analysis Of Cultural And Spiritual Heritage //International Journal on Integrated Education. – 2019. – Т. 2. – №. 1. – С. 53-55.
6. Утанова У. А. Общечеловеческое и национальное в народной культуре //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2014. – №. 38. – С. 91-95.
7. Utanova U. A. FOLK CULTURE IS A SOCIO-HISTORICAL PHENOMENON //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – №. 9. – С. 5-5.
8. Утанова У. «НАРОДНАЯ КУЛЬТУРА»: ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ, СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ //Современные научные исследования: актуальные теории и концепции. – 2016. – С. 183-185.
9. Utanova U. A. et al. Scientifically-Philosophical Analysis Of Cultural And Spiritual Heritage //International Journal on Integrated Education. – 2019. – Т. 2. – №. 1. – С. 53-55.
10. Fayazova F. Methodology Of Vocational Training And Pedagogical Practice As The Main Factors In The Preparation Of A Future Teacher Of Vocational Training //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 27-31.
11. Abdullakhodjaev G. T. Protection Of Moral And Material Rights Of Copyright Subjects //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 73-80.
12. Рашидов Ж. Х. У. СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ КНИЖНОГО ДИЗАЙНА //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 24-1 (102).

13. Алимов Н. Ю. COPYRIGHT PROTECTION THROUGH BLOCKCHAIN //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2019. – №. 5-6. – С. 26-28.
14. Маруфбаев Б. Ш. ЭТНОКУЛЬТУРНОЕ МЫШЛЕНИЕ-КРИТЕРИЙ НАЦИОНАЛЬНО-ДУХОВНОГО РАЗВИТИЯ //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2018. – №. 2-4. – С. 60-64.
15. Sherbekovich M. B. Contemporary Art Is A Factor For Developing Democratic Thinking, Forming A Strong Citizen Position //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – Т. 2. – №. 11. – С. 557-561.
16. Djumaniyazova D. Humanity And Divinity Are The Objects Of Sufi Teachings //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 16-26.
17. Dilfuza D. HUMANITY AND DIVINITY RESEARCHES IN THE ORIENTAL PHILOSOPHY //Theoretical & Applied Science. – 2017. – №. 10. – С. 51-53.
18. Kamalovna J. D. Humanity And Divinity In The Interpretation Of Eastern Philosophy //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – Т. 2. – №. 11. – С. 552-556.
19. Makhmudova M., Jumaniyazova D., Abdullahodjaev G. The Landscape Design of the Art Nouveau Style //SOCIETY. INTEGRATION. EDUCATION. Proceedings of the International Scientific Conference. – 2015. – Т. 2. – С. 391-400.
20. Холдарова Ф. СИЁСИЙ МУЗОКАРАЛАР МУВАФФАҚИЯТИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ //Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти АХБОРОТНОМАСИ илмий-амалий журнали. – 2021. – Т. 5. – №. 01.
21. Ҳасанов Р. ЎРТА АСРЛАР ШАРҚ ОЛАМИ МАЪНАВИЙ ВА МАЪРИФИЙ ФИКР ТАРАҚҚИЁТИДА АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ ТУТГАН ЎРНИ //Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти АХБОРОТНОМАСИ илмий-амалий журнали. – 2021. – Т. 5. – №. 01.
22. Машарипова Г. ЁШЛАРДА ҒОЯВИЙ ИММУНИТЕТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МАЪНАВИЙ ОМИЛЛАРНИНГ ЎРНИ //Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти АХБОРОТНОМАСИ илмий-амалий журнали. – 2021. – Т. 5. – №. 01.
23. Абдуллоҳжаев Г. Т. ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ДУХОВНОСТЬ МОЛОДЁЖИ //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2019. – №. 5-8. – С. 45-47.
24. Alimov N. Y. Architectural project – as an Object of Copyright //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Vol/10-Issue-4. – С. 914-918.

Исмоилов Шахзод Зоир угли
Тошкент давлат юридик университети магистранти
Илмий раҳбар (маслаҳатчи): ТДЮУ Жиноят процессуал ҳуқуқикафедраси
ю.ф.н.Б.Хидоятлов
(Ташкент, Ўзбекистан)

ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА ОЛИБ ҚЎЙИШ ВА ТИНТУВ ЎТҚАЗИШ ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИНГ ДАЛИЛЛАРНИ ТЎПЛАШДАГИ ЎРНИ

Аннотация. *Мазкур мақолада олиб қўйиш ва тинтув тергов ҳаракатининг ривожланиш тарихи, тинтув тергов ҳаракатини ўтқазишнинг турлари, тактикаси, далилларни тўплашдаги аҳамияти ва унинг ўтқазилиш босқичлари назарда тутилган. Шунингдек, почта-телеграф жўнатмаларини ўзига хос хусусиятлари ҳамда хатлаш тартиби, дастлабки тергов жараёнида ўтқазиладиган олиб қўйиш ва тинтув тергов ҳаракатларини хорижий давлатлар тажрибаси билан мамлакатимиз тажрибасининг қиёсий таҳлили ҳамда олиб қўйиш ва тинтув ўтқазиш процессуал тартибининг чет эл тажрибасидаги кўринишлари ёритилган.*

Калит сўзлар: *тергов ҳаракати; олиб қўйиш; тинтув; гуруҳли тинтув; якка тинтув; шахсий тинтув; почта-телеграф жўнатмаларини ёки уларнинг айримларини хатлаб қўйиш.*

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномасида Инсон ҳуқуқ ва эркинликларини кафолатли ҳимоя қилиш, қонун устуворлигини таъминлашга қаратилган ислохотлар кейинги йилда ҳам изчил давом эттирилиши билан биргаликда тезкор-қидирув, тергов ва жазони ижро этиш соҳасида қийноқларнинг олдини олиш тизимини тубдан такомиллаштириш зарурлиги, шунингдек ушбу ҳолатлар ҳали ҳам учраб тургани, фуқароларда жиддий эътирозларни келтириб чиқараётгани ҳамда мамлакатимизнинг халқаро нуфузига салбий таъсир кўрсатаётгани ҳам айти ҳақиқат эканлиги такидлаб ўтилди. Бундан шундай хулосага келишимиз мумкинки, бугунги кунда амалдаги қонунчилигимизда тергов ҳаракатлари билан боғлиқ нормаларни қайта кўриб чиқиб, уларни тубдан ислоҳ қилиш юзасидан илмий изланишларни олиб боришимиз мақсадга мувофиқ.

Олиб қўйиш ва тинтув тергов ҳаракатининг пайдо бўлиши ва ривожланиш тарихи қадимги рус манбаларига бориб тақалади. Киев руси князи Олегнинг 911 йилда греклар билан тузган шартномасига мувофиқ шундай қоида назарда тутилган эди. “Кимда-ким ўғрилиқда гумон қилиб бегона уйга ўзбошимчалик билан кириб очиқ-ойдин зўрлик ва жабр зулм ишлатиб тинтув қилса, ёки бирор бир кишидан қонун номи билан бирор бир ашёни тортиб олса, рус қонунларига мувофиқ, олган нарсасини уч баравар қилиб қайтаради ёки етказилган зарарни шунча миқдорда қоплайди [2].”

Қадимги рус подшолигининг 1555 йилдаги низомлар тўпламига эътибор қаратадиган бўлсак, мазкур тўпламида биринчи марта тинтув атамаси қўлланилган. 1649 йилдаги Собор низомида эса “ялпи тинтув” атамаси ишлатилган. Ўша пайтда бу атама

остида “аҳолини ёки маълум бир шахсни халқ орасида тарқалган миш-мишларга аниқлик киритиш мақсадида шунингдек, судланувчининг характери ва унинг шубҳадан холи эканлигини тасдиқловчи зарурий маълумотларни олиш мақсадида сўроқ қилиш тусунчаси ётган.

1488 йилда чоп этилган Белозеро ёрлиғи низомида тинтув давомида топилган ашёларнинг далил сифатида қабул қилиниши учун қуйидаги шартлар белгиланган:

– агар даъвогар нозир иштирокида гумон қилинувчининг уйидаги сандиқдан ёки қўрғондан топилган нарса ашёвий далил ҳисобланади.

– агар нарса ҳовлида топилса ашёвий далил сифатида қабул қилинмайди.

Чор Россиясининг 1864 йилги жиноят ишларни юритиш тўғрисидаги низомда тинтув тергов ҳаракати бўйича аниқ ва қатъий изоҳлар берилган. Низом тинтув тергов ҳаракатини ўтказиш учун қуйидаги аниқ асослар кўзда тутуди: уйда ёки бошқа турар жойда олиб қўйиш ва тинтув тергов ҳаракати агарда, бу жойларда айбланувчи ёки жиноят қуроли ёхуд ишни очиш учун зарурий бўлган ашёвий далиллар яшириб қўйилган деган асосли гумонлар бўлган тақдирда ўтказилади. Низомга мувофиқ, тинтув ўзаро келиштирувчи судьялар, терговчилар, маҳаллий полиция амалдорлари томонидан ўтказилиши белгиланган. Низомда тинтув тергов ҳаракати қандайдир олдиндан тахмин қилиб бўлмайдиган ҳолатлар сабабли келиштирувчи судья ёки терговчи томонидан ўтказилишини иложи бўлмаса ва шунингдек, кечиктирилишининг иложи бўлмаса ҳам полиция амалдорлари томонидан ўтказилиши белгиланган [3].

Низомнинг 258-моддасига асосан қачонки полиция ходимлари содир қилинаётган ёки содир қилинган жиноий қилмиш устидан чиқиб қолсалар ва бу ҳолатда ҳодиса содир бўлган жойга суд терговчисининг етиб келгунича излар йўқолиб кетиш эҳтимоли бўлса, полиция вазиятга қараб барча кечиктириб бўлмайдиган тергов ҳаракатларини (кўздан кечириш, гувоҳлантириш, олиб қўйиш ва тинтув) ўтказишга ҳақли эканлиги назарда тутилган. Тинтув икки кишидан кам бўлмаган миқдорда ва ҳолис иштирокида ўтказилади. Олиб қўйиш ва тинтув тергов ҳаракатида ҳолислардан ташқари уй эгаси ёки унинг хотини ёки оиланинг ёши катта аъзоларидан бири таклиф этилади. Олиб қўйиш ва тинтув тергов ҳаракати асосан кундузги вақтда ўтказилган. Зарурий ҳолларда олиб қўйиш ва тинтув тергов ҳаракати тунги пайтда ўтказиш мумкин бўлган [4].

Тинтув – шахсни, хоналарни, тинтув қилинаётган шахс ва унинг оила аъзолари ёки ташкилот ихтиёрида бўлган хона ва турар жойларни, очиқ жойларни мажбурий текширишдан иборат.

Тинтув ўтказишнинг мақсади (тор маънода) – жиноятдан қолган қуроллар, предметлар, жиноят йўли билан топилган қимматбаҳо нарсалар, иш бўйича аҳамиятга эга бошқа предмет ва ҳужжатлар, жиноят йўли билан топилган қимматбаҳо нарсалар, иш бўйича аҳамиятга эга бошқа предмет ва ҳужжатлар, шунингдек қидирувда бўлган шахслар, мурда ёки унинг қисмларини, гаровга олинган ва олиб қочилган шахсни топишдан иборатдир.

Тинтувнинг мақсади (кенг маънода) 1) иш юзасидан ашёвий далил аҳамиятига эга бўлиши мумкин бўлган нарса ва ҳужжатларни топиш ва олиб қўйиш; 2) жиноят содир этганликда гумон қилинувчи ва айбланувчи шахсларни топиш ва ушлаш; 3) беркитилган мурда ёки унинг бўлақларини топиш ва уларни топилган жойдан олиб қўйиш; 4) жиноий

йўл билан орттирилган ёки хатланиши лозим бўлган мол-мулк ва қимматбаҳо нарсаларни топиш ва олиб қўйиш, жиноят туфайли етказилган зарарнинг қопланишини таъминлаш [5].

Тинтиладиган объектлар миқдори бўйича тинтув тергов ҳаракати 2 турга бўлинади.

1. Якка
2. Гуруҳли

Гуруҳли тинтув ўз ичига бир пайтда битта жиноят иши бўйича бир ёки бир нечта объектни тинтишни олади. Гуруҳли тинтувнинг аралаш тинтувдан асосий фарқи шундаки, у худудий жиҳатдан бир-бирига боғлиқ бўлмаган бир нечта объектларда ўтказилади.

Кетма-кетлигига кўра тинтув тергов ҳаракати дастлабки ва такрорийлигига кўра тавсифланади. Шуни таъкидлаш лозимки, такрорий тинтув фақатгина олдин маълум бўлмаган юритилаётган жиноят иши учун янги бўлган далил олиш имконияти бўлганда ўтказилади. Айрим илмий-методик қўлланмаларда такрорий тинтувни тактик усул сифатида ўтказиш ҳақида тавсиялар баён этилган. Унга кўра, дастлабки тинтув ўтказилаётганда диққатни жамлаб, ўта синчковлик билан хушёрликни ишга солиб тинтилаётган объектни кўздан кечириш мақбул вариант ҳисобланади. Фақат шундагина терговчи ёхуд суриштирувчи жиноят иши учун аҳамиятли бўлган яширилган предметни топиши мумкин бўлади. Бироқ бундай такрорий тинтувларни ўтказиш фақатгина тегишли шахсларда жиноятни аниқлаш учун етарлича маълумотлар бўлгандагина ўтказилиши лозим.

Тинтув тергов ҳаракати босқичлари 3 қисмдан иборат.

1. Тайёрлов қисми
2. Қидирув қисми
3. Хулоса қисми

Тайёрлов қисми ҳақида гапирадиган бўлсак, унинг ўзи 2та стадиядан иборатлиги кўзга ташланади. Тинтув тергов ҳаракати ўтказилиши керак бўлган манзилга келгунча бўлган жараён ва унга етиб келгандан сўнг қилинадиган ишлар. Тайёрлов қисми мавжуд вазиятни баҳолаган ҳолда тинтув ўтказилиши учун асосларнинг етарли эканлигини аниқлашдан бошланади. Турли хил вазиятларда тергов қидирилаётган объект ҳақида бир-биридан ҳажми, аниқлик ва ишонарлилик даражаси бўйича фарқ қиладиган маълумотларга эга бўлади. Бу бирор бир қурилмага (масалан транспорт воситаси) эгалик қилиш, ундан фойдаланиш ёки рўйхатга олинганлигини тасдиқловчи ҳужжат бўлиши, ёхуд гувоҳларнинг кўрсатмалари (улар қидирилаётган объектни аниқ бир шахсда кўрганликларини тасдиқлашлари ёки бўлмаса у ҳақида бошқалардан эшитган бўлишлари мумкинлиги) бўлиб ҳисобланиши мумкин. Тинтув тергов амалиётида анча кенг тарқалгани ҳолатлардан бири терговнинг жиноятга алоқадор шахс ҳақида маълумотга эга бўлиши ва терговчи ёки суриштирувчининг қидирилаётган предмет айнан унда эканлиги ҳақидаги асосли тахмини ҳисобланади. Тинтув ўтказилиши учун фақат асосли тахминлар эмас балки тезкор-қидирув фаолияти давомида олинган маълумотлар ҳам асос бўлиши мумкин. Бундай ҳолатларда маълумотлар фактик ҳисобланади.

Олиб қўйиш тинтувга жуда ҳам ўхшаш ҳисобланиб, худди тинтув сингари бу тергов ҳаракати ҳам фуқародан, шунингдек, турли хил корхона, муассаса ва ташкилотлардан жиноий ишга аҳамияти бўлган ҳужжат ва предметларни олишга қаратилган бўлади.

Почта телеграф жўнатмаларини олиб қўйишда гумон қилинувчининг, айбланувчининг, судланувчининг бошқа шахсларга юборган ёхуд бошқа шахсларнинг гумон қилинувчига, айбланувчига, судланувчига юборган почта-телеграф жўнатмаларида содир этилган жиноятга доир маълумотлар ёки иш учун аҳамиятга молик ҳужжатлар, буюмлар бор деб гумон қилиш учун етарлича асослар мавжуд бўлганда, прокурор, терговчи ёки суриштирувчи мазкур шахсларнинг барча почта-телеграф жўнатмаларини ёки уларнинг айримларини хатлаш тўғрисида илтимоснома кўзгатиш ҳақида мазкур тергов ҳаракатини ўтказиш асосларини баён этган ҳолда қарор чиқаради.

Почта телеграф жўнатмаларини олиб қўйишда терговчи қоидага кўра, холисларни почта бўлимлари ходимларидан танлайди. Олиб қўйилган предмет ва ҳужжатларни деталли кўздан кечириш одатда олиб қўйиш ўтказилаган жойда амалга оширилади ва маълумотлар баённомага қайд қилинади. Аммо кўздан кечириш учун махсус билимлар ва турли хил техник воситалар ва асбоблар керак бўладиган бўлса ёки кўздан кечириш узоқ вақтга чўзилса, кўздан кечириш бошқа жойда ўтказилади ва бунда кўздан мустақил тергов ҳаракати сифатида ўтказилиши лозим ва энди унинг натижалари олиб қўйиш баённомасига эмас балки кўздан кечириш баённомасига қайд қилинади. Олинаётган нарса ва ҳужжатларнинг ҳаммаси холисларга, олиб қўйиш ёки тинтув ўтказишда иштирок этган бошқа шахсларга кўрсатилади, баённомада тўлиқ акс эттирилади, зарурат бўлган тақдирда ўралиб, муҳрланади. Ўралган ва муҳрланган нарса ва ҳужжатларни кейинги тергов давомида очишга фақат холислар иштирокида йўл қўйилади.

Дастлабки тергов жараёнида ўтказиладиган олиб қўйиш ва тинтув тергов ҳаракатини ҳар томонлама чуқур таҳлил қилиш мақсадида халқаро тажрибани ўрганиб чиқиш бизнинг фикримизча, муҳим аҳамият касб этади. Демак, хорижий тажрибани таҳлил қилиш бизга тергов ҳаракатларига шу жумладан олиб қўйиш ва тинтувга янада мукамалроқ тушуниш ва янгиликлар киритишга ёрдам беради.

Хусусан, Австрия жиноят процессуал кодексининг 139-моддасида тинтув тергов ҳаракатига таъриф қуйидагича берилган. Тинтув – тергов ҳаракати ҳисобланиб, унда уй ёки квартирадан топилиши тахмини билан яширилган объект, (ҳужжат, предмет, шахс) қидирилади. Ушбу модданинг 2-қисмида шахсий тинтув ҳақида гап кетади. Унда шахсий тинтув гумон қилинувчининг танаси ва кийимлари шунингдек, жиноят ишига алоқаси бўлган предметлар, ҳужжатларни қидиришдан иборат эканлиги белгиланган [6].

Швейцария қонунчилигида ҳам “шахсий тинтув” ва “танани тинтув қилиш” тушунчалари учрайди. Швейцария жиноят процессуал кодексининг 250-моддасига мувофиқ танани тинтув қилиш деганда, инсон танасини жисмоний ва психологик текшириш тушунилади. 249-моддаси эса шахсий тинтув компонентлари келтириб ўтилган. Ишга алоқадор бўлган нарса ва ҳужжатларни, автотранспорт воситасидан кийим-кечак, чамадонлардан ва тананинг юзасидан, ҳеч қандай асбоблардан фойдаланмасдан қидиришга шахсий тинтув дейилади [7].

Энг ҳайратланарлиси шундаки, аксарият дунё давлатларида автотранспорт воситларини тинтув қилиш бино-иншоотларни тинтув қилишга мос келмайди, аксинча, уни худди Франция Республикаси жиноят процессуал кодексининг 56-моддасида кўрсатилгани каби шахсий тинтувга мансуб деб ҳисоблайдилар.

Шуни таъкидлаш керакки, тинтувнинг функция ва вазифалари амалий жиҳатдан кўплаб давлатларда ўхшаш.

Италия жиноят процессуал кодексининг 247-моддасида тинтув тергов ҳаракати иш юзасидан аҳамиятли бўлган далилларни қидириб топиш ва олиб қўйишдан иборатдир. Шунингдек, 103-модданинг 1-қисмида, тинтув қидирилаётган шахсларни қидириб топиш ва ушлаб туриш мақсадида ўтказилади,-деган фикрлар ҳам келтириб ўтилган [8].

Яна Швейцария жиноят процессуал кодексига қайтамыз. Кодекснинг 245-моддасида тинтув жиноятни фош бўлиши учун муҳим аҳамият касб этувчи ҳужжат ва нарсаларни қидириб топиш учун амалга оширилади. 208-моддага кўра, эса тинтув жиноятни фош бўлиши учун зарур бўлган қидирилаётган шахсни ушлаш учун ўтказилади.

Германия жиноят процессуал кодекси 94, 102-моддаларидаги мазмун юқоридагилар билан ўхшаш. Уларда тинтув тергов ҳаракати жиноят иши учун аҳамиятга эга бўлган барча нарса ва ҳужжатларни топиш ва олиб қўйишдан шунингдек, қидирувдан яширинган, ишда гумон қилинувчи сифатида жалб этилган шахсни топишдан иборат эканлиги таъкидланади [9].

Умумий хусусиятлар билан биргаликда турли давлатларнинг қонунчилигида тинтув ўтказиш процедурасининг турли-туманлиги кўзга ташланади.

Биринчидан, тинтув ўтказиш ваколатига эга бўлган шахсларнинг бир хил эмаслиги. Масалан, Швейцария жиноят процессуал кодексининг 190-моддасида тинтув тергов ҳаракати суд, прокурор, полиция томонидан ўтказилиши белгиланган.

Швейцария амалиётидан фарқли равишда Франция жиноят процессуал кодексининг 56-моддасида тинтувни полиция офицери, алоҳида турдаги жиноят ишлари бўйича шахсан судьянинг ўзи амалга ошириши лозимлиги таъкидланади [10].

Германия Федератив Республикаси жиноят процессуал кодексининг 109-моддасига мувофиқ тинтув ва олиб қўйишнинг барча процедуралари суд полицияси томонидан амалга оширилади, фақатгина почта-телеграф жўнатмаларини хатлаш билан судьянинг шахсан ўзи шуғулланади (100-модда). Баъзан кечиктириб бўлмайдиган ҳолларда бу тергов ҳаракатини ўтказиш полицияга ҳам ишониб топширилиши мумкин. Бунда полиция ходими почта-телеграф жўнатмаси билан танишиб чиқмасдан уни муҳрлайди ва уни шахсан кўриб чиқиш ҳуқуқига эга бўлган судьяга топширади. Шундан сўнг судья уни ишга кўшиш ёки қайтариб бериш масалаларини ҳал қилади.

Иккинчидан, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг тинтув ўтказиш ҳуқуқини берувчи санкция бера олиш ваколатидаги фарқлар.

Хусусан, Италия жиноят процессуал кодексининг 247-моддасида, Россия Федерацияси жиноят процессуал кодексининг 183-модда 3-қисмида, Швейцария жиноят процессуал кодексининг 240-моддаларида белгиланганидек, тинтув прокурор санкцияси ёки суд қарори билан ўтказилади. Лекин Франция жиноят процессуал кодексининг 18-

моддаси 2-қисмида суд тинтувга санкция беришдан аввал прокурорни тергов ҳаракати ҳақида хабардор қилади [11].

Италия жиноят процессуал кодексининг 256-моддасида суд давлат сирлари билан боғлиқ ҳужжатларни тинтув йўли билан олиб қўйишда Италия республикаси Вазирлар кенгаши раиси билан келишиши лозим ва бу сўровномага жавоб бериш учун раисга 1440 соат муддат берилади. Агарда, шу муддат давомида жавоб бўлмаса суднинг ўзи бу масалани мустақил ҳал қилиш ҳуқуқига эга [12].

Бизнинг фикримизча, янада либерал талаблардан бири Германия жиноят процессуал кодексининг 98-моддасида мавжуд бўлиб, унда тинтув суд санкцияси билан, кечиктириб бўлмайдиган ҳолларда прокурор рухсати билан ўтказилиши белгиланган [13].

Хорижий мамлакатлар жиноят процессуал кодексларида анъанавий олиб қўйиш ва тинтувдан ташқари компьютер ва бошқа рақамли технологиялардан маълумотларни олиб қўйиш нормалари ҳам мавжуд. Германия жиноят процессуал кодексининг 97-моддасида тинтув қилиш натижасида олиб қўйиладиган ҳужжат ва ашёлар билан биргаликда компьютер аудио, видео материаллар шунингдек, бошқа файллар кирди. 98-моддасида жиноят ишига фақат ҳақиқатни аниқлаш учун ишга алоқаси бўлган материаллар қўшиб қўйилади ҳамда бошқа олиб қўйилган материаллар эса қайтариб берилади [14].

Италия жиноят процессуал кодексининг 103-моддасида адвокатнинг турар жойида ва офисида тинтув тергов ҳаракати агар адвокатларнинг ўзлари жиноят содир қилишда гумон қилинаётган ва ўзларида жиноят предметлари, ҳужжатларни яширяпти деган асосли тахмин бўлса судья ёки суднинг топшириғи билан прокурор томонидан ўтказилади. Франция Республикаси жиноят процессуал кодексига ҳам шунга ўхшаш норма учрайди.

Австрия жиноят процессуал кодексининг 141-моддасига кўра суд ёки ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимлари турар жойида тинтув ўтказишда шу органлардан вакиллар қатнашиши мажбурий ҳисобланади [15].

Шунга ўхшаш ҳолат Италияда ҳам мавжуд. Бу эса тинтув жараёнида қидириладиган объект ва предметларнинг йўқ қилинишига олиб келади.

Хулоса ўрнида айтишимиз мумкинки, олиб қўйиш ва тинтув тергов ҳаракатининг далилларни тўплашдаги ўрни муҳим аҳамият касб этганлиги сабабли, бугунги кунда давлатимиз олиб бораётган сиёсатида мутаносиб равишда мамлакат жиноят процессуал қонунчилигини босқичма-босқич либерализация қилиш ҳамда терговчи ва суриштирувчилар томонидан олиб қўйиш ва тинтув тергов ҳаракатини ўтқазиб давомидаги хато ва камчиликларни иложи борича бартараф қилиш, бу жараённинг ўтказилишига қўйилган талабларни қатъийлаштириш шунингдек, ўтқазадиган ваколатли шахслар категорияларини қисқартириш шу билан биргаликда уларнинг масъулиятини ошириш лозим.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси.
2. doc.histrf.ru/10-16/russko-vizantiyskiy-dogovor/
3. П.А.Дмитриевич. Производство обыск и выемка в уголовном процессе Российской Федерации. Магистерская диссертация. Томский государственный университет. 2018 <https://constitution.garant.ru/history/act1600-1918/3137/>
4. Жиноят-процессуал ҳуқуқи. Умумий қисм. Дарслик. // Муаллифлар жамоаси. /ю.ф.н., дотс. Г.З. Тўлаганова ва /ю.ф.н., дотс. С.М. Рахмоноваларнинг умумий таҳрири остида – Тошкент: ТДЮ нашриёти, 2016. 248-бет
6. Уголовно процессуальный кодекс Австрии [www. Strafverteidigerfriis.at/Strafprozessordnung-StPO.pdf](http://www.Strafverteidigerfriis.at/Strafprozessordnung-StPO.pdf)
7. Уголовно – процессуальный кодекс Швейцарии <http://www.admin.ch/ch/f/ff/2018/1373.pdf>
8. Уголовно – процессуальный кодекс Италии [www.studioaterno.it./documenti/Codice/%20Procedura%20Penale.pdf](http://www.studioaterno.it/documenti/Codice/%20Procedura%20Penale.pdf)
9. Уголовно – процессуальный кодекс Германии www.gesetze-im-internet.de/bundesrecht/stpo/gesamt.pdf
10. Уголовно – процессуальный кодекс Швейцарии <http://www.admin.ch/ch/f/ff/2018/1373.pdf>
11. Code de procédure pénale. Trentieme editione. Jurisprudence general dalloz 11. Rue soufflt-75240 Paris cedex 05.-2018.-art-56-P-92-93
12. www.cours-de-droit.net
13. [www.gesetze-im internet.de/bundesrecht/stpo/gesamt](http://www.gesetze-im-internet.de/bundesrecht/stpo/gesamt)

Тўхтаров Исматуло Муродович,
Олтмишева Насибахон Гуломжоновна
Фарғона политехника институти
(Фарғона, Ўзбекистан)

ЎЗБЕКИСТОНДА УМУМДАВЛАТ ВА ҲУДУДИЙ МАНФААТЛАР МУТАНОСИБЛИГИГА ЭРИШИШ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация. Мақолада Ўзбекистонда давлат бошқарувида ҳудудий манфаатларнинг роли ва аҳамияти масалаларига эътибор қаратилган. Бунда мавзунини ёритиш жараёнида амалдаги қонунчиликни такомиллаштириш борасида амалга оширилаётган саъй-ҳаракатлар хусусида муҳим мулоҳазалар баён қилинган.

Таянч тушунчалар: Давлат, демократик давлат, ҳудудий манфаат, шахсий манфаат, ижтимоий манфаат, ўзини ўзи бошқариш, манфаатларни мутаносиблаштириш.

Тухтаров Исматуло Муродович, Олтмишева Насибахон Гуломжоновна
Ферганский политехнический институт
(Фергана, Узбекистан)

ВОПРОСЫ ДОСТИЖЕНИЯ ЕДИНСТВА ОБЩЕГОСУДАРСТВЕННЫХ И ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье речь идёт о вопросах роли и значения интересов в управлении государством в Узбекистане. В ней изложены некоторые рассуждения по совершенствованию действующего законодательства в республике в данном аспекте.

Ключевые слова: Государство, демократическое государство, территориальный интерес, личный интерес, общественный интерес, сомоуправление, слияние интересов.

“Ҳудудий манфаатлар” деган тушунча ҳозирда амалиётда тез-тез қўлланаётган бўлса-да, унинг мазмун-моҳияти, сиёсий-амалий аҳамияти, ижтимоий тараққиётдаги ўрни билан боғлиқ тасаввурлар кўп ҳолларда мавҳум бўлиб қолмоқда. Ҳолбуки, жамиятни онгли бошқариш манфаатларни фарқлаш ва уларни ҳисобга олиш билан бевосита боғлиқ. Бу эса, “манфаат” тушунчасининг ижтимоий фикр тарихида тутган муҳим ўрни, унинг ижтимоий ва индивидуал ҳаракатларнинг реал сабаби сифатида намоён бўлишидан келиб чиқишига эътибор беришни тақозо қилади.

Узоқ ўтмишдан маълумки, шахсий ва ижтимоий манфаатларни мутаносиблаштириш масалаласи демократиянинг асосий мазмунини ташкил этиб, бу масала илк бор қадимги юнон олимлари томонидан кўтарилган. Полис, яъни давлат “барчанинг умумий иши”, деган Демокритнинг фикри давлатнинг ижтимоий манфаатларни ифодалаши, индивидуал манфаатларни уйғунлаштиришга хизмат қилишини назарда тутди. Бунда давлатга илк маротаба умумий, бугунги тил билан айтганда - умуммиллий, яъни жамият манфаатларининг ифодачиси сифатида қаралган эди. Ҳуқуқ, инсон

хуқуқлари ғояси эса, инсон, жамият ва давлат манфаатларини ифодалаш ва уларнинг мутаносиблигига эришишнинг муҳим воситасига айланди. Натижада индивидуал ва умумий манфаатлар қандайдир мавхум тушунчадан аниқ шакл ва чизгиларга эга бўлган воқеиликка айлана бошлади.

Утопик социалистлар Т. Мор, Т. Компанелла, Сен-Симон ва бошқалар илгари сурган ғоялар, хусусан, идеал жамият ғоясининг жамият ва инсон табиатига зидлиги, айниқса, унинг куч билан жорий этишга интилиш миллионлаб инсонлар манфаатларининг топталишига, жамият тараққиётининг чуқур турғунликка тушиб қолишига сабаб бўлди. Шу туфайли, ҳар қандай таълимотга шахс ва жамият манфаатлари, уларнинг мутаносиблиги нуқтаи назаридан баҳо бериш ва ўрганиш талаб этилади.

Немис файласуфи Гегель эса ўз таълимотида манфаатга алоҳида эътибор бериб, инсонлар ҳаракати уларнинг эҳтиёжлари, қизиқишлари, манфаатларидан келиб чиқишини таъкидлайди. Унинг фикрича, манфаат мазмунини субъект фаолиятини қондиришга қаратилган ҳавас-интилишлар ташкил қилади. Шу туфайли, ҳеч нарса манфаатдан ташқарида амалга оширилмайди. У умумий ва шахсий манфаатлар мутаносиблигига эришишга жиддий аҳамият беради. Унинг фикрича, агар фуқароларнинг хусусий манфаатлари давлатнинг умумий мақсадлари билан бирлашса, улар бир-биридан қониқиш ҳосил қилса, давлат обод ва ўз-ўзидан кучли бўлади – бу принцип ўз-ўзидан олий даражада муҳимдир. Давлат ва жамият қурилишида ушбу принципти амалга оширишга қаратилган ҳаракатлар кейинчалик фуқаролик жамияти ва хуқуқий давлат институтларининг шаклланишига олиб келди.

Умумдавлат ва ҳудудий манфаатлар мутаносиблигига эришиш давлат ҳудудларининг институционаллашуви билан бевосита боғлиқдир. Ҳудудларнинг институционаллашуви натижасида ҳудудий жамоа ҳамда маҳаллий ҳокимият институтининг шаклланиши давлатнинг ҳудудий-сиёсий ташкил этилиши, ҳокимият ва бошқа, шундоқ ҳам баҳс-мунозарали бўлган сиёсий категорияларни янада тиниқлаштириш масаласини қайтадан кўтармоқда

Айрим тадқиқотчилар давлатнинг ҳудудий-сиёсий ташкил этилишини белгилаш учун икки, яъни “ҳудудий-сиёсий уюшма” ва “сиёсий-ҳудудий бўлиниш” тушунчаларини ишлатишади. Шунингдек, федерацияларга нисбатан, улар тарихан шаклланган миллий, маданий, диний ва бошқа хусусиятларга эга автоном субъектлардан ташкил этилганлиги туфайли – давлат-миллий тузилиши, унитар давлатларга – марказлашган давлат сифатида маъмурий-ҳудудий тузилиш тушунчалари қўлланилади. Булардан ташқари, хорижий давлатлар қонунчилиги ва илмий мулоқотида “давлатнинг ташкил этилиши”, “давлатнинг маъмурий-ҳудудий бўлиниши”, “давлат тузилиши” ёки “оммавий ҳокимиятнинг ҳудудий ташкил этилиши” ва бошқа тушунчаларнинг ҳам қўлланиши мазкур институтни ўрганишни қийинлаштиради.

Юқоридагилардан маълум бўладикки, давлатнинг унитар, минтақавий ва федератив шакллари унинг ҳудудий-сиёсий ташкил этилишини тўлиқ очиб беролмайди. Ҳудудларнинг ўз-ўзини бошқариши демократик тамойилдан келиб чиққан ҳолда давлатнинг ҳудудий-сиёсий ташкил этилишини марказлашган, нисбатан номарказлашган, номарказлашган ва ҳудудий давлатларга ва бошқарув моделларига ажратиш мантиқий бўлади.

Ўзбекистон мустақилликка эришгач, ҳуқуқий демократик давлат қуришни ўзининг стратегик мақсади сифатида белгилади. Босқичма-босқич амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотлар ўтиш даврининг барча қийинчиликларини ижтимоий ларзаларсиз бартараф қилиб, барқарор ривожланишга хизмат қилмоқда. Ватанимиз тараққиётини янада юксалтиришга қаратилган энг муҳим ва долзарб мақсад ва вазифалар ҳақида тўхталиб, Ислом Каримов “миллий давлатчиликни барпо этиш ва мустақамлаш жараёнида объектив зарурат бўлган кучли давлатдан кучли фуқаролик жамиятига босқичма-босқич ўтишга эришиш давлат ва жамият қурилиши соҳасида асосий вазифамиз бўлиб қолиши муқаррар” [1; 32], дея таъкидлаган эди. Номарказлаштириш, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларини қўллаб-қувватлаш, ҳудудларни сиёсий жараённинг фаол субъектига айлантириш, яъни уларнинг институционаллашуви – кўзланган мақсадга эришишда долзарблашмоқда.

Умумдавлат ва ҳудудий манфаатлар мутаносиблигига эришиш инсон, жамият ва давлат муносабатларини тартибга солишни англатади. Ҳозирги замонда демократик ривожланиш натижасида ҳудудий жамоалар ўз-ўзини бошқаришининг кенгайиши, уларни сиёсатнинг фаол субъектларига айланиши умумдавлат ва ҳудудий манфаатлар мутаносиблигига эришиш масалалари эътиборни кучайтиришмоқда. Лекин “ҳудудий манфаатлар” тушунчасининг ҳозиргача шаклланмаганлиги умумдавлат ва ҳудудий манфаатлар мутаносиблигига эришиш масалаларини атрофлича ўрганиш ва самарали ҳал қилишдаги асосий муаммолардан биридир.

Мустақил тараққиёт йилларида Ўзбекистон жаҳон сиёсий харитасидаги янги миллий сиёсий тизим мақомига эга бўлди. Ушбу тизимнинг самарали фаолияти унинг элементлари ва даражалари ўртасидаги муносабатларнинг тўғри ташкил этилишига бевосита боғлиқлиги тобора кўпроқ намоён бўлиб бормоқда. Марказ ва ҳудудлар ўртасидаги сиёсий муносабатларнинг институционаллашуви, яъни ҳудудий сиёсий тизимларнинг шаклланиши, уларнинг умумдавлат сиёсий маконидаги ролининг ошиб бориши сиёсий тараққиётнинг долзарб масалаларидан бирига айланмоқда. Сиёсий маконни ҳудудий таснифлаш, сиёсий воқеиликни тизимли ўрганиш баробарида, янги услублар, хусусан, институционал ёндашиш, сиёсий тизимни янада чуқурроқ таҳлил қилиш ва уни такомиллаштириш имконини беради.

Бугунги кундаги марказ ва ҳудудлар ўртасидаги мураккаб муносабатлар – ҳокимият муносабатлари деб талқин этилаётган бўлса-да, бироқ сиёсий жараён сифатида қабул қилинаётгани йўқ. Аксинча, давлат ўз сиёсий маконини ҳудудий таснифлашга салбий муносабатларни шакллантирмоқда.

Ўзбекистоннинг маъмурий-ҳудудий тузилиши сиёсий ҳудудий тизимларни шакллантириш учун расмий асос бўлишини эътироф этган ҳолда, Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар, Тошкент шаҳри, туман, шаҳар, қишлоқ ва шаҳарчалар сиёсий тизимларидан иборатлигини кўриш мумкин. Бунда Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри минтақавий, уларнинг таркибидаги туманлар, шаҳарлар, қишлоқ ва шаҳарчалар маҳаллий сиёсий тизимларни ташкил этади. Маҳалла фуқаролар йиғинларининг нодавлат ташкилотлар сифатида белгилангани эса уларни ҳудудий сиёсий тизим сифатида эътироф этишга баҳсли кўриниш бериши мумкин. Бироқ амалда, бизнингча, маҳалла фуқаролар йиғинлари тегишли ҳудудда маҳаллий аҳамиятга

тегишли масалаларни, асосан, сайланадиган институтлар орқали ҳал қилаётгани учун ҳудудий жамоалар ҳисобланади.

Ўзбекистонда ҳудудий сиёсий тизимларнинг ривожланиши ҳудудий манфаатларни ифода этиш ва умумдавлат манфаатлари билан мутаносиблаштириш имконини беради. Мазкур жараённинг самарали кечиши миллий ва ҳудудий сиёсий институтлар фаолияти билан боғлиқдир. Маҳаллий ҳокимият органлари муҳим ҳудудий сиёсий институт бўлиб, улар ҳудудий жамоалар томонидан шакллантирилади. Мазкур институтнинг ҳудудий жамоа, унинг бошқа институтлари билан яқин алоқалар ўрнатиши ҳудудий манфаатларни аккумуляциялаб, уларни амалга оширишга хизмат қилади. Маҳаллий ҳокимият манбаи бўлган ҳудудий жамоаларнинг индивидлар ва ҳудудий ҳамжамиятлардан иборатлиги сиёсий ва фуқаролик жамияти институтлари ўртасидаги алоқаларни атрофлича ўрганиш эҳтиёжи мавжудлигини кўрсатади. Бу ўринда таъкидлаш лозимки, ушбу алоқаларни ҳамкорлик даражасига чиқармай туриб, ҳудудий сиёсий тизимлар мавжудлиги, давлатнинг барқарор ривожланиши, жамиятдаги хилма-хил манфаатлар мутаносиблигига эришиб бўлмайди.

Мутахассисларнинг фикрларига кўра, фуқаролик институтлари ва ҳокимият органлари ўртасидаги муносабатлар куйидаги беш принципга асосланади: 1) амалдаги қонунчилик нормаларига риоя қилиш; 2) томонларнинг ваколатли органлар функцияларига аралашмаслик; 3) масалаларни музокаралар, дискуссиялар, давра суҳбатлари ва тенглик асосидаги ҳамда бошқа ўзаро алоқа шакллари орқали ҳал қилиш; 4) секторлараро (давлат, бизнес ва ННТ) оммавий қарама-қаршиликдан воз кечиш; 5) келишилган қарорларни қабул қилиш [2; 56-57]. Ўзбекистонлик тадқиқотчилар ҳам фуқаролик жамияти истиқболларини жамоат ташкилотларини ривожлантириш, фуқаролар ташаббусларини кенгайтириш, одамларни ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш билан боғлайдилар.

Умумдавлат ва ҳудудий манфаатларни мутаносиблаштириш мураккаб жараён дур. У етарлича ўрганилган бўлмаса-да, олимлар томонидан марказ ва ҳудудлар муносабатларини мутаносиблаштиришнинг адолат, тенглик, қонунийлик, мувозанатлик ва бошқа талаблари, тамойиллари ҳамда мезонлари тавсия қилинган. И.А. Каримов таъкидлаганидек, биз шунчаки демократик давлат эмас, балки адолатли демократик давлат қуришга интиляпмиз. Адолатга интилиш – халқимиз маънавий-руҳий дунёсига хос энг муҳим хусусият [3; 355]. Умумдавлат ва ҳудудий манфаатларнинг мутаносиблигига эришишда адолат асосий мезон сифатида намоён бўлади.

Умумдавлат ва ҳудудий манфаатлар мутаносиблигига эришиш сиёсий-ҳуқуқий механизмнинг таҳлили ҳудудий жамоалар институтлари, яъни маҳаллий ҳокимият ва давлат органлари ўртасидаги ваколатларни чегаралашни алоҳида институт сифатида ажратиш заруратини кўрсатади. Давлат ва маҳаллий ҳокимият органлари ваколатларини чегаралаш оммавий бошқарувни оптималлаштириш, демократик ислохотларнинг узлуксизлигини таъминлаш, яъни номарказлаштириш мақсадларига эришиш омилларидан бири бўлиб, бугунги кунда Ўзбекистон тараққиётини таъминлашда катта аҳамият касб этади.

Давлат ва маҳаллий ҳокимият органлари ваколатларини аниқ “ажратиш” ёки “чегаралаш” муҳим амалий аҳамиятга эга бўлиб, унинг асосий принциплари: 1) давлат

ваколатларига доир масалалар юзасидан қабул қилинган қонунларнинг барча учун мажбурийлиги; 2) давлат ва маҳаллий ҳокимият органларининг ихтиёридаги масалалар юзасидан агар давлат томонидан қонун қабул қилинмаган бўлса, бундай қонун қабул қилингунга қадар маҳаллий ҳокимият органи томонидан норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилиниши; 3) маҳаллий ҳокимият органлари ихтиёридаги масалалар юзасидан фақат уларнинг ўзлари томонидан норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг қабул қилинишини назарда тутати:

Умумдавлат ва ҳудудий манфаатлар мутаносиблигига эришиш оммавий ҳокимият органлари ваколатларини чегаралаш, маҳаллий ҳокимият органлари масъулиятини кучайтириш ва улар фаолиятига давлат аралашуви баробарида, ҳудудларнинг давлат ҳокимиятини амалга оширишдаги иштирокини тартибга солишдан ҳам иборат. Бунда маҳаллий ҳокимият органларининг аҳоли манфаатларини ифода этиш вазифасини бажариши умумдавлат қарорларини қабул қилишда тегишли даражадаги маҳаллий ҳокимият органи иштирокини тақозо қилади.

Ҳудудий иштирокнинг таҳлили уни фуқаролар, ҳудудий жамоаларнинг бевосита ёки ўз сиёсий-ижтимоий институтлари – маҳаллий ҳокимият ва ўзини ўзи бошқариш органлари орқали давлат ва маҳаллий ҳокимиятни амалга оширишдаги иштироки, яъни сиёсий иштирокнинг бир тури эканлигини кўрсатади. Маҳаллий ҳокимият ва ўзини ўзи бошқариш органлари фуқароларнинг ижтимоий-сиёсий институтлари бўлганлиги туфайли юқори турувчи оммавий ҳокимият органлари фаолиятида иштирок этиш ҳуқуқига эга бўлиши табиий.

Амалиётда тўпланган тажрибаларни таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, бу субъектлар ўз қонунчилик ташаббуси ҳуқуқларидан етарлича фойдаланишмаяпти. Ваҳоланки, қонунчилик ташаббуси ҳуқуқидан фойдаланишга мажбурият сифатида ёндашиш мантиқийдир. Бугунги кунда эса қабул қилинган қонунларни амалга ошириш ва уларнинг ижроси таъминланишини назорат қилиш масалалари қонунчилик жараёнининг ажралмас қисмига айланган. Тадбиқ этиш механизми бўлмаган ва зарур ижтимоий-иқтисодий шароитлар билан таъминланмаган қонун кутилган самарани бермайди, аксинча, амалда ҳаракатсиз бўлиб қолаверади. Оқибатда ҳуқуқий муносабат субъектлари қонунда белгилаб қўйилган ҳуқуқларидан фойдаланиш ва ўз манфаатларини ҳимоя қилиш имкониятидан маҳрум бўладилар. Қонунларни амалга ошириш ва уларнинг ижросини назорат қилиш маҳаллий ҳокимият ва ўзини ўзи бошқариш органлари ваколатлари доирасига кириши уларнинг бу борадаги фаолиятини такомиллаштириш долзарб масалалардан бири эканлигини тасдиқлайди.

Ҳозирги пайтда ижро ҳокимиятининг қонун чиқарувчи ҳокимият олдидаги ҳисобдорлиги давлат бошқарувининг муҳим кўрсаткичларидан бири сифатида белгиланмоқда. Бу тўғрида Ўзбекистон Президенти Ш. Мирзиёев ҳам алоҳида таъкидлаганидек, “парламент ва жамоатчилик назоратининг таъсирчан механизмларини шакллантириш мақсадида шаҳар ва туманларда ҳақиқий аҳволни ўрганиб, тегишли раҳбарларнинг ҳисоботини халқ депутатлари кенгашлари сессияси муҳокамасига киритиш тартибини жорий этишни ҳаётнинг ўзи тақозо қилмоқда” [4; 53]. Бинобарин, ҳудудларнинг давлат ҳокимиятини амалга оширишдаги иштирокини кенгайтириш

умумдавлат ва ҳудудий манфаатлар мутаносиблигига эришишнинг муҳим унсурларидан биридир.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Каримов И. А. Ватанимиз ва халкимизга садоқат билан хизмат қилиш - олий саодатдир / Тадбиркорлар ва ишбилармонлар ҳаракати – Ўзбекистон либерал-демократик партияси IV қурултойидаги маъруза. 2007 йил 6 ноябрь. – Т.: Ўзбекистон, 2007.
2. Кин Д. Демократия и гражданское общество. – М., 2001.
3. Каримов И. А. Ватан саждагоҳ қаби муқаддасдир. Т. 3. – Т.: Ўзбекистон, 1996
4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24-йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза // <http://www.press-service.uz/uz/news/5384/>

SECTION: TECHNICAL SCIENCE. TRANSPORT

Turdaliyev Xusan Inomjonovich
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
“Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi” kafedrası
M16c-20 guruhi magistranti
(Toshkent, O'zbekiston)

BO`RLANMAGAN QOG`OZDA BOSISHDA BO`YOQNING OPTIK ZICHLIGINI TADQIQ QILISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo`rlanmagan qog`ozda bosishda bo`yoqning optik zichligini tadqiq qilish haqida fikrlar bildirilgan. Bozor sharoitiga mos ravishda tayyor maxsulot ishlab chiqarish dolzarb masala hisoblanadi. Hozirgi kunda sanoatimizni qog`ozsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Chunki yurtimizda selluloza, qog`oz va qog`oz mahsulotlariga bo`lgan ehtiyoj nihoyatda katta bo`lmoqda.

Kalit so`zlar: qog`oz, selluloza, korxonada, to'qimachilik, yengil sanoat, mahsulot, ishlab-chiqarish, bo`yoq, optik zichlik.

Turdaliyev Husan Inomjonovich
Tashkent Institute of Textile and Light Industry
Department of "Technology of printing and packaging processes"
M16c-20 master group
(Tashkent, Uzbekistan)

INVESTIGATION OF OPTIC DENSITY OF PAINT ON PRINTING ON NON-COLORED PAPER

Annotation. This article presents the ideas for studying the optical density of paint when printed on non-corrugated paper. Production of finished products in accordance with market conditions is a topical issue. Our industry today is unimaginable without paper. Because the demand for cellulose, paper and paper products in our country is growing.

Key words: paper, pulp, enterprise, textile, light industry, product, manufacturing, paint, optical density.

Турдалиев Хусан Иномжонович
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности
Кафедра «Технологии полиграфических и упаковочных процессов»
M16c-20 мастер группа
(Ташкент, Узбекистан)

**ИССЛЕДОВАНИЕ ОПТИЧЕСКОЙ ПЛОТНОСТИ КРАСКИ
ПРИ ПЕЧАТИ НА ЦВЕТНОЙ БУМАГЕ**

Аннотация. В данной статье представлены идеи по изучению оптической плотности краски при печати на гофрированной бумаге. Актуальным вопросом является производство готовой продукции в соответствии с рыночными условиями. Наша промышленность сегодня немислима без бумаги. Потому что спрос на целлюлозу, бумагу и бумажную продукцию в нашей стране растет.

Ключевые слова: бумага, целлюлоза, предприятие, текстиль, легкая промышленность, продукция, производство, краска, оптическая плотность.

Respublikamizda selluloza–qog‘oz sanoatiga alohida e‘tibor berilmoqda va bu korxonalarining rivojlanishi jadal sur‘atlar bilan bormoqda. Respublika prezidenti SH.M. Mirziyoyev mamlakatimizni 2020-yilda ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2021-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida 2021–yilni yuqori o‘shish suratlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini o‘zi oqlash, islohatlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘lishini belgilab berdi. Shu bilan birga, to‘qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida paxta xom ashyosini yanada chuqur qayta ishlashni ta‘minlash, dastlabki xom ashyoni va yarim tayyor maxsulotlarni yanada chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, paxta sellulozasidan yarim tayyor maxsulot emas, balki tayyor maxsulotlarni jaxon bozoriga olib chiqish kerakligini ta‘kidlab o‘tdi.

Ma‘lumki, yurtimizda selluloza, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji nihoyatda katta. Bu taxchillikni bartaraf etish maqsadida qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarini ishlab-chiqarish borasida innovatsion texnologiyalarni yaratish, ishlab-chiqarish tizimini avvalgidan bir necha barobar jadallashtirish zaruriyati tug‘ildi. Buning uchun esa Respublikamizda imkoniyatlar ham homashyo mahsulotlari ba‘zasi ham yetarli. Shularni nazarda tutgan holda “mahalliy hom-ashyolardan selluloza olish texnologiyasini yaratish” hamda ushbu texnologiya asosida selluloza, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab-chiqarish mavzusi juda dolzarb izlanishlar qatoriga kiradi.

Mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan va yuksak samarali texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha mamlakatimiz o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘yganmiz. Ularni amalga oshirishda kerakli imtiyozlarga ega bo‘lgan maxsus industrial zonalarni tashkil etish yo‘lida oxirgi yillarda yurtimiz ko‘pgina tajribalarga ega bo‘lmoqda.

Ma‘lumki Respublikamizning iqtisodi kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bozor sharoitiga mos ravishda tayyor maxsulot ishlab chiqarish dolzarb masala hisoblanadi. Hozirgi

kunda sanoatimizni qog'ozsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Qog'ozdan elektro-texnika sanoatida, kondensator va elektr jixozlarida izolyatsiya maqsadida, hamda radiotexnika sanoatida turli jixozlarni ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Qog'ozni shisha idish va yog'och qutilar o'rniga ishlatish orqali katta iqtisodiy samaradorlikka erishiladi. Shuningdek qog'ozdan tayyorlangan qutilarda turli mahsulotlarni ishlab chiqarishdan to o'z egalari gacha bo'lgan joylarga yetkazib berishga foydalaniladi.

Mahsulot sifati deyilganda mahsulotning vazifasi bo'yicha foydalanish uchun yaroqlilik darajasini va me'yoriy hujjatlar talablariga, birinchi navbatda, Davlat standartlari talablariga muvofiqligini aniqlovchi xossalarni yig'indisi tushuniladi. Bosma tasvirining xossalaridan birini tavsiflovchi sifat ko'rsatkichi bittalik (alohida) ko'rsatkich hisoblanadi. Tasvir sifati quyidagi alohida ko'rsatkichlarning qiymatlarini aniqlash asosida baholanadi:

1. Optik zichlik
2. Rang tusi, rangning tozaligi, ravshanlik.
3. Alohida bo'yoqlarning moslashuvi (privodka).
4. Qayta ishlash (hosil qilish) aniqligi.
5. Rastr nuqtalarining kattalashuvi.
6. Bo'yoqning nusxada bir tekis taqsimlanishi.

Bu ko'rsatkichlardan har biri o'lchamli (yoki o'lchamsiz) birliklarda o'lchanishi mumkin. Optik zichlik densitometrda aniqlanadi. Uning qiymati optik zichlik birliklarida ifodalanadi.

Quyidagilar nusxadagi rangli tasvirning ob'ektiv baholanadigan (densitometrik) tavsifnomalari hisoblanadi:

- Maksimal optik zichlik (plashkaning zichligi);
- Optik zichliklar intervali;
- Optik zichlikning o'zgarishi;
- rastrli elementlarning nisbiy maydoni;
- Kulrang va rangli shkalalarni (alohida bosma bo'yoqlari bo'yicha) qayta ishlash;
- Kulrang bo'yicha balans;
- Ko'p bo'yoqli yuritishda bo'yoqning o'tishi (trepping);
- Nusxadagi ifloslanganlik (rangning tozaligi).

Bosish jarayonini nazorat qilish shkalasi tuzilishning asosiy g'oyalari bosish jarayoni ko'p jihatdan ehtimollik jarayoni bo'lib, yakuniy natija ma'lum darajada noaniqlikka ega.

Bo'yoqni umumiy uzatish plashkalar-rastr nuqtalarining nisbiy maydoni 100% bo'lgan shkala maydonlari bo'yicha nazorat qilinadi. Plashkalar kvadrat, to'g'ri to'rt burchak, tasma, aylana va h.k. shakllarda bo'lishi mumkin.

Bo'yoqni umumiy uzatishni nazorat qilish elementlari nechta bo'yoq nazorat qilinishi lozim bo'lsa, shkalada shuncha nazorat elementi mavjud bo'ladi. Eng ko'p qo'llaniladigan holat-4 bo'yoqli triada bosmasida shkalada sariq, qirmizi, havorang va qora rang plashkalari mavjud bo'lishi lozim. Agar bosishda qo'shimcha bo'yoqlardan, masalan, aralash (Pantone) yoki metallashtirilgan bo'yoqlardan foydalanilsa, nazorat elementlarining soni tegishli ravishda ko'payadi. Nusxadagi plashkaning optik zichligi densitolyatr bilan o'lchanadi, bunda qog'ozning oqligi albatta hisobga olinadi (ya'ni dastlab qog'ozning bosilmagan maydoni o'lchanadi va bu qiymat 0,0 D (optik zichlik) sifatida qabul qilinadi). Turli qog'oz navlaridagi triada bosmasi uchun har bir bo'yoq uchun plashka optik zichligining me'yorlangan qiymatlari mavjud.

Ofset bosma jarayonlar uchun texnik yo'riqnomalar bo'yicha **bo'rlangan qog'ozda** bosishda rangli bo'yoqlar bo'yicha zonali zichliklar uchun farqlanish $\pm 0,05$ D ni, boshqa holatlarda $\pm 0,10$ D ni tashkil qiladi. Agar bosishda plashkalarining zichlik qiymatlari tavsiya qilingandan past bo'lsa, tasvir to'yinmagan va past kontrastli bo'ladi, zichlik yuqori bo'lsa, to'q joylari qorayib ketgan va juda to'yingan plashkali nusxa olinadi, tasvir qorayadi va uning kontrasti pasayadi. Varaqli ofset bosma uchun shkala optik zichliklarining qiymati (Rossiyani matbaachilik ilmiy-tadkikot instituti tomonidan ishlab chiqilgan ofset bosma jarayonlari uchun texnik yo'riqnomalar)

Jadval - 1.1

Varaqli ofset bosma uchun shkala optik zichliklarining qiymati.

Bo'yoq	Ofset		Bo'rlangan		Yuqori sifatli bo'rlangan	
	2	1	yaltiroq	g'ad.bud	yaltiroq	g'ad.bud
Havorang						
“nam bo'yicha”	1,2	1,25	1,3	1,25	1,50	1,35
“quruq bo'yicha”	1,05	1,10	1,25	1,15	1,45	1,25
Qirmizi						
“nam bo'yicha”	1,15	1,20	1,25	1,20	1,45	1,30
“quruq bo'yicha”	1,05	1,05	1,20	1,10	1,40	1,20
Sariq						
“nam bo'yicha”	0,95	1,05	1,15	1,10	1,35	1,20
“quruq bo'yicha”	0,90	0,95	1,10	1,10	1,30	1,10

Ofset bosma uchun plashkaning optik zichligi qiymatlari (tekis ofset bosma jarayonlari uchun ISO 12647-2 standartiga muvofiq). Birinchi qiymat polarizatsiya fil'trisiz o'lchash, ikkinchisi – polarizatsiya fil'tri bilan o'lchash.

Jadval - 1.2

Ofset bosma uchun plashkaning optik zichligi qiymatlari.

Bo'yoq	Qog'oz			
	Bo'rlanmagan	Yuqori sillqlikdagi rulon.bosmasi uchun	Toza selliyulozali bo'rlangan	
			Bo'rlangan	G'adir-budir
Havorang	0.90/1.00	1.23/1.43	1.45/1.55	1.30/1.45
Qirmizi	0.80/0.95	1.25/1.33	1.40/1.50	1.25/1.40
Sariq (T)	0.65/0.80	0.86/0.91	1.00/1.05	0.90/1.00
Sariq (E)	0.80/0.95	1.16/1.26	1.35/1.45	1.10/1.25
Qora	1.00/1.25	1.45/1.75	1.55/1.85	1.40/1.75

Yevropa triadasi bo'yoqlari bilan varaqli ofset bosmasi uchun plashkaning optik zichliklari qiymatlari (X-Rite firmasi ma'lumotlari bo'yicha)

Bo'yoq	Qog'oz		
	bo'rlanmagan	Yuqori sillqlikdagi	Burlangan g'adir-budir
Havorang	1.20	1.45	1.35
Qirmiz	1.15	1.40	1.30
Sariq (T)	0.85	1.00	0.95
Sariq (E)	1.20	1.40	1.30
Qora	1.55	1.85	1.75

Mamlakatimiz matbaa sanoati oldida turgan muhim vazifalardan biri xalq ehtiyojini qondiradigan, jahon bozorida raqobatlasha oladigan va eksport talablariga javob beradigan sifatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishdan iboratdir.

Hozirgi vaqtda sifat ko'rsatkichlarining sonli qiymatlarini aniqlashga katta e'tibor berilmoqda. Chunki mahsulot qanchalik sifatli bo'lsa, raqobatda g'olib chiqish va eksportga sotilish imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi, bu o'z navbatida Respublikamiz valyuta jamg'armasining yuksalishiga zamin bo'ladi. Xalqimizning fidokorona mehnat va amalga oshirilgan tadbirlar evaziga yuqori o'sish suratlarini izchil ta'minlashga erishilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. С. Стефанов, В. Тихонов цвет ready-made или Теория и практика цвета. М.: 2005. – 318 с.
2. Хвастунов Р. М. Квалиметрия для менеджеров: экспертные методы квалиметрии.- М.:1997. 256 с.
3. Тихонов В. Оригиналы в полиграфии. ПОЛИГРАФИЯ, №1 2005, 24 -28 с.
4. Стефанов С. Цвет и цветовоспроизведение в полиграфии. КомпьюПринт, № 6 1998, 44-47 с
5. Андрей Крылов. `` Heidelberg – парад в Твери``. Компьюарт, №5, 2012, 32-33 с.
6. Марогулова Н., С. Стефанов. Расходные материалы для офсетной печати. М.: 2002 - 244с.
7. Андрей Крылов. `` Контрол качества в строгом режиме``. Компьюарт, №9 2012, 9 – 13 с.
8. Джадд Д, Вышецки Г. Цвет в науке и технике, М.: Мир, 1978. – 256 с.
9. Тихонов В. И. Выбор и подготовка оригиналов для полиграфического репродуцирования. Компьюпринт, №6 2000, 9 – 12 с.
10. Майзель С О. Основы учения о цветах. М.; л.: ОГИЗ, 1972. – 160 с.
11. Стефанов С. Изображения, градация и цвет. М.: Репроцентр М, 2005.176 с

Болтаев О. Т., Нурхонов Б. Ш., Нафасов Н. О.
Ташкентский Государственный транспортный университет
(Ташкент, Узбекистан)

ПУТЕВЫЕ ДАТЧИКИ КОНТРОЛЯ ПОДВИЖНОГО СОСТАВА: СОСТОЯНИЕ ВОПРОСА И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Аннотация. Рассмотрены перспективы развития нулевых датчиков контроля подвижного состава, основные виды и технические характеристики. Выявлено, что перспективным является точечные нулевые датчики индукционного принципа действия и дальнейшее усовершенствование должно быть направлено на уменьшение потерь энергии на магнитопроводах и массогабаритных показателях.

Ключевые слова: полуавтоматическая блокировка, автоматическая блокировка, электрическая централизация, блок обработки сигналов, двуполярный импульс, реверсивный рельсовый датчик.

На скоростных и грузонапряженных железнодорожных магистралях значительно расширяются области использования точечных путевых датчиков (ТПД) счета осей, которые наряду с рельсовыми цепями, становятся и в ближайшее время станут одним из основных типов путевых датчиков систем автоматики и телемеханики магистральных железных дорог. В настоящее время ТПД счета осей на дорогах применяются в устройствах:

– путевой перегонной и станционной блокировки – в системах и устройствах полуавтоматической блокировки (ПАБ), автоматической блокировки (АБ), электрической централизации (ЭЦ) и горочной автоматической централизации (ГАЦ);

– контроля скорости движения подвижной единицы – в системах автоматического регулирования скорости (АРС) на сортировочных горках, автоматических ограждающих устройствах на переездах (ОУП), в некоторых вариантах систем автоматического управления движением поездов (АУДП);

– выявления и фиксации неисправностей, определения числа осей физических вагонов и типа единиц подвижного состава при проследовании его на участках и перегонах: в устройствах обнаружения нагретых букс (ПОНАБ) и контроля исправности колес (КРАП), в устройствах регистрации времени, числа осей и вагонов при проследовании подвижного состава (АСВО).

Счета осей физических вагонов для станционных и узловых систем регистрации числа, времени и перемещения подвижного состава: в автономных горочных контрольно-регистрирующих устройствах (КРУГ) и ГАЦ; в аппаратуре контроля потери шунта выявления длиннобазных вагонов и комплексного контроля головной стрелки ГАЦ; в аппаратуре регистрации перемещения осей подвижного состава АСУ сортировочной станции, устройствах контроля простоя и числа вагонов на грузовых станциях и подъездных путях промышленных предприятий (КПВ-КЧВ).

Надежная работе систем железнодорожной автоматики, имеющих в своем составе датчики для счета осей (ДСО), во многом зависят от достоверности первичной

информации, поступающей от них. На качество функционирования системы также влияют вид носителя информации и метод обработки сигналов ДСО. Например, ошибки в счета осей подвижного состава приводят к нарушению контроля теплого состояния букс в эксплуатируемых сейчас системах ДИСК-Б, ПОНАБ и КТСМ.

Один из ответственных элементов системы счета осей (СО) – датчики прохода осей подвижного состава. Они дают важную информацию о движении составов и являются ответственными элементами многих систем железнодорожной автоматики.

Работы системы СО не зависят от длины контролируемого участка и величины электрического сопротивления балласта. Система состоит из двух или нескольких счетчиков и датчиков, маркирующих концы участка пути и блока обработки сигналов (БОС). Они регистрируют момент прохода осей подвижного состава над датчиком.

Информация о занятости или свободности контролируемого участка формируется при помощи счетчика на основе сигналов от датчиков. При вхождении колеса на контролируемый участок содержание счетчика увеличивается, а при освобождении уменьшается на единицу. Нулевое содержание счетчика информирует о свободности участка.

При регистрации осей считаются колеса или гребни бандажа подвижного состава. Также необходимо, учитывать направление счета для того, чтобы определить, занимает состав контролируемый участок или освобождает. Иногда в качестве опорного направления счета осей принимается направление счета километража.

Рассмотрим основные виды и технические характеристики путевых датчиков прохода осей, применяемых в железнодорожных устройствах автоматизации, контроля подвижного состава, на горках и в системах контроля свободности участков пути.

Многофункциональный датчик МДФ-01 построен на генераторном принципе и обеспечивает высокую чувствительность при относительно небольших габаритах с применением простых схмотехнических решений. Датчик позволяет учитывать скорость движения, определения износа колес подвижного состава и контроля состояния участков пути.

В зависимости от направления движения колеса над датчиком изменяется частота его выходного сигнала.

МДФ-01 устанавливается на рельсах в зоне движения гребня колеса и подключается к блоку обработки сигналов (БОС) типа БОС-4МДФ двухпроводными линиями.

К БОС датчики подключаются по резервным проводам штатных коммуникаций сортировочной горки. Длина двухпроводной соединительной линии не должна превышать 5000 м. На рельс датчик устанавливается на расстоянии не более 45 мм от поверхности головки рельса. При движении колеса частота выходных импульсов датчика (1.4 кГц) изменяется не менее чем на 300 Гц.

На сети дорог еще эксплуатируются датчики ПМБ-56, применяющиеся в системе ПОНАБ. Согласно паспортным данным при использовании реле типа РП-7 датчик работает в диапазоне скоростей 1.5...30 км/ч. При работе датчика с электронным устройством аппаратуры ПОНАБ диапазон допустимых скоростей контролируемых

поездов расширяется до 15...150 км/ч. В настоящее время ПМБ–56 снят с производства из-за низкой надежности.

Датчик ДМ–88 это усовершенствованная конструкция датчика ПМБ–56.

При проследовании колеса в любом направлении воздушный промежуток над датчиком уменьшается, при этом магнитный поток увеличивается. После проследования колеса над центром датчика магнитный поток уменьшается до исходного состояния.

При проследовании колеса в любом направлении датчик формирует двуполярный импульс. Его амплитуда (не менее 0.7 В) прямо пропорциональна, а длительность обратно пропорциональна скорости движения колеса или производной магнитного потока по перемещению. Этот датчик менее подвержен влиянию микрофонного эффекта.

Датчик магнитный помехоустойчивый ШМП–93 разработан на основе ДМ–88

С целью устранения влияния переменного тягового тока он снабжен дополнительной компенсационной обмоткой.

ШМП–93 устанавливается внутри пути между шпалами и крепится к подошве рельса. На кривых участках путей его следует устанавливать на внутренней части рельса. Для предотвращения выхода из строя датчика при изгибе или угоне рельса защищенный шлангом выводной провод головки должен иметь запас длины не менее 100 мм.

При проследовании колеса над датчиком магнитный поток сначала увеличивается, а затем уменьшается. Датчик формирует двухполярный импульс амплитудой не менее 1.2 В.

Датчик работает в диапазоне скоростей от 3 до 200 км/ч при температуре –55...+65 °С и имеет массу 5 кг.

Реверсивный рельсовый датчик магнитного типа ДПВ–02 применяется в составе системы контроля свободности участков пути методом счета осей. Он крепится к подошвам рельсов без каких-либо изменений в конструкции рельсовой линии в соответствии с габаритом приближения строений и подвижного состава. Допустимый вес 1 м рельса к которому крепится датчик 30...75 кг.

Модуль располагается в непосредственной близости от датчика в путевой коробке, кабельной муфте или релейном шкафу.

Диапазон рабочих температура датчика от –60 до +85°С, средняя потребляемая мощность –10 Вт, массу–4 кг.

Он рассчитан для работы при скоростях до 360 км/ч.

При отключении питания 220 В, 50 Гц работу ДПВ–02 в течение 8 ч. обеспечивает источник бесперебойного питания.

Магнитоконтактный пассивный рельсовый датчик ELS–30 не требует отдельного питания и применяется в составе устройств переездной сигнализации, автоматизации сортировочных горок, контроля участков пути методом счета осей подвижного состава при автономной тяге. Ток коммутации геркона не превышает 0.5 А, а максимальной напряжение–100 В. Минимальная зона воздействия колеса на головку датчика–11 кг.

Датчик ELS–7 комплектуются двойные головки типа EFM–2101. Рельсовый датчик построен на генераторном принципе. Он генерирует импульс в момент прохода над ним

колеса подвижного состава ELS-7, предназначен для работы при скоростях до 160 км/ч в диапазоне рабочих температур от -40 до $+70^{\circ}\text{C}$.

Датчик D-50 при всех своих положительных качествах (надежность, высокое качество изготовления, удобный и надежный кронштейн, отличный компаунд) имеет ряд недостатков. Это высокая цена (порядка 750 долл. США), а также необходимость выполнения специальных требований к сечению (более 2 мм^2) и длине кабеля (не более 6 м) соединяющего головку датчика с электронным блоком.

Кроме того, датчик неремонтопригоден. Датчик требует дополнительных формирователей для преобразования синусоидального сигнала частотой 50...60 Гц в прямоугольный импульс.

Итак, можно сделать вывод, что разработка индукционных датчиков ПМБ-56, ДМ-88, ШьП-93, ДП-50-80 и т.д. велась для конкретных систем железнодорожной автоматики и телемеханики (ПОНАБ, ДИСК, ГАЦ). Они рассчитывались на работу с индивидуальным электронным оборудованием счетных пунктов, поэтому не унифицированы. Модернизация этих датчиков проводилась с целью устранения выявленных в процессе эксплуатации недостатков и оптимизации технических параметров и конструкции.

Например, датчику ПМБ-56 присущи такие недостатки, как большие вес, проводящий к излому кронштейна, размер сердечника и расход обмоточного провода, а также размагничивание магнита, приводящее к снижению чувствительности. Он подвержен влиянию переменного тягового тока, ложным срабатываниям за счет микрофонного эффекта и работает в малом диапазоне скоростей.

Изменение конструкции магнита и кронштейна в процессе его усовершенствования привело к появлению в магнитопроводе дополнительных воздушных зазоров, которые уменьшили величину магнитного потока и как результат, привели к снижению чувствительности.

Во вновь разработанных датчиках (ДМ88, ДМ90, ДМ92) удалось, за счет применения более качественной технологии изготовления уменьшить влияние микрофонного эффекта, но появились дополнительные недостатки.

